

XALQ OG'ZAKI IJODI

GO'RO'G'LINING TUG'ILISHI



XALQ OG‘ZAKI IJODI
O‘ZBEK XALQ DOSTONLARI

GO‘RO‘G‘LINING
TUG‘ILISHI

(“Go‘ro‘g‘li” dostonlari turkumi)

«Yangiyul Poligraph Service»
TOSHKENT – 2019

UO*K: 398.21(=512.133)

KBK: 82.3(50')

G'99

Go'ro'g'lining tug'ilishi: xalq og'zaki ijodi. - Toshkent : Yangiyul Poligraph Service, 2019. - 208 b.

Aytuvchi:

MUHAMMAD JOMUROT O'G'LI PO'LKAN SHOIR

Yozib oluvchi:

Hodi ZARIFOV

Nashrga tayyorlovchi:

Malik MURODOV

Qayta nashrga tayyorlovchi, iqtibos va izohlarni kirituvchi:

Ergashboy MATYOQUBOV

AZIZ KITOBXONLAR!

Qo'lingizdagi ushbu kitob, ya'ni "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni turkiy xalqlar xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lib ming yillar davomida xalqimiz baxshilari tomonidan kuylanib, xalqimiz tomonidan sevib tinglangan. Bu doston "Go'ro'g'li" dostonlari turkumidagi dostonlarning dastlabkisi hisoblanadi.

*"Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonining ushbu nusxasi xalqimizning mashhur baxshisi **Muhammad Jomurot o'g'li Po'lkani shoir** (1868-1937) tomonidan kuylangan va **Hodi Zarif** (1905-1972) tomonidan yozib olingan. Nashrga esa **Malik Murodov** tomonidan tayyorlangan.*

"Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida turkiy xalqlarning azal-azaldan imon-e'tiqod, or-nomus, va islom dinining ulug'lanishi yorqin ranglarda aks ettirilgan. Siz dostonni o'qish davomida Go'ro'g'li otasi Ravshanning dushmanlar qo'lga asir bo'lib tushishi, uning dushmanlar elidan qochishi, xotini Bibi Hilolning qabr Go'ro'g'lini tug'ishi, Go'ro'g'lining ota yurtiga qaytib kelishi, togasi Ahmadning xotinini Rayhon arab olib qochishi, Go'ro'g'lining G'irko'k otini yo'qotishi, uni izlab safarga chiqishi, unga chiltanlarning yordam berishi, otini qayta topishi, Rayhon arabning qizi – Zaydinoyini olib qochib tog'asiga keltirib berishi, Chambilga podsho bo'lishi kabi sarguzashtlarga guvoh bo'lasiz.

Shuningdek, dostonni o'qish davomida xalqimizning tarixiy etnografik urf-odatları, safar, ota-bola munosabatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Dostonning ushbu nashriga hozirgi davr kitobxonlarining talab va iltimoslariga asosan qo'shimcha iqtiboslar kiritildi va asar, imkoni boricha, hozirgi o'zbek adabiy tili qoidalari asosida qayta tahrirlandi.

UO*K: 398.21(=512.133)

KBK: 82.3(50')

G'99

ISBN: 978-9943-5946-5-4

Abdulla Qodiriy nomidagi

viloyat AKM

INV № 169204-2019

© Xalq og'zaki ijodi.

© «Yangiyul Poligraph Service», 2019

Burungi zamonda Yovmit degan el, Mari degan yana bir qo'rg'on bor edi. Yovmit yurtining Odilxon degan podshosi bor edi. Odilxon podshoning ikki o'g'li bo'lib, kattasining oti Urayxon, kichkinasining oti Ahmadbek edi. Bibi Oysha degan bir qizi ham bor edi. Mari yurtining Qovishtixon degan xoni bor edi. Qovishtixonning To'liboy sinchi¹ degan bir o'g'li bor edi. Ko'p esli, aqlli, tamizli², farosatli odam edi.

Marining begi Qovishtixon Yovmit elining xoni Odilxon podshoning bozorchi savdogarlarini yo'lda talab oldi.

Shunda molini oldirgan odamlar: «Dod!», – deb Odilxon podshoga arzga keldi.

Odilxon podsho buni eshitib, achchig'i kelib, birdan sarboz askar chiqarib, to'p-to'pxonasi bilan Mari yurtini tep-tekis qilib yubordi. Qovishtixon bekni to'pga solib otib yubordi. Hali-gi bozorchi savdogarlarning mollarini olib berdi.

Qovishtixonning yetti yoshli o'g'li – To'liboy sinchini bandi qilib olib keldi. Lekin otasining qilgan ishidan buni gunohsiz bilib, o'z oldiga xizmatkor qildi. To'liboy sinchi xizmat qilib yuraverdi. O'n to'rt yashar bo'ldi. O'n to'rtga kirguncha

¹ **Sinchi** – otlarning zotini, naslini, yoshini, fe'l-atvorini yaxshi biladigan odam.

² **Tamiz** – aql, hush, odob.

o‘qib, xat-savodi chiqdi. Lekin o‘zi ajab bir odobli, chiroyli, yaxshi yigit bo‘ldi. Otlarning yaxshi-yomonini biladurgan sinchi bo‘ldi.

Bir kunlari, To‘liboy sinchining xizmati yoqqanligidan, bu ham o‘zimning suyagim-da, der Odilxon podsho Bibi Oysha qizini unga nikohlab berdi. Bibi Oyshaning bo‘yida bo‘lib, oy-kuni to‘lib o‘g‘il tug‘di. Otini Ravshanbek qo‘ydi. Shunda Ravshanbek besh yashar bo‘ldi, uni maktabga berdi.

Ravshanbek o‘zi tengi bolalar bilan maktabda o‘qib yura berdi. Sakkiz yashar bo‘lganda xat-savodi chiqdi. Taka Turkman degan yana bir yurt bor edi. Bu yurtda Jig‘alixon degan bek bor edi, Jig‘alixonning Gajdumbek degan o‘g‘li, Bibi Hilol degan qizi bor edi.

Ana endi gapni Zargar degan shahardan eshiting: Zargar shahrining Shohdorxon degan podshosi bor edi. Kunlardan bir kuni Shohdorxon ikki yuz guburlarini¹ yig‘ib, maslahat qildi:

– E, turgan guburlarim, moyonaxo‘r jekchilarim², menga maslahat beringizlar! Mening bir o‘yim bor: Yovmit yurtdan Odilxon podshoni yo‘q qilaman, qo‘rg‘onini qulataman, o‘ligini sulataman, xazina-pazinasini o‘lja qilib, sizlarga talataman, – dedi.

Shunda Shohdorxonning vaziri Holmon aytdi:

– E podsho, so‘zingiz ma‘kul, lekin elchi yubormoq lozim. Elchi yubormay birdan zo‘rlik qilib yov yubormoq podsholardan lozim emas.

Boshqa turgan kattalar aytdi:

– Amri podsho vojib. Elchi yubormaymiz, birdan yov yuboramiz!

Holmon:

– Hoy, attang, bu so‘z o‘zlaringga yomon, jonlaringning jabri, – dedi.

Shunday bo‘lsa ham, Holmonning so‘zi yaylovga³ chiqmadi, bir o‘zi bo‘lib qoldi. Boshqasi buning so‘ziga quloq solma-

¹ Gubir, gubur – aslida «gubernator» so‘zining qisqargani. Bu yerda hurmat ma‘nosida qo‘llangan.

² Davlatdan maosh olib ishlovchi maslahatchi amaldor.

³ E‘tiborga olinmadi, ma‘nosida.

di. Esli, aqlli Holmon buni bilib, nochor indamay qoldi. Shunda Shohdorxon podshoning askar boshliqlari, maslahat beruvchi donolari birdan urush qilib, Odilxonni yurti Yovmitdan ko'tarib, yo'q qilib, o'ldirib, mollarini o'lja qilib olmoqchi bo'lib, maslahat qildilar.

Shohdorxon xizmatkor mahramlariga¹ buyurdi:

– Borib butxonadagi² poplarga³ aytinglar, butxonaning qo'ng'irog'ini ursin.

Shunda poplar qo'ng'iroqlarni ura berdi, qo'ng'iroqning tovushi olamni tutdi. Buni eshitgan barcha fuqarolar jonlari tebranib nima gapligini bir-biridan eshitib:

«Bizlarning podshohimiz yovmitlarni yo'q qilmoqchi bo'lib, g'ayrat bilan qo'ng'iroq urayotgan ekan, podshohimiz oldida yovmitlarning nima haddi bor? Bizning podsho har nima desa qiladi», – deyishib gaplashib qoldi..

Bularni bu so'zda qo'ying, endi podshodan eshiting.

Podsho:

«Yovmit yurtiga lashkar jo'natinglar!» – deb amr qildi. Shunda turgan lashkar boshliqlari yig'ilib lashkarlarni yo'lga soladigan karnay, qo'ng'iroqlarni chalishib, Odilxonning yurtiga jo'namoqchi bo'lib, podshoning oldida jam bo'ldi. Shohdorxon lashkarlarga qarab:

– Sizlarni lotga topshirdim, butga topshirdim, shisha Albat ko'kka topshirdim, yog'och choryorga topshirdim, kumushdan bo'lgan payg'ambarga⁴ topshirdim, – dedi.

Shunda tabiblari aytdi:

– E lashkarlar, urushga borib omon-eson kelinglar, lekin urushib mayib bo'lsalaring, men tuzatayin! Oyoq yo'q bo'lsa, oyoq qilaman; qo'l yo'q bo'lsa, qo'l; burun yo'q bo'lsa burun – shunga o'xshash har bir badanlaringizdan yo'q bo'lganini o'zim tuzataman, – deb lashkarlarning ko'nglini xush, dimog'ini chog' qildi.

¹ Mahram – xizmatkor, xos odam.

² Butxona – butga sig'inuvchilar ibodatxonasi, cherkov.

³ Pop – pravoslav cherkovida ruhoniyning rasmiy nomlaridan biri.

⁴ Lot, shisha Albat ko'k, yog'och choryor, kumush payg'ambar – butparastlar sig'inadigan butning nomlari.

Lashkarlar o'limdan qo'rqmay, to'p-to'p, gur-gur, baydoq-baydoq¹, olam-olam, tumanday bo'p² yovmitlarning usti-ga qarab jo'nab keta berdi.

Lashkarning orqasidan podsholik saltanati bilan Shohdorxon ham noibi Subyon deganni o'zining o'rniga o'tqazib, Holmon vazirdan tortib, barcha maslahat beruvchilari bilan bul ham keta berdi.

Shohdorxonning lashkari uch oy yo'l yurib, uch oy deganda Taka-Yovmit Urganchi yurtining Asqar degan tog'iga yetib qo'ndi. Shu kuni payshanba edi.

Bularni bu yerda qo'nmoqda qo'yib, ana endi Taka Yovmit yurtining podshosi Odilxondan eshiting.

Taka Yovmit elining o'quvchi bolalari har kuni o'qib, payshanba kuni tushdan keyin ozod bo'ladirgan rasmi bor edi. Shu kuni Taka Yovmit madrasalaridagi sap³ katta-kichik mulla-vachchalar tog'da sayohat qilmoqchi bo'lishib, To'liboy sinchining o'g'li Ravshanbek ularning kattasi bo'lib, toqqa chiqdi.

Bolalar tog'ni sayohat qilib, buloqlar, ko'kalam yerlarni tomosha qilib yurgan edilar, birdan quloqlariga otlarning duburi keldi. Qarasalar, qirning boshini to'zon olibdi, qo'llarida yalang'och qilich, miltiqlari o'qlangan lashkar bularga qarab daf qilib, to'rt tomonini qurshab olibdi. Mullalar buni ko'rib qo'rqib, yuraklari yorilib ketdi.

Shunda askarlar bularni bandi qilib haydab Shohdorxon podshoga to'g'ri qildi. Shohdorxon qarasa, hammasi yosh bola ekan, ularni o'ldirmoqqa ko'zi qiymadi.

«Kel-e, bularni o'ldirmayman, yursin», – dedi, rahm qilib, yaxshi iltifotlar qildi, noz-ne'mat ovqatlar qo'ydi. Bular qo'rqib qolgan edi, ovqat yeyolmadi. Podsho so'radi:

– Nimaga yemaysanlar?

– Bizlar qo'rqdik, – dedi.

Shohdorxon esli podsho edi, bularning qo'rqqanini bildi.

– Bularga ozor bermanglar, – dedi.

Bularni qo'rqmoqda, Shohdorxonni Asqar tog'iga kel-

¹ Baydoq – 1) bayroq; 2) to'da.

² Bo'lib.

³ Barcha.

moqda qo'yib, ana endi Taka-Yovmit elidan eshiting.

Mullavachchalarning kelmaganidan Taka-Yovmit eli qo'rqishib, axtarib, har tarafga qarab, bular ham shu toqqa, qo'shinning ustiga kelib qoldi. Bularning kelganini bilib, Shohdorxonning qo'shini quvib yarmini bandi qilib oldi, yarmi qochdi.

Qochganlar qochib, Odilxon podshoning oldiga bordi. Bo'lgan voqealarni: «Bir cherik¹ lashkar Asqar toqqa keldi, yulduzdan ham ko'p», – deb arz qildi. Odilxon podsho bu so'zni eshitib, bu ham cherik, lashkar yig'moqchi bo'lib, har tarafga, qo'rg'on-qo'rg'onga xat yubordi.

Beklariga: «Darrov yig'ilinglar!» – deb qattiq amr qildi. Oqshom bilan chopishib, erta bilan har tarafdin to'zonlar paydo bo'lib, qo'rg'onning atrofini lashkar tutdi. Odilxon podsho:

– Kelgan lashkar kim ekan bilib kelinglar! – deb o'zining Taka begi Zamon degan lashkar boshlig'ini bir necha odamlarga qo'shib, elchi qilib yubordi. Elchilar Shohdorxon podshoning oldiga borib, qo'llaridagi elchilik ariza-xatlarini ko'rsatdilar. Shohdorxon mirzalariga:

– O'qib ko'ringlar, nima xat ekan, – dedi. Mirzalar o'qib ko'rdi.

Xatda:

«Bu qanday behurmatlik, podsholardan bunday behurmatlik lozim emas edi-ku. Podsholar yurishni, turishni oldin elchilar bilan bildirib, elchiga ko'nmasa, so'ngra safar qilib kelar edi. Bu rasm avvaldan oxir qoida bo'lib kelayotgan edi...», – deb yozibdi.

Shohdorxon bu so'zlarni eshitib, Holmon vaziriga qaradi. Holmon vazir:

– O'zingiz bilasiz, men bir farmonbardorman. Siz har nima amr qilsangiz, shuni qilaman, – dedi. Podshoga maslahat bermadi.

Shunda Shohdorxon elchilarga qarab:

– Borib Odilxon podsholaringga aytinglar, kelib menga fuqaro bo'lsin, boj-xiroj bersin! Bermasa, fuqaro bo'lmasa, yurti-

¹ Cherik – qo'shin.

ni, elini yer bilan yakson qilib, hammasini to's-talqon qilib, o'zlarini o'ldirib, mollarini o'lja qilib, lashkarlarimga talatib yuboraman! – dedi.

Elchilar Shohdorxonning qog'ozini Odilxon podshoga olib kelib ko'rsatdilar.

Ana shunda Odilxon podsho:

– Unday bo'lsa, dushman tog'dan oshmay, uning ustiga bizlar ham boraylik, – dedi.

Hamma lashkar jam bo'lib, bular ham Asqar tog'dan oshib qo'sh tashladi.

Bularni Shohdorxonga ko'rinish berib, qo'nmoqda qo'yib, endigi gapni Holmon vazirdan eshiting.

Holmon vazir, podshohimning tuzini ko'p yeganman, har nima bo'lsa ham bir so'z aytayin, deb Shohdorxon podshoga qarab aytdi:

– E podsho, dushmaning xas bo'lsa qo'rq, degan ekan. Sen ham butunchiligingning fikrida bo'!

Shohdorxon podsho:

– Urushga tayyorlik qilinsin, – deb amr qildi. Urush nog'orasini urdi, karnay-surnaylarni chaldirib, lashkarini otlariga mindirib, miltiqni o'qlab, piltani choqlab, choq bo'ldi.

Odilxon podsho ham urush nog'orasini chaldirib, lashkarlarini choqlab otga mindirib, urushmoqqa choq bo'ldi, ko'ngillari to'q bo'ldi. Ikki taraf podsholarining urush uchun qilgan shon-u shuhratlariga yer tebrandi.

Birdan Odilxon podshoning lashkariga Nazar degan kishi boshchiligida ko'p lashkar kelib qo'shildi. Uni ko'rib Shohdorxon podshoning rangi o'chdi, qo'rqdi. «Hay attang, Holmon vazirning so'ziga kirmaganim yomon bo'lgan ekan, aytgani keldi», – dedi. Shunday bo'lsa ham qochmoqqa nomus qildi. Ko'p ishlarning bo'lishini, odamlarning o'larini bildi, bilsa ham kishilarning qoniga jabr qildi:

– Har nima bo'lsa bo'lar, urush qilinglar! – dedi.

Shunda ikki tarafdin «Ur-ho!» degan ovozlari chiqdi. Birdan bir-birlariga ot qo'yishib¹, tala-to'p bo'lishib, bir-birlari

¹ Ot qo'yimoq – yovga tashlanmoq, hujum qilmoq.

bilan aralashib qoldi. Ajal yomg'iri yog'di. Nayzabozlik, qilich-bozlik, bir-birovining jazosini bermoq sarbozlarga bo'ldi ermak. Hech kim ko'rmagan, hech bir quloq eshitmagan katta urush bo'ldi, o'liklar to'ldi, o'liklarning ostidan sizot-sizot¹ qon ketdi. Shu kun to'qqiz soat urush bo'ldi. Undan keyin urushni yotqizmoqqa nog'ora chalindi. Urush yotib, har qaysi taraf lashkarlari o'z taraflariga qarab qaytdi. Shunda Odilxon podshoh Shohdorxon podshodan g'olib keldi. Bu ish Shohdorxon podshoning manmanligidan bo'ldi. Shohdorxon podsho o'zini mag'lub ko'rib, Odilxondan muhlat so'radi. Shunda Odilxon podsho:

– Asqar tog'ida qo'lga tushgan mullavachchalarni qo'yib yuborsin, – dedi. Shohdorxon podsho hammasini qo'yib yubordi. Lekin Shohdorxonning Hamza degan bir odami bor edi. Shohdorxondan yashirib, Ravshanni bir sandiqqa solib oldi, uni o'g'il qilib olmoqchi bo'ldi. Tashqaridan Odilxonning beklaridan Jig'alixonning o'g'li Gajdumbek bilan qizi Bibi Hilol ham bularning ichiga qo'shilib o'lja bo'lib ketdilar.

Shunda urush tamom bo'ldi. Har ikki taraf podsholar o'z taraflariga qaytdilar.

Odilxon: «Ravshanxon o'lgan ekan-da», – deb undan umidini uzdi, afsuslar qildi.

Bularni bunda qo'ying, Shohdorxondan eshiting.

Shohdorxon uch oy yo'l yurib, o'z yurti Zargarga yetdi, taxtiga mindi. Erta bilan tong otdi, Shohdorxonning xos xizmatkori kelib arz qildi.

– E podshohim, Odilxon odamlaridan bir ayol, bir erkak bandi bo'lib kelibdi, – dedi.

Shohdorxon podsho: – Unday bo'lsa, bunda olib keltir, – dedi. Olib kelib Shohdorxonga to'g'ri qildilar.

Shohdorxon ularni ko'rib, vaqti xush bo'lib, mehri yonboshga kelib: – E, mehmonlar mendan maqsad tila! – dedi.

Qo'rqan, gapiga tushunmagan Gajdumbek indamadi.

Shunday bo'lsa ham, Shohdorxon Gajdumbekka yasovul² boshliq amalini berdi. O'z oldida saqladi. Gajdumbek

¹ Sizot – yer ostidan chiqadigan zax suv. Bu yerda buloqday demoqchi.

² Yasovul – O'rta Osiyo xonliklari davrida yuqori mansabdagi amaldorlarga xizmat qiluvchi qurolli soqchi, posbon. Yasovul boshliq (yasovulboshi) – yasovullar boshlig'i.

kamsiz bo‘ldi, davlati juda katta, o‘ziga bir yaxshi joy solmoqchi bo‘lib, shahardan uzoqroq yerdan sakkiz oshyonlik imorat soldi. Imorat bitdi, oradan yetti yil o‘tib ketdi.

Gajdumbekning singlisi Bibi Hilol bo‘yi yetib qoldi. Shunday bir qiz bo‘ldi: o‘n to‘rt kunlik oyday to‘lgan, husni o‘ziga yarashgan, ko‘rganlarning aqli shoshgan, qoshi qalamday, qiyilgan yoyday, lablari moyday, ertan¹ choy, oqshom palov, muhrlab qo‘ygan qog‘ozday. Qorong‘i uyda yotsa, uy yop-yorug‘ bo‘lib ketadi. O‘zi o‘n beshga kirgan, lekin boshi bo‘sh edi.

Shuytib² bular yura bersin, endigi so‘zni Ravshanbek bilan Hamzadan eshiting:

Hamza, Ravshanbekni o‘g‘il qilib olaman, deb har kuni tong otguncha uning kokilini yetti martaba o‘rib, har o‘rganda mushkning³ suvini berar edi. Ravshanxon ham bir bola bo‘ldiki, ko‘rganlar havasda, ko‘rmaganlar armonda, kamsiz, suluv-xushro‘y.

Ana endi, Shohdorxon podshodan eshiting:

Shohdorxon podsho bir kuni yomon tush ko‘rdi, tushida bir ajoyib ish ko‘rdi. Shunda qur‘andoz⁴ munajjimlarini⁵, hukamo-ta‘burchilarini yig‘di. Yig‘ilganlarga qarab, Shohdorxon podsho bir so‘z aytdi:

Guburlarim, bugun uxlab tush ko‘rdim,
Men tushimda ko‘p qabohat⁶ ish ko‘rdim,
Yo bilmayman, o‘zi manglayning sho‘ri,
Yovmit eldan keldi ikkita bo‘ri.
Kelgan bo‘ri, qur‘andozlar, kim bo‘ldi?

Ikki bo‘ri tog‘da ikki sher quvdi.
Sherbachchalar qo‘yga oralab qoldi,

¹ Ertan – ertaga, ertasi.

² Shunday qilib.

³ Mushk – qora tusli va xush isli suyuq modda.

⁴ Qur‘andoz – qur‘a tashlovchi, fol ko‘ruvchi, tush ta‘bir qiluvchi.

⁵ Munajjim – yulduzlarga qarab fol ochuvchi.

⁶ Qabohat – yomonlik.

Qo'yimning o'ligin har yoqqa otdi,
Tutunim burnimdan chiqib ketdi.
Bu tushimning ta'birlari na bo'ldi?

Tepamdan bir lagan tillam sochildi,
Og'zimdanda bir tolpir¹ qushim uchildi,
Imoratim bari tekis bo'ldi,
Bir oy elima² paydo bo'ldi,
Shu'lasi olamni yop-yorug' qildi.
Qur'andozlar, ayting, ta'bir na bo'ldi?

Bir chinor elimdanda ko'karib ketdi,
G'alt urib, shoxasi³ osmonga yetdi,
Quray-quray⁴ soyalagan kim bo'ldi?

Sochlaringni tol-tol⁵ qilib taranglar,
Bu gaplarni kim ko'rgandan so'ranglar!
Tushi qursin ta'birlari ko'p yomon,
Bu tushimning ta'birini yo'ringlar!
Munajjimlar, ayting, ta'bir na bo'ldi?

Barcha hukamo, qur'andoz-munajjimlarning ichida Yusuf degan bir qur'andoz bor edi. Yusuf podshoga qarab, tush ta'birini aytib, bir so'z dedi:

Bilmaganing bildirayin bilmasang,
Podshohim maqsadga yetgin, o'lmasang!
Bu tushingning ta'birini aytayin,
Tag'in-a, ko'nglingga og'ir olmasang.

Zimiston ayrilmas tog'larning qori,
Tushing qursin, bildim, manglayning sho'ri!

¹ Talpingan.

² Elimda.

³ Shoxa – shox va novdalar, shox-shabba.

⁴ To'da-to'da.

⁵ Tol-tol – taram-taram.

Yovmit eldan kepti¹ ikkita bo‘ri:
Ikkovidan yaxshi farzandlar bo‘lar,
Qo‘yingni o‘ldirgan bo‘ri – ikkovi.

Boshlaringga necha savdolar solar,
Fuqarongning ko‘ngli qoralar bo‘ldi.
Tushingning ta‘biri shuldir podshoyim.
Shu birovi elatingga shoh bo‘lar,
Tushingning ta‘biri shuldir podshoyim!

Tepangdan sochilgan tillang – qoningdir,
Og‘zingdan uchgan qush – joningdi(r),
Qulagan imorat sening tanangdi(r),
Tushing qursin, ta‘birlari shu bo‘ldi!

Qaytayin, manmanlik yetdi boshingga,
O‘lmayin podshoyim qilgan fikringni,
Tushingning ta‘biri cho‘rtta² shu bo‘ldi.

Shohdorxon qur‘andozlardan bu so‘zni eshitib, jallod-
mirk‘azablarga³ buyurdi:

– Darrov shu ikkovini topib kelinglar!

Ravshanxonni, Gajdumbekni olib keldi; podshoga
to‘g‘ri qildi. Shohdorxon podsho bu ikkovining qaddi-qomatini
ko‘rib, o‘ldirmoqqa ko‘ngli bo‘lmay, ko‘zi qiymadi:

«Men bo‘lsam, o‘lar ekanman. Mendan qolgan bola-
larim taqdiridan ko‘rsin», – dedi.

– Bor, ikkovingni ozod qildim, oyog‘ing borganicha
yuraber, o‘limlaringni o‘tdim, – dedi.

Buni eshitib Hamzaning dimog‘i chog‘ bo‘ldi, Ravshan-
bekni uyiga olib keldi, tirik qolganiga elliktacha ho‘kiz, sigir,
qora moldan so‘ydi, elni ziyofat qildi. Hamma yig‘ilib, odamlar
jam bo‘ldi, go‘shlar pishib, dasturxonni yozib, odamlarga zi-

¹ Kelibdi.

² Cho‘rtta – shartta, butunlay, darrov.

³ Mirk‘azab – o‘limga hukm etilganlarni olib kelishga yuboriladigan askar, jallod.
Mahbus va bandilarni jazolaydigan, kaltaklab tergov qiladigan zindon nazoratchisi.

yofatni tortdi. Odamlar qorinni to‘qlab, dimog‘ni choqlab qoldi. Shuytib, ziyofatga yig‘ilgan xaloyiqlar tarqalishib ketdi.

Bular ketgandan so‘ng har kuni Hamza Ravshanni tomoshaga olib chiqdi, bayramlarni ko‘rsatdi. Shuytib-shuytib Ravshanbekning esi kirib, har kuni o‘zi tomoshaga chiqmoqni o‘rgandi.

Kunlardan bir kuni ko‘chalarda tomosha qilib yurib, bu yurtda yurganiga xafa bo‘lib, yurak-bag‘ri ezilib, ko‘zidan yoshi oqib kelayotib edi, yo‘li Gajdumbekning ko‘chasiga tushib qoldi. Shu vaqtda Hiloloy sakkiz oshyonlik imoratning yuqorisidan ko‘chaga qarab o‘tirar edi. Ko‘zi Ravshanga tushdi. Farosat bilan bildi, bu yigit bu shahardan emas.

Shunda Hiloloy Ravshanbekka qarab, to‘xta, deb bir so‘z dedi:

Kuygan odam to‘kar ko‘zning yoshini,
Haq o‘ng‘argay¹ mo‘minlarning ishini.
Bolang o‘lgan desam, o‘zing yosh bachcha,
Ko‘ngil xushi qallicqinang o‘ldimi?

Nimaga yig‘laysan bag‘ring ezilib,
Kuygan bachcha, to‘xtat otning boshini!

Suluv qizlar burab qo‘yar sochini,
Mard yigit g‘animdan olar o‘chini.
Bag‘ring kuygandayin bo‘zlab² yig‘laysan,
Menga aytgin yig‘laganing vajini!

Bu shahri azimda aylanish ko‘cha,
Oshiqning uyida qorong‘i kecha.
Ota-onang o‘lgandayin bo‘zlaysan,
Ot boshini picha to‘xtat, bekbachcha!

Qizil gul ochilar g‘unchadan-g‘uncha,
Toqatim yo‘q shu kun gul ochilganча.

¹ Qulay qilsin.

² Bo‘zlamoq – ho‘ngrab yo‘qlab yig‘lamoq.

Sen yigʻlading, menda toqat qolmadi,
Ot boshini picha toʻxtat, bekbachcha!

Shunda, Ravshanbek, qanday ekanini bilmay, u yoq-bu
yoqqa qarab, asta-asta Hiloloyga bir soʻz dedi:

Qoshing kerib, qovogʻingni uydirma,
Oltin piyolaga mayni toʻldirma!
Doʻstmi – dushmanmisan, seni bilmadim,
Bu mening oʻrtangan jonim kuydirma!

Quloq solgin, soʻzning yolgʻon-rostiga,
Quloq solgin, soʻzimning payvastiga!
Bu shaharda menda oshna yoʻq edi,
Koʻp dard qoʻshding yana dardning ustiga.

Yigʻlaganda yosh toʻkilar yuzima¹.
Qiyomatdan yomon dunyo oʻzima²,
Kim ham boʻlsang, bir koʻrayin, chirogʻim,
Oʻz kuyganim yetmasmidi oʻzima?

Ajal yetib shu vaqtlarda oʻlmadim,
Yovmit elning qadrini hech bilmadim,
Kim ham boʻlsang, bir koʻrayin, qaddingdan,
Doʻstmi – dushmanmisan, seni bilmadim!

Shunda Bibi Hilol derazani ochib, tashqari ayvonga
chiqdi. Ravshanbek tiklab³ qarasa, hur talʼatli⁴, maloyika⁵ kel-
batli, shirin soʻzli, jodu koʻzli, zulfi tol-tol boʻlib betiga
tarmashgan⁶, latibasi⁷ labiga tushgan, munchoqlari kindikdan
oshgan. Buni koʻrib Ravshanbekning ogʻzi angrayib, burni

¹ Yuzimga.

² Oʻzimga.

³ Tiklamoq – tikilmoq, koʻzni yuqori yoki pastki tomon qarab tikilmoq.

⁴ Talʼat – yuz, chehra.

⁵ Maloyik – farishta.

⁶ Tarmashqoq – maqqam yopishmoq.

⁷ Latiba – burunga taqiladigan buloqi.

tangrayib¹, Bibi Hilolga qarab qoldi. Bibi Hilol Ravshanbekning asli zotini so‘rab, labini tishlab, qoshini bulkillatib, bir so‘z dedi:

Yaxshi ko‘rdim yosh bachcha sumbatingni²,
Ne urug‘ der sening o‘sgan yurtingni?
Bayon qilgin, avlodi ajdodingni!
Xazon urgan qanday bog‘ning gulisan?
Otang bilan enangning joni-dilisan.
Qarayman, sen chamanning bulbulisan,
Nasabingni bayon bergin, yosh bachcha!
Qanday elda, qaysi odam o‘g‘lisan?

Har bir gaplaring sening bomaza³.
Aftingga qarayman o‘zing xonzoda,
Avlod-ajdodingni aytgin o‘zima!

Ko‘zingga qarasam, tarzing bekszoda,
Qanday elda, qaysi odam o‘g‘lisan?

O‘zing pastda, baland yerni ko‘zlama,
Bu shaharda bunday yurib bo‘zlama!
Rost gapir, yolg‘on so‘zni so‘zlama,
Qanday elda, qaysi odam o‘g‘lisan?

Bu so‘zni eshitib, Ravshanbek oh tortdi. Yuragi ezildi, og‘zidan buroq-buroq⁴ tutunlar chiqib ketdi, Bibi Hilolga qarab, bir so‘z dedi:

Eshitgin, qaddingdan mening tilimni,
Men bandaman, Ollo bilmas holimni,
Aslim so‘rsang bir yakdona gavharman,
Yovmit deydi, unib-o‘sgan elimni!

¹ Tangraymoq – ko‘tarilmoq.

² Sumbat (simbat, sinbat, sunbat) – kelishgan qaddi-qomat.

³ Bomaza – mazali.

⁴ Buroq - buroq – burqsib-burqsib.

Bek bo‘lib qildim elda havomni¹,
Topolmayman bu dardimga davomni.

Musofirman Shohdorxonning shahriga,
Yovmitda Odilxon deydi bovomni,
Aslim so‘rsang, yaxshi odam nasliman!

Belimga boyladim zarli po‘tamni²,
Firoqimda bolamlatdim otamni,
Otimni so‘rasang, deydi Ravshanbek,
To‘liboy sinchi der, mening otamni,
Yovmit elda xonzodaning o‘g‘liman!

Hech kim yo‘liqmasin dushman qahriga,
Ot chidamas achchiq qamchi zahriga.
Bandi bo‘lib keluvdim o‘zim bu yerga,
Musofirman Shohdorxonning shahriga,
Yovmit elda To‘liboyning o‘g‘liman!

Quloq solgin so‘zning yolg‘on-rostiga,
Zehn qo‘ygin gapimning payvastiga!
Hech bir odam menday bandi bo‘lmasin!
Otam bilan enam tushdi esimga.
Yovmit elda xonzodaning o‘g‘liman!

Tomosha qing³ yaratganning ishini,
Merganlar otadi ko‘lning qushini,
O‘qigan sheriklar esiga tushib,
Oh ustiga, ohlar tortdi Ravshanbek,
Qayta boshdan to‘kdi ko‘zdan yoshini.

Bibi Hilol Ravshanbekdan bu so‘zlarni eshitib, Ravshan-
bekka mardonalik berib bir so‘z dedi:

¹ **Havo** – 1) manmanlik; 2) huzur-halovat, maishat. Asarda ikkinchi ma’noda ma’noda.

² **Po‘ta** – belga aylantirib bog‘lanadigan qimmatbaho uzun belbog‘.

³ Qiling.

Hamzani sen bilmaganin bildirgin,
Zor yig'latib yurak-bag'rin tildirgin!
Gajdumbek degan mening og'am bor.
Nima desam aytganimni qiladi.
Ishqilib, o'zingni bozor soldirgin!

Harna bo'lsam, sening bilan bo'layin,
Bu kallamni etagingga solayin,
Ishqilib, o'zingni bozor soldirgin,
Ishqilib, o'zingni sotib olayin.

Barcha odam yolg'onchi dunyoga mehmon,
Endi o'ylasam, omonatdir tanda jon.
Tanga-tilla Gajdumbekda farovon.
Ishqilib, o'zingni bozor soldirgin.

Yig'lamagin, ushbu damni dam dema
Sen esonsan bu davlatni kam dema
Bozor tushsang, seni sotib olarman,
Olmas, deb Ravshanbek aslo g'am yema!

Ana endi Bibi Hilol Ravshanbekka:


– Hamzaning yoqasidan ushla, tumshug'iga mushtla.
So'ngra Hamza kuyib ketadi. Seni qul deb bozorga soladi. Undan
keyin akam seni sotib olib keladi, – dedi.

Ikkovi shuytib, maslahatni bir joyga qo'yib, Bibi Hilol
Ravshanbekka ko'p so'zlar aytib, jo'natib yubordi.

Ravshanbek Hamzaning uyiga kelib, dod deb bo'zlab,
yig'lab, ovqat yemay, Hamzaga qarab bir so'z dedi:

Eshitgin, sen, Hamza, mening tilimni,
Yo javob ber, ko'ray Yovmit elimni!

Yo bozor sol, etaklab ol pulimni,
Arqon bilan boylab olgin qo'limni,
Ozod qilgin, Yovmit elga ketaman!



Oqizmagin ko‘zdan qonli yoshimni,
Qochiribman aqlim bilan hushimni,
Yo bozor sol, etaklab ol pulimni,
Yo dorga tort, kesib olgin boshimni,
Javob bergin, men elima¹ ketaman!

Xudoning ishini o‘zim netaman?
Musofirman xunobalar² yutaman.
Bozor sol, etaklab kelgin pulimni,
Yo javob ber, ota yurtga ketaman!

Rahm aylagin mening g‘arib holima,
Quloq solgin mening aytgan tilima!
Yo dorga tort, kesib tashla boshimni,
Javob ber, ketaman, Yovmit elima!

Bu so‘zni Hamza eshitib, oh tortdi:

– O‘zing tug‘may, ul bo‘lmas, sotib olmay qul bo‘lmas ekan. O‘zingnikini o‘zagiga tepsang ham ketmaydi ekan, kishining bolasiga kishmish bersang ham turmaydi ekan, – dedi. Erta bilan tong otdi. Ravshanbekni qul bozoriga olib bordi.

Buni bunda qo‘yib, gapni Bibi Hiloldan eshiting.

Shu kuni Bibi Hilolning akasi Gajdumbek podshoning oldidan uyiga kelsa, Bibi Hilol yig‘lab o‘ltiribdi, Nima yig‘laysan, – deb Gajdumbek bir so‘z dedi:

Oy eding, oy kabi sensan nigorim,
Shu kuylarga soldi parvardigarim.
Sen yig‘lading menda toqat qolmadi,
Yig‘laganing vajin aytgin, jigarim!

Yoqang ho‘ldir yig‘laganda yoshingga,
Op³ borarman seni qarindoshingga,
Yig‘lama, chirog‘im, ko‘nglim buzildi,
Ne alomat savdo tushdi boshingga?!

¹ Elimga.

² Xunoba – qon.

³ Olib.

Seni ko‘rib nargiz ko‘zim suzildi,
Jimma-jimma ko‘zdan yoshlar tizildi.
Ota-enangni sog‘inganday yig‘laysan,
Yig‘lama, chirog‘im, ko‘nglim buzildi!

Podsholar oladi eldan bojini,
G‘ayratli dushmandan olar o‘chini.
Sen yig‘lading, menda darmon qolmadi,
Menga aytgin, yig‘laganing vajini!

Ana shunda Bibi Hilol akasidan bu so‘zni eshitib, Gaj-
dumbekka qarab, bir so‘z dedi:

Eshiting, akajon, mening so‘zimdi,
Yolg‘izlikdan g‘am sarg‘aytdi yuzimdi,
Podsholikka siz ketasiz, akajon,
Bu hovliga bir xizmatkor lozimdi(r).

Davlatlining elga ko‘pdi xotiri,
Yovga ot qo‘yar yigitlarning botiri.
Xizmatli ishga o‘zing ketganda,
Menga o‘tdi xizmatkorning qadri.

O‘ylab tursam, mana dunyo bepoyon,
Bu hovliga bir xizmatkor lozimdi(r),
Bir ozoda qul op¹ kep² ber, akajon!

Bedovga³ yarashgan mayin yoliday,
Suluv qizning timkil-timkil⁴ xoliday,
Ko‘ngil suysa, yorning labi boliday,
O‘n besh yashar qul op kep ber, akajon,
O‘zi bo‘lsin podshohlarning oqiliday!

¹ Olib.

² Kelib.

³ Bedov – naslli yaxshi ot.

⁴ Dona-dona.

To'rg'ay chullab tong sarg'ayib otadi,
Yosh op kelsang, vataningda yotadi,
Qari qulni olib kelmang vatanga,
Bir narsani olib qochib ketadi!

Bo'ynida silkinib tursin kokili,
Tengidan ziyoda bo'lsin aqli,
Yelkasida bo'lsin panja doxili¹,
Bir ozoda qul op kep ber, akajon!

Alqissa, Gajdumbek Bibi Hiloldan 6u so'zni eshitib:

– E singlim, jigarim, g'am yemagin, har nima desang qilaman, – deb ko'p tanga tillani olib, xurjunga solib, Bibi Hiloldan fotiha olib, ko'chaga chiqib keta berdi. Gajdumbek bo-zorga borsa qul bozorida Hamza bir qulni bozorga solib o'tiribdi. Bibi Hilolning aytganidan yuz barobar ziyoda suluv, qoshi qora, zulfi bo'yniga tushgan, kokili o'ziga juda ham yarashgan, bodom qovoq, yupqa tomoq, oq badan, suluvligi yuz yaxshi qizdan ziyoda, ko'rganlar bo'lur aftoda². Buni ko'rib Gajdumbek, «Bibi Hilol aytgan qulning o'zi, usta yasaganday topildi», – deb Hamzaga qarab, bir so'z dedi:

Qizil gul ochilar g'unchadan-g'uncha,
Sarson bo'ldi ko'chalarda bir necha.
Yasovulboshi, qulni bozor solibsan,
Aytgin, qulingning bahosi qancha?

Qabul bo'lsin shu qulingning tavbasi,
Tavba desa to'kiladi gunosi³.
Shundayin bachchani bozorga sopsan⁴,
Nima bo'lar, shu qulingning bahosi?

O'lmasam dunyoda davron surayin,
Shu qulingga kattaliklar jo'yayin⁵,

¹ Belgisi.

² Aftoda bo'lmoq – yiqilib-surilib qolmoq.

³ Gunohi.

⁴ Solibsan.

⁵ Jo'ymoq – yaxshilik qilmoq.

Aytgin menga qulingning bahosini,
Kuchim yetsa, buni sotib olayin!

Qochiribman aql bilan hushimni,
To'kibman ko'zimdan selob yoshimni,
Ayta bergin, quling bahosi, qancha,
Quling uchun garov qo'yay boshimni!

Buni eshitib Hamza Gajdumbekka qarab, bir so'z dedi:

Bedov minmagan baland tog'dan o'tami¹?
Kambag'allar xunobani yutami²?
Avval kissang bilan o'ylash, Gajdumbek,
Baho qo'ysam, sening kuching yetami³?

Ostingda bedoving o'ynar har alvon,
Sayyodning⁴ qo'lida bordi bo'z tarlon⁵,
Baho qo'ysam, sening kuching yetami?
Avval karmon⁶ bilan kengash, Gajdumxon!

Endi bilsam, sen bir elga to'rasan,
Kokilingni yarashiqqa o'rasan,
Men senga rostin aytsam, Gajdumbek.
Hech kami yo'q, bir ming tilla berasan!

Men eshitdim, ey Gajdumbek, tilingni,
Bog'larda sayratay men bulbulimni.
Ming tillaga kuching yetsa, Gajdumbek,
Olib keta bergin mening qulimni!

Gajdumbek Hamzadan bu so'zni eshitib, aytdi: «Men barcha davlatlarimni bu qul uchun poy tikkan edim. Bahosini

¹ O'tarmi.

² Yutarmi.

³ Yetarmi.

⁴ Sayyod – ovchi.

⁵ Tarlon – oq qarchig'ay (juda baland uchadi).

⁶ Karmon – hamyon.

ming tilla deb aytdi, qulning bahosini bilmadi. Tag'in aytgan so'zidan qaytib aynib qolmasin», – deb qul bozorda turgan hamma dallol-jallob¹, bozor beklarga yuz tangadan pora berdi. Hamzabekning aytgan ming tillasini ham sanab berdi. Hamzabek:

– Men bu qulni sotmayman, hazil qilib edim, – dedi.

Turgan bozor oqsoqollari Hamzabekni turtkilab tashladilar. Hamma birdan jovirlashib: «Sen qulga baho qo'yib sotib, yana aytgan so'zingdan qaytasanmi, so'zni aytib bunday qaytganingni Shohdorxon podshoga borib aytamiz», – dedilar. Tala-to'p bo'lib qoldi.

Bu tala-to'pni ko'rib bozordagi barcha bakavul-qorovullar ham kelib: «Nima gap, nima gap», – deb qoldilar. Gajdumbek haligi kelgan qorovullarga ham uch so'm-uch so'mdan berdi. Ular ham Hamzabekni aylantirib qoldi. Qorovullar Gajdumbekning ming tillasini olib, Hamzaning ro'moliga tugib, pulingni ol, dedilar. Hamza pulni oldi.

Bir so'zni ikki qilgani uchun uni gunohkor qilib, qorovulxonaga olib borib qamab qo'ydilar, Gajdumbek qulni olib, uyiga qaytdi. Kelsa, Bibi Hilol yig'lab o'ttiribdi. Gajdumbek aytdi:

– Nimaga yig'laysan? Aytgan qulingni olib kelib berdim. Bundan boshqa yaxshi qul yo'q, bozordan topolmadim. Agar topsam, yana olib kelib beraman.

Akasidan bu so'zni eshitib, Bibi Hilol bir so'z dedi:

Eshit aka, menday singling zorini,
O'lim buzardning kirdikorini.
Shohdorxondan keldi to'rtta yasovul,
Men bilmayman, nima ishi borini.

Bog' oralab gullarni tersin, dedi,
Esonlikda davronni sursin, dedi,
Men bilmayman, nima ishi borini,
Qorovul podsholikka borsin, dedi.

¹ Jallob – tuyoqli mol olib sotuvchi kishi.

Endi bilsam, gʻanim tushdi izingga,
Yigʻlaganda yosh toʻkilar yuzingga,
Soliq solib kelib-ketdi yasovul,
Shohdorxondan mahram keldi oʻzingga.

Agʻdarilib uchar choʻlning lochini,
Chin suluvlar toblab qoʻyar sochini,
Men bilmadim nima ishi borini,
Yigʻlaganim, aka, shuning uchundi(r).

Beklar minmaymikan qora bayirdi¹,
Har kim oʻz joni uchun qilar xayirdi²,
Firib bilan Gajdumbek akasini,
Podsholikka Bibi Hilol buyurdi.

Gajdumbek Bibi Hiloldan bu soʻzni eshitib, otini minib,
koʻchaga chiqib, podshoning oldiga qarab joʻnab ketdi.

Buni ketmoqda qoʻyib, gapni Bibi Hiloldan eshiting:
Bibi Hilol Ravshanbekni koʻrdi, Ravshanbek Bibi Hilol-
ni koʻrdi.

Shunda Ravshanbek, Bibi Hilolga qarab, bir soʻz dedi:

May ichganda yuragingni moyirgin³,
Yongʻir yogʻsa, yona maydon toyirgin!
Oyimi quliga xizmat buyurmaymi,
Boyvachcha, oʻzima xizmat buyurgin!

Nima boʻlsam, sening bilan boʻlayin,
Kurak bilan supurgini olayin.
Mirzasi quliga xizmat topshirar,
Nima desang, men amringni qilayin!

[Shunda Ravshanbek:]

Eshitgin Hiloloy oʻzimdandodni,
Kosa davron mard yigitga navbatni

¹ Qora bayir otni.

² Xayr-savobni.

³ Maylagin.

Mirzasi quliga ishni topshirar,
Ayta bergin, men qilayin xizmatni!

Voy-voy dunyosi qursin bepoyon,
Tengimdan ayrilib bo'ldim sargardon.
Xizmatingni endi menga topshirgin,
Nima xizmat senga qilay, oyimjon! – dedi.

Ravshanbekdan bu so'zni eshitib, Bibi Hilol oyimlik qilib, bu kunni g'animat bilib, o'zida bor hunar bilan, beli buralib, g'unchaday ochilib, tovsuday taranib, kimxob baxmalga o'ranib, labini tishlab, ko'zini qisib, o'rnidan sachrab turib, o'z haramiga kirib, bir bo'xcha toza kiyimlarni olib kelib, buni kiying, deb Ravshanbekni yuvintirib, tarantirib, kimxob-baxmalga o'rantirib, mayin tilla dastorni¹ boshiga o'ratib, o'zi ham tovanadan ro'molni o'rab, zulfini tarab, bo'yni buralib, qo'lga sozini olib, bir necha shon-shavkatlar bilan noz qilib, Ravshanbekka qarab, bir so'z aytayotibdi:

Nang-u nomus sening oring bo'layin,
Tortushak² xaridoring bo'layin.
Qiyomatlik sening cho'ring bo'layin,
Yuragimda dard ko'p, g'am bilan ancha,
Firoqimda oh tortadi bir necha,
To o'lguncha sizman o'ynab-kulayin,
Men cho'riman, siz mirzasiz, bekbachcha!

Ana endi, buni Bibi Hilol aytib, qo'lidagi sozini yerga tashlab, Ravshanbekning bo'yniga qo'lini solib, tilladan bo'lgan tomiga olib ketdi. Ravshanbek qoldi uyalib. Taxmonda sandiq ustidagi yaxshi ko'rpalardan olib, tilla kursining ustiga solib, to'shakning ustiga chiqib, suhbat Gajdumbek kelmay, dunyoning g'am-g'ussasi esidan chiqib, ikkovi bir odam bo'lib ketdi...

Endi gapni Gajdumbekdan eshiting: Gajdumbek Shohdorxonning oldiga kundagi ko'rinishidan tashqari yetib bordi.

¹ Dastor – salla.

² Qo'lyozmada: tortalashar.

Shohdorxon, mening oldimga nimaga bemahal keldi, bunga bir voqea bo'ldimikin, yo birov bilan urishdimikin, dedi. Bu ishlar-dan xabari bo'lgan bir kishi podshoga:

– Bu bugun bir ming tillaga bir qul oldi, – dedi. Shunda Shohdorxon:

Qul olgan bo'lsa pul xarji sop bo'lgan¹. Shuytib, bugun kechlik ovqatni o'ylab kelgan, – dedi.

Xazinachiga aytdi:

– Gajdumbekka bir la'li tilla olib kelib ber!

Xazinachi olib kelib berdi. Gajdumbek tillani olib, xur-junga soldi. Lekin Gajdumbek, men bekorga kelgan ekanman, podshoning menda ishi yo'q ekan. Xayr, har nima bo'lsa bo'ldi, endi mening uyimga bemahal borgan odamni topib olib o'zim jazosini beraman, dedi. Shu o'yni o'ylab uyiga qaytib bordi. Uyiga kelsa quli ham yo'q, Bibi Hilol singlisi ham yo'q.

«Hay attang, qulim qochib ketgan, singlim ham qulning orqasidan ketgan. Har nima bo'lsa ham qornimni to'qlab olayin, so'ngra axtaraman», – deb sharbatxonaga chiqib borayotib shunday qarasa, tilla karavotning ustiga to'shak solingan. Bibi Hilol bilan Ravshanbek ikkovi to'shakning ustida bir odamday bo'lib o'ynashib-kulishib o'tiribdi.

Ravshanbekni o'ldirmoqchi bo'lib, Gajdumbek sherday ingranib, g'ilofdan xanjarini tortdi. Bibi Hilol akasining achchig'i kelganini bilib, rangi gulday so'lib, akasiga bir so'z dedi:

Quloq solgin, menday singling so'ziga,
Merganlar o'q otar ko'lning g'oziga.
Akajon, mehmonni ozod aylagin,
Qiz bo'yi yetsa, ixtiyori o'zida!

Sarg'aymasin, aka, mehmonning yuzi,
G'ang'illab uchadi ko'llarning g'ozu.
Chin o'ldirsang, meni o'ldir, akajon,
Bulam² sizday Odilxonning yolg'izi!

¹ Tugagan.

² Bu ham.

Enasi qolgandir sochini yoyib,
Vo bolam, deb vatanida mung'ayib,
Yolg'iz o'lsa tuxmi¹ qurib ketmaymi?
Arkon davlati bo'lar besoyib.

Meni o'ldir, mehmonni ozod aylagin,
Bulam sizday bir odamning yolg'izi!
Begunoh o'ldirsang, aka, bizlarni,
Shu zamonda bo'lmaymisan² sharmanda?

Meni desang, qilichingni tashlagin,
Kam-kamgina bu gapimni o'ylagin!
Bu dunyo deganing andak karvonday,
Akajon, to'ramni ozod aylagin!

Shunda Gajdumbek: «Tusi yaxshidan to'ngg'ilma³, degan ekan. Echkini so'ysang baqiradi, bo'rini ursang ing etmaydi, bu mard o'g'lon ekan, uni o'ldirmayin», – deb chiqib ketdi. «Mard o'g'lon bo'lmasa edi, meni o'ldir deb aytmas edi. Ma'qul so'zga qarov yo'q, dunyoda ma'qul so'zdan zo'r narsa yo'q», – deb fikr qildi, o'zi bilan o'zi o'y qildi.

Ana endi buni fikr bilan o'yda qo'yib, Bibi Hilol bilan Ravshanbekdan eshiting.

Bular – ikkovi maslahat qildi. «Ikkovimiz Gajdumbekning oldiga boramiz, salom berib, gapga solamiz, muomala bilan, so'z bilan, dalil bilan yo'limizga solamiz», – deb ikkovi o'rnidan turib tashqari chiqib, qo'llarini alif lom qilib, bo'yinlarini xam qilib, «Assalomu alaykum!» – deb, Gajdumbekning oldiga bordi.

Gajdumbekning yuzi qamashib, nima deb gapirarini bilmay, Bibi Hilolga:

«Osh qil!» – deb buyurdi.

Ravshanbekka:

«Manavi otni o'tga qo'y!» – deb buyurdi.

¹ Urug'i, avlodi.

² Bo'lmaysanmi.

³ Qayrilma.

Ana endi Gajdumbekning uyati ketdi, koʻrgan izzalari biror tanob yerga yetdi. Ravshanbek dasturxonni yozib, obdastani qoʻliga olib, Gajdumbekning qoʻlini yuvdirib, shirai sharbatlarni olib qoʻydi. Bu ishni Gajdumbek koʻrib, «Elga el kelsa davlat, eldan el ketsa mehnat», – dedi.

Shukur qildi.

Bibi Hilol oshni pishirib, tovoqqa solib, Ravshanbekni imladi. Ravshanbek oshni olib kelib, Gajdumbekka tortdi. Ikkovlari birga oshni yedi, qorinlarini toʻqladi, dimogʻlarini choqladi...

Gajdumbek Bibi Hilolni Ravshanbekka nikohlab berdi. Ravshanbek borligi uchun Gajdumbekning uyidan koʻngli toʻlib, yor-joʻra, oshna-ogʻaynisinikiga borib, sayr-tomosha qilib yura berdi. Qayoqqa borsa, bora berdi. Xazina-dafinasini Ravshanbekka topshirib, xizmat ishlarini buyurib yura berdi. Kunlardan bir kun Gajdumbek:

– E Ravshanbek, yur, ikkovimiz dala-dashtlarni tomosha qilib kelamiz, – deb shahardan tashqariga, choʻlga ovga chiqib ketdi.

Shunday borayotsalar, bir soy koʻrindi. Soyda odam, otlarning suyaklari toʻda-toʻda boʻlib yotibdi. Bularni tomosha qildilar. Yaxshining bolasi yaxshi, yomonning bolasi yomon, yaxshidan yomon boʻldi dema, bu ham oʻz nasliga tortadi, yomon yaxshi boʻldi, deb quvonma, bu ham tortdi oʻz nasliga. Ana shunda Ravshanbek bir otning qoʻl suyagini koʻrib, quchoqlab olib yigʻlay berdi. Gajdumbek, Ravshanbekning barno naslligi bor ekan, dedi. Lekin Ravshanbek bu ishning Gajdumbekka maʼqul boʻlmaganini bildi, unga qarab, bir soʻz dedi:

Shu yerlarda urush boʻlgan ekan-da,
Ajalli, maydonda oʻlgan ekan-da.
Shu bedovni podsho mingan ekan-da,
Oʻq tegib jonivor oʻlgan ekan-da.
Bizlarday gʻarib boʻp qolgan ekan-da.

Esonlikda saylab otni yelamiz,
Ajaj yetgan kuni bir kun oʻlamiz.
Voy, degani ogʻa-ini boʻlmasa,

O'lgandan so'ng biz ham shunday bo'lamiz,
Shu suyak bizlarday bo'lgan ekan-da.

Qavming yo'q, Zargarda, qarindoshing yo'q.
Dod etarga ichki yor, sirdoshing yo'q.
Ajaj yetib o'la qo'ysak Zargarda,
Voy og'am, derga bizda emchakdosh yo'q.

Dunyo tushsin qo'ydi qayg'u-hasratga,
Beklar shiddat bilan minadi otga,
Ajaj yetib o'lib ketsak, Gajdumbek,
Qanday odam qo'yib kelar lahadga.
Shu suyak bizlarday bo'lgan ekan-da.

Hali-hozirga, bizlar lodon¹ bo'lamiz,
Qizil gulmiz, oftob tegsa so'lamiz.
Bu yurtlarda biz ham bir kun o'lamiz,
Og'a-ini, qarindoshlar bo'lmasa.
Qanday odam op boradi mozorga?

O'lgandan so'ng biz ham shunday bo'lamiz,
Quv² suyak bizlarday bo'lgan ekan-da.

Kuyganidan gapni-gapga ulaydi,
Ko'zda yoshi, yengi bilan silaydi.

– Rost aytasan, – dedi shunda Gajdumbek,
O'pkasini bosolmay bo'zlab yig'laydi.

Ikkovining bandi bo'g'ini bo'shadi,
O'lim qursin suyaklari shovshadi³.
Musofirlik asar qilib⁴ boshiga,
Ikkovlari: «Attang, attang», – deyshadi.

Kengash kelar elning katta biyiga,
Chopilsa dol, badov kelar ko'yiga.

¹ **Lodon** – voyaga yetmagan yosh bola.

² **Quv** – qurib qolgan.

³ **Shovshamoq** – zirqiramoq, qaqshamoq.

⁴ Ta'sir qilib.

Xushvaqt bo‘lib, kelgan ikki bekbachcha,
Xafa bo‘lib, bo‘zlab qaytdi uyiga.

Bekbachchalar haligi otning kalla suyagini uyiga olib kelib, xafa bo‘lib, chiroqday osib, kallaning ostida tunab yota berdi.

Bularning ahvolini ko‘rib, Bibi Hilol ham xafa bo‘ldi.

Shu orada o‘rtadan ikki oy o‘tdi. «Bular suyakdan tulpor otni bilgan emish», – degan gap tarqaldi.

Shohdorxon:

«Gajdumbekning bir kuyovi bor emish, o‘lib ketgan qirq yillik bedov tulporning suyagidan tanir emish», – deb eshitdi.

Shunda:

– Shu sinchini olib kelinglar, bizlar ham sinab ko‘raylik, – dedi. Mahram-xizmatkorlar kelib, Gajdumbek bilan Ravshanbekni olib ketdi, ular Shohdorxon podshoning oldiga yetdi. Shohdorxon ikki bekbachchaga katta amaldorlari qatori yuqoridan o‘rin berdi.

Shohdorxonning sakson tabla¹ bedov oti bor edi. «Tulpori bormi», – deb hammasini bir-bir Ravshanbekning nazaridan o‘tkazdi.

Ravshanbek:

– Tulpori bor ekan, lekin bor ham bo‘lsa yo‘q ekan, – dedi.

Shohdorxon:

– Shuncha otning tulpori bo‘maymi²? Bu ishing menga garang keldi, – dedi.

Shu vaqt bir odamning:

«Holva keldi!» – degan ovozini o‘tirgan hamma odam eshitdi.

Qarasalar, ko‘chada bir holva sotuvchi kelayotibdi. Mingan oti horish³, yoli-dumi to‘kilgan, dumginasi bir qarich, ostidan shamol esgan, cho‘qqilarini⁴ olashaqshaq teshgan. Luqadan

¹ Otxona.

² Bo‘lmaydimi.

³ Qirchang‘i.

⁴ Cho‘qqi – 1) ot iyig‘ining bo‘yiga tutashgan, yol boshlangan qismi; 2) cho‘qqidagi

quyushqoni¹ bor, cho‘pdan suvlug‘i² bor, ipdan tizgini bor. O‘zi yog‘ochday qotgan, qamchilab dingillatgan.

Shunda Ravshanbek haligi holvachining otini maqtab bir so‘z dedi:

Shuni mingan ko‘rar o‘sgan yurtini,
Dushmandan hamisha olar lotini³.
Maqtasang tulporni, Shohdorxon,
Ko‘rmaysizmi holvachining otini?

Sag‘risiman⁴ barobardir biqini,
Qahrlansa, tortar norning⁵ yukini,
Ko‘rmaysizmi jonivorning tangini⁶?

Miroxo‘rlar⁷ ovlaydi cho‘lning ongini⁸,
Hali ham chopishsang tekis yerlarda,
Hech bir oting ko‘rolmaydi changini!

Sovoq otsang, sovosidan gazlaydi,
Jildirganda yaxshi o‘tni izlaydi.
Tomosha qing shu jonivor tulpordi,
Halitdan tog‘larning boshin ko‘zlaydi.

Elim desam rangim gulday so‘ladi,
Tomosha qil, holvachining tulporin.
Chin bedov degani shunday bo‘ladi!
Maqtasang, bedovni maqta, podshoyim

yol. Cho‘qqi soqol ta‘biri cho‘qqidagi yolga o‘xshatishdan kelib chiqqan.

¹ **Quyushqon** – ot anjomi, ot dumi ostidan o‘tkazilib, egarga biriktiriladigan qayishdan qilingan anjom. Quyushqon ot tez yugurganda egarning oldingga siljib ketishiga yo‘l bermaydi.

² **Suvluq** – yuganning ot og‘ziga solinadigan temir qismi.

³ **Lot** – qasd.

⁴ **Sag‘risi bilan.**

⁵ **Nor** – bir o‘rkachli erkak tuya.

⁶ **Tangi** – otlarning ikki kuragining orasi.

⁷ **Miroxur** – podsholik otxonaga qarovchi amaldor.

⁸ **Ong** – ov, ovlanadigan hayvon, qush.

Ravshanbek holvachining otini, bedov, deb maqtadi. Holvachi bangiboy shu yig'inga yetdi. Holvachining battolligi tutdi. Yarim chorak holvani, chorak deb sotdi. Bir odam buni ko'rdi. Olib kelib holvani boqli toshga¹ urishtirdi. Holva ikki qadoq kam keldi.

Shunda odamlar bangiboy holvachining holvasini talab oldi. Buni ko'rib, holvachi izza yeb, xafa bo'lib ketdi. Shunda bangiboy dayrabotga², ko'p qayroqli yerga ketdi. Xurjuniga yaxshi ko'rgan qayroqlarni solib, uyga borib toshlarimni rostlab olaman, dedi.

Bu Uklonning soyida yotaversin. Endigi so'zni Shohdorxon podshodan eshiting.

Shohdorxon:

– E Ravshanbek, sen holvachining yomon chibir otini maqtaysan, mening shuncha otlarimni maqtamaysan, endi bil-sam, sening ko'ngling boshqa ekan, menga dushman ekansan, – deb achchig'i kelib, odamlariga buyurdi:

– Ko'zini o'yib olinglar!

Odamlari bir dori qildi, Ravshanbekning ko'ziga quyib, ko'r qildi. Shunda Shohdorxon Ravshanbekka qarab aytdi:

– Endi ko'zing ko'r bo'ldi, mendan davlat tila, to o'lguningcha yeb yetasan.

Ravshanbekka qarab, Shohdorxon bir so'z dedi:

Ravshan sinchi peshonangni sinagin,
Kuygan qulsan, gapni gapga ulagin!
Bu yerlardan quruq ketma, Ravshanbek,
Yo bir amal, katta davlat tilagin!

Tila, beray qator-qator³ norimni,
Nor ustiga yuklab beray zarimni!
Tirnoqqa unagan jong bo'p qoladi,
Tila, beray senga katta shahrimni!

¹ Tarozi.

² Dayrabot – darsning yoqasi, daryo bo'yi.

³ Qator – birin-ketin qatorlashgan safar tuyalari.

Lot-u manot boylamasin baxtingdi¹,
Shohdorxondan tilaydigan vaqtingdi².
Kam tilama, durust tila, Ravshanbek,
Tilasang, berayin bir nim taxtimdi³!

Yaxshilik ko‘r, yomonlikni ko‘rmagin,
Uzoq yasha ko‘p yilgacha o‘lmagin,
Xon Shohdorning toshqinligi kelganda,
Kam eslik qip⁴, sen armonda qolmagin!

Amal beray, murodingga yetarsan,
Har yerda o‘zimni maqtab aytarsan!
Katta davlat senga beray, Ravshanbek,
Dunyolikdan o‘zing boy bo‘p ketarsan!

Bu so‘zni eshitib, Ravshan ko‘r Shohdorxonga qarab, bir
so‘z dedi:

Eshit taqdir bu sinchining dodini,
Musofirlar kimga aytar dardini?
Katta xalqlik aytganidan qaytmaydi,
Olib bering holvachining otini!

Ota-enam desam rangim so‘ladi,
Bilmayman ahvolim qanday bo‘ladi?
Olib bergin holvachining otini!
Ko‘zimning xuniga shu ham bo‘ladi.

Namozshomdan chiqar Ho‘qondning oyi,
Podshohning oldida bordir sipoyi.
Har bir yerda duogo‘yman chin sizga,
Olib bering, holvachining otini.
Barakalla, Zargar elning podshoyi.

¹ Baxtingni.

² Vaqtingni.

³ Taxtimni.

⁴ Qilib.

Ko‘zim ko‘rdir, ketolmayman elatga,
Bevafo dunyo qo‘ydi meni hasratga.
Olib bering, holvachining otini,
Piyodalar aslo yetmas murodga.

Ko‘r Ravshanning bilmaganin bildiring,
Dushmanlarning‘ qizil yuzin so‘ldiring!
Arkon davlat bizga yo‘qdir darkori,
Olib bergin holvachining otini.
Holvachining shu otiga mindiring!

Alqissa, ana endi Shohdorxon:

– Kam tilar ekansan, kam himmatlik qilding, boshqa narsa tilasang bo‘lmasmidi, shahar tilasang ham berar edim, Dunyolikdan kamsiz qilar edim, xayr, o‘zing bilasan. Har kimning yaxshi ko‘rgani o‘ziga yaxshi! Xudo bermaganni, endi qaytib¹ beraman. Holvachining otini olib kelib beringlar! – dedi.

Shunda turgan barcha qorovullar holvachini axtarib keta berdi. Lekin holvachi toshloqda, Uklonning qo‘lida bir xurjun toshni ko‘tarib, «qadoqqa rostlab olaman», – deb yurib edi.

Qarasa, o‘nta miltiqli kelayotir. «Bu nima bo‘ldi, toshimning kamligini podshohga aytgan, podshohning amri bilan menga odam kelayotgan ekan», – dedi. Xurjunini tashlab, otini minib qochdi. «Aqcha yo‘q, sotib ololmayman», – deb, tosh-tarozini ushlab qochdi. «To‘xta! To‘xta!» – deb qorovullar miltiq otdi. «Rost ekan, menga kelgan ekan!» – dedi holvachi. Shunda oti pir-pir etdi, kelayotgan otlardan qutulib jo‘nay berdi. Biror zamondan so‘ng oriqligi asar qildi, g‘adir-budur yerga borib, surunib yiqildi, qorovullar ushlab oldi. «Nimaga qochasan?» – deb miltiqning qo‘ndog‘i bilan besh-to‘rt urdi. Shuytib, Holvachini bandi qilib, haydab soldi. Shohdorxon podshohga to‘g‘ri qildi. Shohdorxon podshohni ko‘rib, o‘zidan-o‘zi valdirab, sandirab²:

– Ey podshohim, o‘zimning ikki yarim rost toshim uyimda qolibdi, kam toshni kampir xurjunga solibdi. Bu adovat-

¹ Qanday qilib.

² Sandiramoq – valdiramoq.

lar kampirdan bo‘ldi. Mendan hargiz gumon qilmang! Mana odam, toshing kam, deb meni olib keldi, – deya berdi.

Shohdorxon:

– E bobo, sizdan tosh so‘raganim yo‘q. Ot do‘st bo‘lamiz, – dedi. Gunohkor emasligini bangiboy endi bildi.

Shohdorxon aytdi:

– Otingizning qimmatini ayting.

Bangiboy holvapurush «Unga qirq tangani aytay», – dedi. Podshohga qarab:

– Taqsir podshohim, qirq tangaga oluvdim bu xudo urganni, – dedi. Ana endi otni qirq tangaga oldi. Olti tangasini bozor aminlari¹ oldi. Holvachi o‘ttiz to‘rt tangasiga ega bo‘lib, uyiga ketdi. Ravshanbek otni yetakladi. Gajdumbek Ravshanbekni yetaklab uyiga bordi. Ravshanbek Gajdumbekka qarab bir so‘z dedi:

Otga yo‘l bermaydi yo‘lning o‘rasi²,
Sarbozni ingratar o‘qning yarası.
Arpa berib, oltoy³ boqqin otimni,
Buning o‘zi tulporlarning sarasi.

Otni boqsang, arpa berib tullatib⁴,
Yol-quyrug‘in Hiloljonga silatib,
Ikkovimiz minib olsak beliga,
«Ol, ushla!» – deb ko‘p lashkar quvganda,
Qutqaradi taraflarni⁵ yig‘latib.

Arpa berib oltoy boqqin otimni,
Arpa bersang, sovoyladin⁶ toshirib.
Jonivorning oyog‘iga bosh urib,
Ikkovimiz elga ketsak, Gajdumbek,

¹ Amin – podsholikda quyi ma‘muriy vazifa bo‘lib, bir yoki bir necha qishloqqa boshliq bo‘lgan va ayni zamonda davlat soliqlarini undirish bilan shug‘ullangan mansabdor.

² O‘ydim-chuquri yoki o‘ri.

³ Olti oy.

⁴ Junini to‘kib.

⁵ Dushman.

⁶ Ohurdan demoqchi bo‘lsa kerak.

«Ol, ushla!» – deb, Shohdor podsho quvganda,
Qutqaradi necha tog‘dan oshirib,

Bek Gajdumbek endi so‘ldim desang-chi,
Qiyomatda g‘arib bo‘ldim desang-chi.
Arpa berib, otni oltoy boqmasang,
Zargar elda g‘arib bo‘ldim desang-chi!

Xunobani bunda yuttim desang-chi,
Boqqa kirib olma otdim desang-chi.
Arpa berib oltoy boqsang otimni,
Salomat Yovmitga ketdim desang-chi!

Ot minganning yuraklarin toshirib,
Taraflarning¹ aqlarin shoshirib,
Xo‘p sovutib², minib olsak beliga,
Dushmanlaring «Qo‘yima, ho» deb quvganda,
Qutqaradi necha tog‘dan oshirib,
So‘zimni quloqqa olsang, akajon,
Salomat Yovmitga yetdim desangchi!

Gajdumbek: «Uh, buni tez bozorda chorak arpaga olmaydi, endi Ravshan bilgirsinib bor arpani buning oldiga to‘ktirmoqchi», – dedi, keyin Ravshanga qarab:

– Odob bilan olim, aka-ukali, farosat bilan karomat, bu ot, bu so‘zing menga yoqmaydi, – dedi. Ravshabek aytdi:

– Har nima bo‘lsa ham olti oy boq!

Gajdumbek:

– Xayr³, yo yaxshi, yo yomon bir gap bo‘lar, – deb, Ravshanbekning so‘zini olib, bangiboy holvachidan olgan otni oftobga tegizmay, sayisxonaga⁴ tortib, arpa bermay boqa berdi. Shu orada uch oy o‘tdi. Sayisxonaning yuqorisidan bitta teshik qildi. Otning sag‘risiga oftob tushirdi. Ravshanni olib borib ko‘rsatdi.

¹ Dushmanlarning.

² **Sovutmoq (sovitmoq)** – otni boquvdan keyin asta-asta tez yurish va chopishga o‘rgatmoq.

³ Mayli.

⁴ **Sayis** – otboqar. **Sayisxona** – 1) otxona; 2) otboqarlar xonasi.

Ravshan ko‘r hamma yog‘ini siypab ko‘rdi:

– Otga yem bermabsan. Yem bermasang ham, ot turuvda qongan ekan, sag‘risiga kun tushiribsan. Endi minmoqqa bo‘l-maydi. Yana uch oy boqasan, – dedi. Ana endi Gajdumbek Ravshanbek ko‘rning sinchiligiga ishondi.

– Barakalla, sinchiligingga, – dedi.

Gajdumbek, otni qayta boshdan boqmoqqa kirishdi. Bir oxurga arpani to‘kdi, bir oxurga bedani qirqib soldi, bir oxurga qozon qo‘yib, suvni yangilab soldi. Shuytib yana uch oy o‘tdi, oradan olti oy o‘tdi. Ot qulundagi tarziga keldi. Endi otni sovutmoqqa kirishdi, tuzni suvga ivitib, otni yuvdi, ponsori zig‘ir moyini chuchitib, ichiga ishqor solib yuvdi. Otning go‘shlari qaytib bo‘yra-bo‘yra bo‘lib-qoldi. Shunda Ravshanbek yugan solib, sovutmoq uchun Gajdumbekni mindirdi.

– Bor, bir katta yerdan irg‘itib kel, – dedi.

Ertaniga: «Falon joydan irg‘itib kel», – dedi.

Irg‘itib kelgan kuni: «Irg‘itib kelibsan», – dedi. Irg‘itib kelmagan kuni: «Irg‘itib kelmabsan, bor irg‘itib kel», – dedi.

Shu ko‘rgilikda qirq kun sovutdi, irg‘itib kelgandan keyin: «Sovutib kel», – dedi. Sovutib kelgandan keyin: «Yem ber», – dedi. Yem bergandan keyin: «Yem bosti¹ qilib kel», – dedi. Shuytib yurib, Gajdumbek cho‘pchakday qaytib ketdi.

Yana bir kuni:

– Podshohning qo‘rg‘onidan o‘tkazib kel, – dedi.

Oltmish paxsa qo‘rg‘on edi, o‘ttiz marza loy xandaqdan o‘ri² bor edi. Gajdumbek iyta-iyta³ qo‘rg‘onning oldiga bordi, borib ko‘rib qo‘rqdi: ot balandga qarab irg‘isa, manglayi paxsaga tegadi. Ot chopib tushadi, bu turkmani egarning qoshi qornimni kindikdan teshadi, o‘laman, dedi. Gajdumbek qo‘rqib Ravshan ko‘rga borib:

– Irg‘itib keldim, – dedi. Ravshan ko‘r siypalab ko‘rib:

– Noma‘qul qilibsan, bor o‘tkarib⁴ kel, yolg‘on gapni aytma, – dedi.

¹ Yem bosti – yemni hazm qilish uchun otni o‘z ixtiyorida sekin harakatga qo‘yish.

² Chuquri.

³ Ikkilanib-ikkilanib.

⁴ O‘tkazib.

Gajdumbek shu kuni yana qo'rg'onning oldiga bordi, ikki qo'li bilan egarning qoshidan ushlab, tizginini bo'yniga tashlab, qo'rqib, otga qarab bir so'z dedi:

Chuv-ha, chuv-ha, bekning oti!
Egang Yovmitning be kzoti,
Holvachining xonazoti,
Chuv-ha, chuv-ha, zo' rning oti!

Daryodayin tosharmisan,
Yurakkinang jo' sharmisan¹?
Chuv-ha, chuv, deb qamchi bossam,
Shu qo'rg'ondan osharmisan?
Chuv-ha, chuv-ha, bekning oti!

Olti oy tablada boqilgan,
Oldingga arpa to'kilgan,
Yemini ko'rib yesin, deb
Burama shamlar yoqilgan.
Chuv-ha, chuv-ha, bekning oti!

Yollaring mayin kesin, deb
Xitoyi xina yopilgan.
Oyog'ingni ip qiymasin, deb
Po'tadan payvand taqilgan.
Chuv-ha, chuv-ha, bekning oti!

Tuyog'ing yaxshi bo'lsin, deb
Faqat jushqon nag'al² qoqilgan.
Suvini ko'rib ichsin, deb
Har kuni mash'al yoqilgan.
Chuv-ha, chuv-ha, ko' rning oti!

Badanginang qizdan nozik,
Sening yoli-duming tuzuk,

¹ Jo'shamoq – 1) qaynab-toshmoq (*ko'chma ma'noda*); 2) qizil rangga bo'yamoq.

² Nag'al – taqa.

Irg'ib o'tgin shu qo'rg'ondan,
Bo'lib qolsin juda qiziq!

Badanginang qildan nozik,
Haq saqlasa balosidan,
Yurtning zardor dalasidan¹,
Chuv-ha, chuv deb qamchi bossam,
O'tarmisan Shohdorxonning qal'asidan?
Chuv-ha, chuv-ha, bekning oti!

Bangiboyning xonazoti,
Mavj urib daryoday toshdi.
O'kcha² tirab shu jonivor,
Qushday bo'p, falakka uchdi.

Yuragi yorilib ketdi,
Shu qo'rg'ondan bu jonivor,
Qushday uchib sakrab o'tdi.

Endi Gajdumbek Ravshanbekning oldiga, oting o'tolmadi, deb keldi. Ravshanbek otning hamma yerini siypalab ko'rdi, qo'ltig'iga qo'lini suqdi. Gajdumbekka:

– Ot irg'ib o'tibdi, – dedi. Gajdumbek:

– Qayerdan bilding? – dedi Ravshanbek.

– Otning qanoti chiqibdi, shundan bildim! Gajdumbek, endi ketasanmi yo Zargarda qolasanmi? Mol-dunyo yaxshimi yo el-qarindosh yaxshimi? – dedi. Gajdumbek:

– Tong otguncha o'ylab ko'raman, – dedi.

Bibi Hilolning bo'yida olti oylik gumona³ bo'lgan edi. Ana endi Gajdumbek, ketay desa molni, pulni ko'zi qiymadi, ketmay desa, elning ishqi, qarindoshlarning mehri tortgan, ko'p o'yladi. Oxiri ketmoqqa ixtiyor qildi.

Lekin Shohdorxonning So'qim degan bir sinchisi bor edi. «Ravshan ko'r qochadi, ushlab olamiz, qutula olmaydi!» –

¹ Dala – 1) uydan tashqari; 2) ochiqlik, maydon.

² Tovon.

³ Homila.

deb, besh yuz otni sovutib yotgan edi. Bu Ravshanning qocharini yurish-turishidan bilar edi.

Shohdorxon: «Poylab yuringlar qochsa, quvinglar, har nima bo'lsa ham, ehtiyot bo'linglar», – degich edi.

Shu orada bir necha kun o'tdi, erta bilan tong otdi. Gajdumbek otning oldiga, Ravshanbek keyiniga minib oldi. Ot suvlug'ini chaynab, parqini¹ sochib, kiyikday o'ynab, dumini gajak qilib, sag'risiga tashlab bekni opqochib kelyapti. Gajdumbek ikki qo'l bilan tizginni ushlab, ketib borayapti. Shunda Bibi Hilol qarasa, akasi bilan yori Yovmitga talab qilib, ketib borayapti.

Bibi Hilol Gajdumbek akasi va Ravshan ko'r yoriga qarab, bir so'z ayta berdi:

Oltoy boqding joninorni tullatib,
Yel-dumini Hiloloyga silatib.
Bibi Hilol mushtiparni yig'latib,
Asqar tog'im, akajonim, yo'l bo'lsin?
Bir suyanchim, akajonim, yo'l bo'lsin?

Tablalarda buni boqding tullatib,
Olqordayin² jonivorni tezlatib,
Bir singlingning yurak-bag'rin tuzlatib
Yolg'izgina Hilol oyni bo'zlatib,
Mehribonim, akajonim, yo'l bo'lsin?
Biror fasl saqlang otning jilovin!
Rahbarginam, akajonim, yo'l bo'lsin?

Ko'ngil suysa, yorning labi bol bo'lsin,
So'na³ qo'ngan Oydin ko'llar cho'l bo'lsin!
Yo'l bo'lsin, bo'lari gapning kattasi!
Rostin ayting, akajonim, yo'l bo'lsin?
Mehribonim, ichkuyarim, yo'l bo'lsin?

¹ Parqin – 1) o'zbek dostonlarida ot qo'ltig'i, tulpor qo'ltig'i; 2) afsonaviy ot qanoti va qanotining joylashgan yeri.

² Olqor (arxar) – kiyikka o'xshash yovvoyi tog' hayvoni bo'lib, kiyikka nisbatan ancha kattadir

³ So'na – 1) yovvoyi o'rdakning katta turi; 2) erkak o'rdak.

Shunda Gajdumbekning ham yurak-bag'ri ezilib, ko'zidan mo'l-mo'l yoshi tizilib, g'arib-munglig' singlisiga qarab uzangiga oyog'ini tirab, bir so'z dedi:

Meni ketadi, deb qoshingni chetma,
Yig'lab-yig'lab o'zing xunoba yutma!
Namozdigar¹, Oydin ko'ldan kelarman.
Meni ketadi, deb ko'nglingni buzma,
Qatra-qatra ko'zlarindan yosh tizma!

Iloyo ketgay-da yurakning cheri²,
Cho'llarda o'ynaydi qarsaqman³ bo'ri.
Namozdigar o'rdak ushlab kelarman,
Akan bo'pti⁴ qush go'shtiga xumori!

Xumsaga⁵ tushmasin bir mardning ori,
Ko'lga borib, shunqor⁶ chuyib⁷ kelarman,
To'qlining go'shtiga bo'pman⁸ xumori!

Buni eshitib, Bibi Hilol akasiga qarab, bir so'z dedi:

Yolg'on gapni nega olding tilingga,
Xudo rahm aylasin g'arib holingga!
Kelarga o'xshamas, afti-andoming⁹,
Minib obsan¹⁰ bedovingning beliga.
Talab qipsan¹¹, bildim, Yovmit eliga.
Yolg'onchi akajon, sizga yo'l bo'lsin?

¹ Ikkinchi namoz.

² **Cher** – 1) chirk, kir; 2) dard, qayg'u, alam.

³ **Qarsoq** – tulkiga o'xshash, lekin undan kichikroq hayvon. **Qarsaqman** – qarsoq bilan.

⁴ Bo'libdi.

⁵ Xunasaga.

⁶ **Shunqor** – lochinsimonlar oilasiga mansub yirtqich qush. Odamlar uni ov uchun qo'lga o'rgatishadi.

⁷ **Chuymoq** – qush solmoq, ovlanadigan qush yoki mayda hayvonga ov qushini yo'llamoq.

⁸ Bo'libman.

⁹ Ko'rinishing.

¹⁰ Olibsan.

¹¹ Qilibsan.

Men yo‘liqdim endi kimning qahriga,
Oting chidamaydi qamchi zahriga.
Akajonim, g‘amguzarim, yo‘l bo‘lsin?
Rostin ayt, Gajdumbek, senga yo‘l bo‘lsin?

Talab qilding, aka, Yovmit shahringga,
Yo‘l yurasan zanglab yotgan cho‘lingga,
Rahm aylanglar, aka, g‘arib holingga.

Ravshanbekka qarab:

Quloq soling mening aytgan dodima,
Yorib op ket, ichimdagi qo‘zingni!

Otaliklar, «Ota!» – deyishib chaqirsa,
Bunda qolib, bolang bo‘lsa darbadar!
Ol xanjarni, yorib op ket bolangni!

G‘am sarg‘aytib¹ hammasining yuzini,
Har kim ko‘nglin mard bilmaymi o‘zini.
Jigarchilik yomon ekan dunyoda,
Gajdumbek to‘xtata olmay o‘zini.

Sholchiq² yerda ikki oyog‘i toyrilib,
May ichganday yuraklari moyrilib,
«Voy attang!» – deb, bek Gajdumbek bo‘zlaydi,
Singlisining mehriga hech to‘ymaydi»
«Attang!» – dedi bo‘yni ortga qayrilib.

Shunda Ravshanbek: «Ikki yolg‘on bir qasam, bunga so‘zning rostini aytmoq lozim», – deb Bibi Hilolga qarab, bir so‘z dedi:

Kimning dardi bo‘lsa ko‘zdan yosh to‘kar,
Xafa odam bo‘zlab qomatin bukar,
Talab qildim, men Yovmitning eliga.
Diydor qiyomatga qoldi, allayor³.

¹ Sarg‘aytiribman.

² Balchiq.

³ Allayor –1) Olloh yor bo‘lsin; 2) xo‘sh endi, xo‘sh qol.

Dardli ko'ngil qaynab-qaynab jo'sh endi,
Voy attang, baloga qolgan bosh endi.
Bu dunyoda ko'rmoq yo'qdir, qaddingdan,
Diydor qiyomatga qoldi, xo'sh endi.

Quloq solgin so'zning yolg'on-rostiga,
Ot chopilar uydan qirning ustiga.
Bu dunyoda ko'rmak yo'qdir rozi bo'li!
To'rangni ko'rarsan tug'ning¹ ostida.

To'rangning o'yildi qaytayin ko'zi,
G'ang'illab uchadi ko'llarning g'ozi,
Yaxshi-yomon bu dunyoda gaplashdik,
Qaddingdan, bo'lgaysan bizlardan rozi!

Dolboy² kelsa tolpinadi qarchig'ay,
Musofirlar tortar ekan oh-u voy.
– Voy to'ram! – deb bo'zlab turdi joyidan,
– Taqdirginam qursin, dedi Hiloloy.

Ana shunda buni eshitib, Hiloloy, dod, deb akasi bilan
yoriga qarab, bir so'z dedi:

Yori o'lsa, ne oyimlar tulmidi,
Kiyikning yurgani Qulo cho'lmidir?
Hiloloyini kimga tashlab ketasan,
Sening bilan ahd-u paymon shulmidir?

Oqizib ket, mening ko'zdan yoshimni,
Itlarga torttirib ket go'shimni³!
Xanjaringni g'ilofidan op, bekbachcha,
Chopib kelib, kesib olgin boshimni!

Tog'larning boshini chalgan⁴ tuman-a,
Yuraklar bo'lib qoldi qon-a,

¹ Tug' – bayroq, qo'shin bayrog'i.

² Dolboy – ovchi qushni qo'lga keltirish uchun unga ko'rsatiladigan go'sht, yemish.

³ Go'shimni.

⁴ Cholgan, chalgan – qoplagan, bosgan, egallagan.

Ol xanjaring, yorib op ket bolangni,
Bor edi o‘zingdan bo‘lgan gumona!

Yovmitda begimjon deydi o‘zingni,
Taraflaring¹ o‘yib oldi ko‘zingni.
Ol xanjarni, bunda kelgin, shoh to‘ram,
Sira yo‘qdir bu dardlarning davosi!

Op ketgin, der orqasidan tolpinib,
– Voy akam! – deb Gajdumbekning singlisi.

Beklar minmaymikan qora bayirdi²?
Har kim o‘z joni uchun qilar xayrdi³,
Bir-biridan tiriklayin ayrildi,
Hilol bo‘zlab qoldi Zargar elida,
Gajdumbekman⁴ ko‘r Ravshanbek, yoronlar!

Elning ishqı ko‘p zo‘r ekan dunyoda,
Yovmitning eliga ikkovi ketdi.

Oshiq kuyar ma‘shuqining holiga,
Bulbul sayrar bog‘da ochilgan guliga.
– Voy akam, – deb o‘pkasini bosolmay,
Bibi Hilol qoldi Zargar elida.

Yuraklari to‘la-to‘la dard bo‘ldi,
– Voy to‘ram, – deb bo‘zlab qoldi xo‘rsinib,
Ketgan yo‘lga ikki ko‘zi to‘rt bo‘ldi.

Ravshanbek aytdi:

– Ey, Gajdumbek, Shohdorxonning oldiga borib: «Bizlar ketdik, armonda qolma», – deb, javob bersa duosini olib, javob bermasa, armonda qolmasin, o‘zimizni ko‘rsatib bildirib ketayik, mardlarning ishini qilayik, nomardlarday qochib ketmayik, – deb

¹ Dushmanlaring.

² Bayirni.

³ Savobni.

⁴ Gajdumbek bilan.

otning boshini Shohdorxon podshohning oldiga qarab burdi. Shohdorxonning oldiga borib, uzangiga oyog'ini tirab: «Fotiha bering», – deb, bir so'z dedi:

Og'aynilar, Shohdorshohim,
Oldingdan o'tgani keldim.
Biring katta, biring kichchi¹,
Yovmitga ketgani keldim!

Yetti yil yurdim elingda,
Tuproq'im tortsa elima,
Yovmitga ketgani keldim!

Yovmit shahrime ketarman,
Bundan Turkmanga yetarman,
Har tarafga arza qilib,
Nomi beklarni yig'arman.

So'qim-mollarni so'yarman,
Podshohlik kiyimlar kiyarman,
Oldingdan o'tgani keldim.

Bedovlarni dirkillatib,
Tug'-bayroqni so'lqillatib.
Har ko'chganda to'plar otib,
Elima ketgani keldim!

Lashkar kelar bebosh-bebosh,
Sizing bilan qilar savosh²
O'zdin ketma, qizilbosh³,
Elima ketgani keldim!

Atrofingni lashkar olar,
O'zbeklarning bari kelar,
Sizing⁴ bilan urush qilar,

¹ Kichik.

² Urush.

³ Qizilbosh – o'zga yurtli dushman, ko'pincha eronlik bosqinchi.

⁴ Siz.

O'liklar chalkashib qolar,
Elima ketgani keldim!

Shuytib kelarman, podshoyim,
Armonda qolma tojdorim,
Eshitgin, podsho so'zimni,
Nega o'yding ikki ko'zimni?

Ravshan optimi¹ qizingni?
Oldingdan o'tgani keldim!

Buni eshitib, Shohdorxon:
«Ushlanglar», – dedi.

Hamma o'ltirgan odamlar birdan turib daf qildi. Shunda Gajdumbek otning boshini burib oldi. Shohdorxonning bir odami xez qilib, otning jilovini ushlay olmay, dumidan ushlab oldi. Hamma odamlar bularning oldini, orqasini o'rab oldi. Shunda Gajdumbek ochiq yer topolmay, tikka hovuzga qarab, «chuv-ha», «chuv-ha», deb otning boshini burib oldi. Ot ko'tarilib, hovuzdan irg'ib o'tdi, haligi ushlagan, hovuzga cho'lp etib tushib ketdi.

Mavj urib daryoday toshdi,
Beklarning aqli shoshdi,
Qo'rqma, dedi Ravshanbek.

Podsholikda amaldor,
Hammalari: «Ushla», «Ushla», – deyishdi.

Odamlarning barisi chuvillashdi.
Gajdumbekning suyaklari shovshadi.
Tizilishib quva berdi bedovlar,
Ikkovini: «Ushla», «Ushla», – deyishadi.
Bu gaplarga yurak oshday qaynadi.

¹ Olibdimi.

Men bilmayman toshib ketgan gunohdi¹,
Baland-baland tog‘da yo‘g‘on xumodi.
Darvozani sharqqa-sharqqa qamadi,
Gajdumbekning aqlini shoshirdi.
Ravshanbekning yuraklari jo‘sh urdi.

Qamab oldi atrofini ko‘p sarboz,
Barakalla Ravshan boqqan otiga!
Shu qo‘rg‘ondan ikkovini oshirdi,
Turganlarning aqlini shoshirdi.

Bulbullar sayraydi bog‘ning guliga,
Ot bo‘lmasa, o‘lar edi ikkovi,
Endi tushdi Yovmit elning cho‘liga.

Yig‘lamay naylayin², qismatlar qattiq,
Bek deganday, bir belgisi shu ekan.
Talato‘p qip, bir podshohning shahrini,
Yovmitning eliga salomat ketdi.

Qayda ketdi, deb turgan odamlar,
Har bir odamlardan darak so‘roqlab,
Orqasidan chopib tushdi bir ming ot.

Amaldor anjom boylar beliga,
Sog‘-salomat chiqib Zargar elidan,
Beklar tushdi Yovmit elning yo‘liga.
Qocha-qocha ikki birday bekbachchá,
Chiqib oldi eson-omon dalaga.

Bir ming ot bularni quvib ketdi.
Har bir damni bilib oling g‘animat,
Kosa davron er yigitga navbatdi(r)
Quloq soldi bekbachchalar ketiga,
Bedovning dubiri quloqqa yetdi.

¹ Gunohni.

² Nima qilay.

Bir ming otning ichidan,
Besh yuz tulpor ayrildi.

Besh yuz tulpor ichidan.
To'rt yuz bedov ayrildi,
To'rt yuz bedov ichidan,
Uch yuz bedov ayrildi.

Oradan bir kun o'tdi.
Uch yuz bedov ichidan,
Ikki yuzi ayrildi.

Yana bir kun quvishdi,
Necha qirlardan oshdi.
Suv olgani yo'q ekan,
Bir nechasing ichi pishdi.

Askarlar o'ldik deyishdi,
Bedovlarga chang qotdi.

Bu damlar g'animatdir,
Ushlaymiz, deb halak bo'p,
Oradan uch kun o'tdi.

Ikki yuz ot ichidan,
Uch tulpor ilgari tushdi.

Bor ekan-da, Shohdorxonning tulpori,
Qolgan hammasi horib cho'lda qoldi.

O'zi oqqina, kiprigi yo'qqina, katta emas choqqina,
go'shtli, badanligina bir tulpor beklarga bir tanob yerdan quvib
yetdi, Shunda Gajdumbek aytdi:

– Ravshanbek, bir shapaq¹ tulpor yetib qolay dedi.

Ravshanbek:

¹ Shapaq – quyoshga tik qaray olmaydigan ot.

– Yetay degan bo‘lsa, har yerga borsang ham yetadi, ko‘p ildam yamanlagur. Mozorli yer bo‘lsa, changali¹ bo‘lsa, shunga qarab qoch, kun chiqsa, kunga qarab qoch!

Gajdumbek o‘ng kelsa o‘ngga, chap kelsa chapga qaradi, bir vaqt bir qozoqning mozoriga yetdi. Qozoq mozoriga otni solib beklar qochdi. Shafaq ot aksari kunga qaray olmas ekan, kunga qaray olmay, changalga oyoq bosolmay, changalga surilib yiqildi. Bular keta berdi.

Orqasidan yana bir tuyog‘i oq to‘riq² tulpor quvib yetdi. Gajdumbek:

– Tuyog‘i oq to‘riq tulpor yetdi, – dedi. Ravshanbek:

– Toshloqqa solib qoch, – dedi.

Gajdumbek sel ketgan soyga solib qochdi. Oq tuyoqli uchun, tuyog‘i sinib, haligi tulpor guppa yiqildi. Bu ham mayib bo‘lib qoldi, nimagaki, qattiq quvishib kelayotib edi. Bekbachchalar bundan qutulib ketdi. Ana shunda tag‘in bir xosa³ tulpor orqasidan quvib yetdi. Buning ustidagi kishi Shohdorxon podshoning So‘qim semiz, degan sinchisi edi.

Haligi So‘qim semiz sinchi Ravshanbekka aytdi:

– Uylaringni bilmading, o‘z bilganingdan qolmading, qanikay «tulpori yo‘q», deganing? Men seni endi ushlab, podshohning oldiga olib ketaman. Lekin qo‘rqib, pisib yurma. Shohdorxon podshohimiz in‘om-ehsonlar berib yana elingga jo‘natadi. Men ko‘p katta odamman, mening aytganimni podshoh qiladi. Xizmatkorning xizmati podshohga yoqsa yaxshi, odam sira baraka topmay qolmaydi, degan. Sen ham baraka topasan, bunday qilmanglar, yuringlar, – dedi.

Shunda Ravshanbek:

– Dono bilan dono gaplashadi, podshoh bilan podshoh gaplashadi, sinchi bilan sinchi gaplashadi. Aytgan so‘zing durust, sinchiliging ham durust. Lekin mard yigit aytmaydi, aytgan so‘zidan qaytmaydi. Men ham o‘zimni mard olib yurganlardanman, yo‘ldan qaytmayman. «Podshohning tulpori bor ekan, bor ham bo‘lsa yo‘q ekan», – deb edim.

¹ Changal – tikanli buta.

² To‘r, to‘riq – qoramtir qizg‘ish rangli ot.

³ Xasa, xosa – sara, naslli, zotdor. Xasa tulpor – zotdor tulpor.

Podshohning bu uch tulporida kamchiligi bor, holvachining tulpori kamchiliksiz, hech yerda qolmaydi, charchamaydi. Podshohning o'zi yoshroq ekan, esi past ekan, mening so'zimning oxirini so'ramay, nohaqdan ko'zimni o'yib oldi, – dedi.

Bu so'zni eshitib So'qim sinchining achchig'i keldi.

Ravshanbek shunda bildi. «Bizlar anjomsiz, So'qim sinchi anjomli – nayzali, miltiqli, mabodo bizni otib tashlamasin», – dedi.

– Ey, So'qim sinchi, hamma narsadan gap zo'r, – deb gapga soldi. – Sening boqqan tulporingdan shafaq oting kunga qaray olmaydi, turi oqtuyoq tulporing toshloqqa bo'lmaydi, oyog'i uchib, sinib qoladi. Mening so'zim yolg'onmi? Oting mo-zorda, changalda, kunga qaray olmay yiqilib qoldi, to'riq tulporing sel ketgan toshloqda toshga oyog'ini bosolmay, bu ham yiqilib qoldi. Mana, mening so'zimga podshohing ishonmay, ikki ko'zimni o'yib oldi. Tag'in sen yur deysan. Albatta, men borgandankay¹ qoldira qo'yami? O'ldiradi. Ana endi sening so'zing zo'r bo'ldimi, mening gapim zo'r bo'ldimi? – dedi.

Shunda So'qim sinchi:

– Voh, asal aynimas, tilla chirimas, sarimoy sasimas. Sening har bir gaping har narsadan zo'r bo'ldi, menga o'limdan yomon bo'ldi, – dedi. – Hali ham yuringlar mehmonlar. Elga borayik, – dedi.

Lekin Gajdumbek Ravshanbekka qarab, har zamon: «Ketaylik», – deb qistasa, Ravshan: – Dam tur², So'qimning oti bir siysin, undan keyin ketamiz, otining teri qotib, turgan yeridan o'tolmaydi, ter qotmasa, qochsang quvib yetadi, – dedi.

Shunda So'qim sinchi tag'in Ravshanxondan so'radi:

– Mening ostimdagi bu tulpor ot-chi?

Shunda So'qim sinchining oti siydi.

Ravshanbek: – Siydimi? – dedi.

Gajdumbek: – Siydi, – dedi.

Ravshanbek So'qim sinchiga:

– Gapimni kam-kam bilasan, o'lmay podshohning oldiga borsang, mening so'zlarimni podshohga aytasan, – dedi.

¹ Borgandan keyin.

² Biroz tur.

Bu gapni aytib, ular qocha berdi.

So‘qim sinchi: «Chuv-ha», «chuv-ha», – deb harakat qilib quvayin desa, ostidagi oti olaqaroq¹ bo‘lib, tarashaday qotib qolibdi.

«Voy, voy, o‘zbek sinchining aytgani keldi», – dedi. Xosa tulpor bir yerda turib qolsa, olaqaroq bo‘lib qotib qolar edi, buni So‘qim sinchi bilar edi. Bizlar ham sinchilik² dag‘dag‘asini qilib yurgan ekanmiz, sinchilik mana bunday bo‘ladi ekan, deb Ravshan ko‘r sinchining aytgan so‘ziga qoyil bo‘ldi, unga tan berdi. «Barakalla, Ravshanbekning sinchilig‘iga», – dedi.

Ana endi shuytib, ikki o‘zbek Gajdumbek bilan Ravshanbek keta berdi.

So‘qim sinchi qola berdi.

Yig‘laganning yoqasi ho‘l yoshiga,
Har kim elatiga, qarindoshiga
Sog‘-salomat chiqib Zargar elidan,
Xalos bo‘ldi taraflarning³ qo‘lidan.

Endi tushdi zanglab yotgan cho‘liga.
Ravshanbekman⁴ Gajdumbek: –
Ota yurtim qayda, – deb,
Jo‘nay berdi bekszoda.

Ochildi guli g‘uncha,
G‘am ko‘pdi, gap bilan ancha.

Ota yurtim qayda, deb
Jo‘nayberdi bekbachcha.

Og‘a yurtim qayda, deb
Jo‘nayberdi bekbachcha.

¹ **Olaqaroq** – otning teri birdan sovib yurolmay, qotib qolishidan kelib chiqadigan kasallik.

² **Sinchilik** – otning xislat va fazilatlaridan puxta xabardorlik.

³ Dushmanlarning.

⁴ Ravshanbek bilan.

Ot keladi arillab,
Otgan o'qday zirillab.
Bedov otning shamoli,
Mis karnayday pirillab.

Ol-ol, yurdi ol yurdi,
Ozginamas¹ mo'l yurdi.

Tag'i qirq kun yo'l yurdi.
Namozdigar bo'lganda,
Bitta shaharni ko'rdi.

Shu yerda jonivor tulpor ot, ichi kuyib o'ldi. Bularga alamlar ziyoda bo'ldi, oti uchun beklar kuyib qoldi. Har na bo'lsa taqdiriga ko'ndi. Ana endi ikki bekbachcha piyoda bo'lib qoldi. Gajdumbek Ravshanbekni yetaklab oldi. Oqshomi bilan yo'l yurib, shaharga yetdi. Shunda qarasalar, sherdon bozorchi karvonlar, savdogarlar, qabilaboshlar, yo'lovchilar yo'l bilan kelayotibdi. Darvoza ochilibdi. Shunda savdogarlarga bular aytdi:

– Bu shahar kimning shahari?

Qabilaboshlaridan biri:

– Bu shaharni qari bobolar Odilxon podshoning yurti Yovmit deydilar, – dedi.

Shunda Gajdumbek aytdi:

– Sizlar qaysi shaharning savdogarlarisizlar?

Savdogarlar:

– Bizlar Taka yurtining karvonimiz.

Buni eshitib, Gajdumbek:

– Ey, Ravshanbek, endi men o'z yurtim Taka eliga ketaman. Qaysi birimiz tinch bo'lsak, bir-birimizga xat yuborishib turamiz. Siz ham o'z yurtingiz Yovmitga keldingiz, – dedi.

Gajdumbek savdogarlar bilan Taka yurtiga ketdi.

Ana endi, Ravshanbekdan eshiting.

Ravshanbek so'ray-so'ray, istay-istay podshoning dorxonasiga borib qoldi.

Podshoga ko'rinish berib:

¹ Oz emas.

– Assalomu alaykum, o‘ltirgan qarindoshlar, – dedi.

Lekin Odilxon o‘lgan, o‘rniga Urayxon podsho bo‘lgan ekan. Ravshanbekning otasi To‘liboy sinchi ham o‘lgan ekan. Urayxon podsho aytdi:

– So‘ranglar, bunday yomon ahvolda qolgan qanday qarindosh ekan?

Urayxon Ravshanbekdan, qavmi-nasab so‘radi. Ravshanbek aytdi:

– Mening otamning katta yurti bor edi. Otamning otasining oti Qovishtixon. Odilxon podsho Qovishtixonning yurtiga yovlab bordi, uni o‘ldirdi, otamni bandi qilib olib, xizmatkor qildi. Otam To‘liboy sinchi edi. Otam Odilxonning xizmatida yura bergan. Bir kunlari Odilxon podsho, «Kel-e, To‘liboy ham o‘zimning suyagim», – deb Bibi Oysha degan qizini bergan ekan, Men shu Bibi Oyshadan bo‘lgan ekavman. Mening nasabim – shu.

Shohdorxon podsho bu shaharga yov bo‘lib kelganda, men Hamza degan bir odamning qo‘lida bandi bo‘lib ketdim. Hamza meni yetti yil boqdi.

Taka-Turkman yurtidan Shohdorxonning yurti – Zargar-ga, Gajdumbek degan kishi ham Bibi Hilol degan singlisi bilan bandi bo‘lib borgan ekan. Bir kunlari Gajdumbek, qarindoshim, deb Bibi Hilolni menga berdi.

Gajdumbek Shohdorxon podshoga xizmatkor edi. Bir kuni bizlar ovga chiqdik. Bir tulporning suyagini topib olib edik. Buni podsho eshitib, menga tablasidagi otlarini ko‘rsatdi. «Qaysisi tulpor?» – dedi. Men bilganimni aytib edim, Shohdorxon achchig‘lanib, ko‘zimni ko‘r qildi. Mendan tila tilagingni, deganda bir ot tiladim. Shu otni Gajdumbek ikkovimiz minib, qochib qutulib keldik. Mendan Bibi Hilolning bo‘yida olti oylik gumona qoldi. Bibi Hilol Shohdorxonning yurtida musofir bo‘lib qoldi. Mana, men bu yerda, sizning oldingizda turibman. Gajdumbek ham o‘z yurti Taka-Turkmanga ketdi. Shuytib, men sizlarni tog‘am, og‘am, elim, qarindoshim, deb keldim, – dedi.

Urayxon podshoning oldidagi odamlar:

– Shu ko‘rdan nima qarindoshchilik chiqardi? Qaysi yerdan kelgan bo‘lsa, shu yerga keta bersin, – dedi.

Urayxon hech nima demadi. Odamlarning soʻziga qarab turdi. Shunda Ravshanbek, bularning oldidan noumid boʻlib, xafa boʻlib, oʻrnidan turib keta berdi. Shu Yovmitning bir kambagʻal saroyboni bor edi. Toʻliboy sinchini tanir edi, Ravshan koʻrni saroy yonida koʻrib, surishtirib tanib oldi; koʻngli joʻsh urdi. «Azob tortib, qarindoshim, deb kelibdi, podsholar qabul qilmabdi. Men bu bechoraga saroyini berayin yeb yotsin, men boshqa bir tirikchilik topib ketarman», – deb Ravshanga aytdi:

– Shu saroy oʻlguningcha boqadi.

Saroydagi xizmatchilar Ravshanga xizmat qilib yota berdilar.

Doʻsti yaxshi koʻrgan yigit,
Har yerga borsa xor boʻlmas.
Ichi gʻamga toʻlgan yigit,
Hamdamni topsa ayrilmas.

Ana endi Ravshanbek podsholardek sira siybat¹ bilan yota berdi.

Buni yotmoqda qoʻyib, gapni Gajdumbekdan eshiting.

Gajdumbek yurtiga otasi Jigʻalixonning oʻlgani ustiga bordi: Otasini rasmi qoida bilan koʻmdi. Gajdumbekning kelganini xaloyiq eshitib, yer yorilganday boʻlib, bari koʻrmoqqa keldi. Xaloyiq buni podsho koʻtardi, Gajdumbek otasining yurtiga, davlatiga ega boʻldi, beklik, podsholik davrini surmoqqa kirishdi.

Shunda Gajdumbek, Ravshanbekka xat qildi. Aytdiki: «Men davlatli boʻldim, Ravshanbek tinch boʻlmasa, kelsin».

Bu xabar Ravshanbekka yetdi. Ravshanbek xatni oʻqitib bilib, bu ham: «Vaqtim xush!» – deb xatiga javob qaytardi.

Bu xat Gajdumbekka yetdi. Gajdumbek: «Dimogʻi chogʻ boʻlsa boʻldi», – deb, Ravshanbekdan koʻngli toʻldi.

Shuytib, bular bir-biroviga xat-xabar qilib tura berdi. Bularni bunda quyib, endi soʻzni Bibi Hiloldan, Zargar mamlatidan eshiting:

¹ Huzur-halovat.

Shohdorxon podsho barcha qur'ondozi, munajjimlarini yig'ib aytdi:

– Ketganlar qutulib ketdi, o'z yurtiga yetdi. Endi mening ko'rgan tushimning ta'birini qilinglar, nima bo'ladi?

Qur'andozlari yig'ilib maslahat qildi:

– Ey podsho, bizlarning sizga arzimiz bor! Bizlarga javob bersangiz, Bibi Hilolni so'yamiz, ustiga olov qo'yamiz, o'zini kuydirib, kulini elakdan o'tkazib yuboramiz. Bu ellarni talato'p qiladigan bola shu Bibi Hiloldan paydo bo'ladi. O'ldirib kuydursak, yo'q bo'lib ketadi, unday keyin davlat o'zingizniki.

Shu so'zga maslahat qaror bo'ldi.

Gajdumbekning Rustambek degan bir xizmatkori bor edi. Gajdumbekning cho'ldagi yilqisini boqib yuradigan yilqiboqar bolalarning oldida hamma vaqt, unday qilinglar, bunday qilinglar, deb aytib xizmat buyurib yurar edi. Ravshanbek bilan Gajdumbekning qochib ketganidan xabarsiz edi. «Men borib, xo'jayinlarni ko'rib, salom berib, yillik pullarni olib, kiyim-kechak qilib kelayin», – deb Zargar shahriga yetdi.

Ko'chadan kelayotsa, Zargar shahrining xalqi to'p-to'p bo'lishib, Har yerda maslahat qilib yotishibdi.

Rustambek:

– Bu elda nima gap bor? – dedi.

Turganlarning birovi:

– Buni so'rab nima qilasan. Gajdumbek bilan Ravshanbek qochib ketibdi. Ketsa-ku, mayliga-ya, Shohdorxonning ko'nglini qora qilib ketibdi. Orqasidan bir ming amaldor quvib ketgan edi, hammasi cho'lda otidan ayrilib, piyoda bo'lib o'libdi. Endigi maslahat Bibi Hilolni kuydirib kulini elakdan o'tkarib¹ yubormoqchi bo'lib yotib-da, – dedi.

Birovlar Rustambekni Gajdumbekning quli der birovlar o'g'li der edi. Bu gapni eshitib Rustambekning yuragi «jiz» etib ketdi, ildam-ildam yurib, tikka Bibi Hilolning oldiga yetdi.

Rustam qarasa, Bibi Hilol cho'pday qotib somonday sarg'ayib ketibdi.

Buni ko'rib, Gajdumbekning tuzini hurmat qilib, Bibi

¹ O'tkazib.

Hilolga qarab, bir soʻz dedi:

Qaytay¹ sabil boʻpti Yovmitning yurti,
Ado boʻlmas yuragingning hasrati.
Hech kima² tushmasin judolik hili³,
Bildim olis ekan, Yovmitning eli.

Kechasiman⁴ necha jondan oʻtayin,
Haq hurmati singlim dedim, Hiloloy,
Yurgin: Yovmitga eltib borayin!

Rahm aylagin, chiroqqinam, holingga,
Qiyomatlik singlim, dedim oʻzingni,
Yurgin, Yovmitga olib ketayin!

Shohdor podsho qurʻandozni yigʻdirar,
Qoshing kerib qovogʻingni oʻydirar.
Mingashib Turkman eliga ketayik,
Erta bilan amaldorlar kuydirar!

Yaxshilik koʻr, yomonlikni koʻrmagin,
Uzoq yasha, boʻtam, sira oʻlmagin!
Chirogʻim, yur, hozir Yovmit ketayik,
Bu gapimni hargiz hazil bilmagin!

Sayil qilsang, Yovmit eli – chorboqqa,
Erta bilan olov yoqib kuydirsa,
Oʻzing tugul langqa⁵ qolar oʻzbekka,
Chirogʻim, yur elatingga ketayik!

Sen yoʻliqding dushmanlarning qahriga,
Ot chidamas achchiq qamchi zahriga.
Eson-omon mingashtirib Hiloloy,
Yurgin, op ketay Yovmit shahriga!

¹ Nima qilay.

² Hech kimga.

³ Hil – 1) alam; 2) issiqlik, harorat, taft, oʻt, alanga; 3) ishq oʻti (*koʻchma maʼnoda*).

⁴ Kechasi bilan.

⁵ Dogʻ maʼnosida.

Hiloloy bu soʻzni eshitib:

– Bir kun oʻlmoq, bir kun tugʻilmoq. Men bir xizmatkorim bilan mingashib borsam, odamlar, qarindoshlarim Gajdumbekka, sen oʻzing qochib kelib eding, sening singling Bibi Hilol begona bir odam bilan mingashib keldi, deb aytar. Akamning va yorim Ravshanbekning yuzi tuman¹ boʻlar. Bu bilan borganimdan, bormaganim yaxshiroq. Men qarindoshlarimning maʼraka-oʻltirishlarda yuzini tuman qilganimdan, shu yerda gʻarib boʻlib oʻlganim yaxshi, – dedi.

Buni eshitib Rustambek aytdi:

– Erta bilan seni Shohdorxonning odamlari soʻyib oʻldiradi.

Hilol:– Oʻldirsa, xudoning ishi-da. Men oʻlimga roziman, – dedi.

Rustambek:

– Xayr, sening ishing. Sen boshqa kishining bolasisan, senga men hech nima deya olmayman. Agar oʻz singlim boʻlganingda olib ketar edim. Endi oʻzing bilasan, – deb Rustambek yoʻlga qarab chiqib ketdi. Kun xufton boʻldi.

Bibi Hilol, meni oʻldirar ekan, deb koʻngli buzilib, yigʻlab oʻtirdi:

Dolboy kelsa tolpinadi qarchigʻay,
Hovlisida tortayotir oh-u voy.
Oʻpkasini bosolmay-boʻzlab yigʻlaydi.
Taqqiridan koʻrib endi Hiloloy!

Ochilar bogʻlarda gul bilan gʻuncha,
Yurakda gʻam koʻp, dard bilan ancha.
Hovlisida oʻnglab yotib yigʻlaydi,
Yigʻlay-yigʻlay oqshom boʻldi, yarim kecha.

Bulbullar sayraydi, bogʻlarda bahor,
Podsholar qilmasin hech kimga qahr,
Mayib norday, har xoʻrsinib yigʻlaydi,
Tun boʻlib qoldi, shu vaqtda tong sahar.

¹ Qora.

Yig'lay-yig'lay qaddi yoyday bukildi,
Kechasi bilan yig'lay berdi dod-u dod,
Xafa odamga hamisha bo'lar qiyomat.
Bibi Hilol dunyodan o'tdi.

Erta bilan tong otdi. Shohdorxonning amaldorlari, qur'andozlari, munajjimlari «Bibi Hiloldan sohibi qiron chiqadi ekan, o'ldiramiz, kuydirib kulini elakdan o'tkazamiz, undan keyin sohibi xurush yo'q bo'ladi, yurt bizlarga qoladi. Hamma yurtga shahanshoh bo'lamiz, – deb ko'cha-ko'yda yig'ilishib, Bibi Hilolning ustiga keldilar. Shunda qarasalar Bibi Hilol o'lgan.

«Endi har nima bo'lsa ham, Bibi Hilolga qo'llaringizni tegizmanglar», – deb hammasi chuvillashib, vaqtlar xush bo'lib, karnay-surnaylarni chalib, qo'ng'iroqlarni urib, shaharni bezab, suvlarni septirib, oynabandlik qildirdi.

Shohdorxon buni eshitib, amaldorlariga ziyofat berib, vaqtlarini xushladi. Shohdorxon va barcha amaldorlarning vaqti xush bo'lib, dimog'lari chog' bo'lib:

«Sohibi qiron yo'q bo'ldi», – dedi.

Ana endi bularni vaqtlari xushlik, dimog'lari choqlikda qo'yib, endi so'zni Rustambekdan eshiting: Rustambek Bibi Hilolga nasihat qilib edi, Bibi Hilol: «Taqdirimdan ko'raman», – deb Rustamning aytganiga ko'ngan emas edi.

Shunday bo'lsa ham Rustambek aytdi: «Har nima bo'lsa ham, singlim, deb edim, akasining tuzini ko'p yegan edim, bir borib xabar olayin. Shohdorxon Bibi Hilolga qanday jabrlarni qildi ekan», – deb keldi.

Rustam kampul bo'lib yurar edi, ba'zan butxonaga pop bilan birga borib, tushgan pullarni yig'ib olar edi. Pulni ko'p qilsa, yana musulmon bo'lib yurar edi. O'zi ikki xayolroq odam edi. Kelib ko'rsa, Bibi Hilol bechora cho'zilib yotibdi.

Shunda Bibi Hilolga qarab, Rustambek bir so'z dedi:

Tovus degan qush taralar qiyada,
Ne ko'rib kechirding yolg'on dunyoda,

Akam ketdi, deb xafa bo‘lmasin,
Akangdan boqar qullari ziyoda!

Oqizma, chirog‘im, ko‘zdan yoshingni,
Qochirmagin aql bilan hushingni.
Qiyomatlik singlim dedim, Hiloloy,
Och ko‘zingni, ko‘tar aziz boshingni.

To‘rg‘ay chullab¹ tong sarg‘ayib otibdi,
Bek Rustambek xunobalar yutibdi.
Shunday borib Hiloloyga qarasa,
Bu dunyodan safar qilib ketibdi.

Yomonga sira aytmang elga yoyadi.
Rustambekning yurak-bag‘ri kuyadi,
G‘arib o‘lgan voy singlim, – deb Rustambek
Hiloloyning kallasini suyadi.

– Voy singlim, – deb qovoqlarin siladi.
Kuygan odam gapni gapga uladi.
– G‘arib o‘lgan, voy bovrin², – deb Rustambek,
Tayoqqa suyalib bo‘zlab yig‘ladi.

Qoshin kerib, qovog‘ini uydirdi,
O‘lim qursin yurak-bag‘rin kuydirdi,
Bir kampirni olib kelib Rustambek,
Hiloloyni, xo‘p yaxshilab yuvdirdi.

Yig‘lamay naylayin, qismatlar qatti(q),
Rustam sho‘rning o‘pkasi shishib ketdi.
Mozoratdan olib keldi tobutni,
Singlisini solib qo‘ydi tobutga.

Har ko‘zidan qonli yoshlar to‘kilib,
Hiloloyni mozoratga op ketdi.
Orqalab ko‘tarib yolg‘iz singlisin,

¹ Chuldirab.

² Jigarim.

Uytib-buytib¹ olib bordi mozorga.
Qaytarmanglar, yaxshi odam ra'yini,
Kimga aytar yuragida o'yini.

Aka, ini, yo'qdir unda qarindosh,
Yig'lay-yig'lay shishib oning o'pkasi
Kovlay berdi singlisining joyini.

Nodonlarni² aslo qo'ymang ra'yiga.
Yolg'izlik yomon ekan dunyoda,
Quchoqlab singlisini Rustambek,
Hamma yeri tuproq bo'bdi³ bebaxtning.

Singlisini shunday qo'ydi joyiga.
Yig'lay-yig'lay ko'zlaridan yosh quydi,
– G'arib o'lgan, jigarim, – deb Rustambek
Bo'z tuproqni uning ustiga uydi.

«Belgili bo'lsin ukam joyi», – deb
Katta toshni op kep boshiga qo'ydi.
– Voy singlim! – deb bechora dod ayladi,
Gohi yig'lab, gohi faryod ayladi.

Bilar-bilmas qur'on o'qib bechora,
Singlisining arvohin shod ayladi,
G'am sarg'aytdi⁴ Rustambekning yuzini,
Tuproq bo'lib qolgan uning o'zidir.

Xo'rsinadi to'xtatolmay o'zini,
Yo'q qip qo'ydi aytadigan so'zini.
Mozoratga qaratadi ko'zini.
Yakkalik yer yomon ekan dunyoda,
Shu Rustambek bo'ldi davlat sohibi.

¹ Uytib-buytib – unday-bunday qilib.

² Nodon – xom, hali ko'p narsani bilmagan; majozan go'dak.

³ Bo'libdi.

⁴ Sarg'aytirdi.

Rustambek Bibi Hiloloyning go'riga qo'yib, Gajdumbekning hovlisiga keldi. Gajdumbekdan qolgan barcha hovli-haram, mol-pullarga ega bo'lib qoldi.

Rustam:

– Endi davlatga ega bo'ldim, xotin olmasam sira ham bo'lmaydi, – deb Badgir deganning singlisini oldi. Xotinidan bir bola bo'ldi. Otini Qo'ng'irboy qo'ydi.

Shuytib, bularni goh dimog'chog'liklarda, goh xafaliklarda qo'yib, endi so'zni go'rda o'lib yotgan Bibi Hiloldan eshiting.

Bibi Hilolning o'lganiga uch oy-yu to'qqiz kun, to'qqiz soat, to'qqiz daqiqa o'tdi. Ravshanbekdan olti oylik gumona qolgan edi. Bibi Hilol o'lgan bo'lsa ham, bolasi o'lmagan ekan. Shunda vaqti yetdi. Tug'moqchi bo'ldi. Bibi Hilolning o'ligi go'rda tebrandi. O'lik badanini to'lg'oq tutdi.

Hilolning tanasi go'rda tebrandi,
Endi tutdi Hiloloyning to'lg'og'i.

Mavj urib misli bir daryoday toshdi,
Hoy attang-a, dardlar-dardga ulashdi.
Chaqaloq qimirlab ena qornida,
Hiloloyning farzandi go'rga tushdi,

Bachchani yuzining oydinligiga,
Barq urib, go'r yop-yorug' bo'ldi.
Bibi Hilol bir nozanin ul¹ tug'di.
Uch kecha, uch kunduz oradan o'tdi...

Hiloloyga jon kelmadi, lekin bolaga emchagidan sut kelib yotdi. Shu orada o'rtadan uch yil o'tdi. Go'ro'g'li tug'ilgandan beri go'rda chiroq yonib turar edi. Bir kuni lip etib o'chib qoldi. Yana uch kun o'tdi. Hiloloyning emchagidan sut kelmay, badani ko'mirday cho'ykab² ketdi. Ana shunda Go'ro'g'li och qoldi, enasiga qarab, bir so'z dedi:

¹ O'g'il.

² Qorayib.

Aytsam yetgaymikan, enajon, zorim,
Yurakda g'amim ko'p, ichda zanglarim!
Ko'kragingga nimaga sut kelmaydi,
Ochlikdan, enajon, ketdi madorim!

Hay darig'o! Rangim gulday so'lami?
Ulimning xanjari bag'rim tilami?
Tur joyingdan, mamma bergin enajon,
Yetganda yolg'iz bolang o'lami?

Chiqmaydi, enajon, nega bir so'zing?
Sabab nima, qop-qora bo'ldi gul yuzing?
Tur joyingdan, ko'krak bergin enajon?
O'lar bo'ldi Go'ro'g'libek yolg'izing.

Ochlik qursin, o'zim tortdim oh-u voy,
Qop-qora bo'p ketdi ena rangi-ro'y,
Tur joyingdan, ko'krak bergin o'g'lingga.
Bolam, deb oldingga olgin Hiloloy.

Tomosha qing, Go'ro'g'lining ishiga,
Mozorat titradi bu nolishiga,
Ochlik qursin, yomon ekan dunyoda.

Og'zini tamshanib, shunda Go'ro'g'li,
Tarmashibdi enasining to'shiga.
Och qoldim, deb ko'zda yoshin silaydi.

Kuygan odam gapni gapga ulaydi.
– Ko'krak bergin, tura kel¹, enajon,
Och qoldim, – deb mard Go'ro'g'li yig'laydi.
Voy ena, deb yosh bola chinqiradi,
O'lmagan, dunyoda davron suradi.
Emchak degan bachchaning nolishiga,
Titrab go'riston, larzaga keladi...

¹ Tura kelmoq – irg'ib turmoq.

Bir teshikdan go‘rning ichiga kunning shu‘lasi tushdi. Go‘ro‘g‘li kunning tushganini ko‘rib, qo‘li bilan ushlab olaman, deb kunga qo‘l urdi; ushlay olmadi, ushlayman, deb qo‘li go‘rning tepasiga yetdi. Tirmalab-tirmalab teshikki katta qilib, go‘rdan tashqari chiqib, hayron bo‘lib qoldi. «Bu nima degan sir bo‘lur?» – dedi. Och qoldim, deb go‘rga suyanib, yotib qoldi.

Buni ochlikdan yig‘lab yotmoqda qo‘yib, endi gapni Rustambekning baytalidan eshiting: bir baytalning bolasi o‘lib, bolasining o‘lganiga ichi kuyib, kishnab yurar edi. Go‘ro‘g‘li-ning oldiga kelib qoldi. Baytalning ko‘zi Go‘ro‘g‘liga tushib, mehri ko‘qragiga joy olib, unga suykanib emiza berdi.

Ana endi, Go‘ro‘g‘li shu baytalni emib, qorni to‘yib-to‘ymasday bo‘lib yura berdi. Baytal har kuni Go‘ro‘g‘lini uch vaqt emizib keta berdi.

Buning bilan Go‘ro‘g‘lining kuni o‘ta berdi. Go‘ro‘g‘li uch yasharida go‘rlarning ustida o‘ynab, u yoqdan chiqa, bu yoqdan chiqa: «Os!» «Bos!» – deb go‘rlarni tayoq bilan yanchib, o‘ynab yura berdi.

Rustambekning yilqichilari baytalning har kuni go‘rga qarab ketganidan xabardor bo‘lib yurar edilar. Bir kuni yilqibonlar: «Shu baytal har kuni mozorga qarab ketadi. Buni poylamoq kerak. Mozorga borib nima qiladi», – dedilar.

Shuytib o‘ttiz choqli yilqichi baytalning orqasidan poylab go‘ristonga keldilar. Haligilar go‘rning oldiga borib qarasa, bir bola baytalni emib turibdi. Baytal emchagini bolaning og‘ziga solib, iyib, emizib turibdi.

Bir-biriga:

– Ko‘rdingmi? Arvoh ham yalong‘och yosh bolaga o‘xshar ekan, arvoh ko‘rgan kasal bo‘ladi, – deb, hammasi birdan, bizlar arvoh ko‘rdik, endi o‘lamiz, deb qo‘rqib, kasal bo‘lib qoldilar.

Bularni bu turishda qo‘yib, endi Rustambekdan eshiting: Rustambek har kuni yilqichilariga non olib kelib berar edi. Bugun ham yilqichilarga non olib keldi. Kelsa, yilqichilaridan bir nechasi yo‘q. Qolganidan:

– Yilqichilar qani? – deb so‘radi.

Ular aytdi:

– Ulkan bir biya har kuni mozorga qarab ketar edi. Shu baytaldan xabar olamiz, deb mozoristonga borib edi. Go‘ristonga borib, baytalni bir arvohnning emganini ko‘ribdi. Shuytib, ularni arvoch uribdi. Mana, shu turgan yilqichi qo‘rqib, qochib keldi. Bu ham qo‘rqib, yuragi yorilguday bo‘lib yotibdi, – dedi.

Buni eshitib, Rustambekning yuragi «jiz» etdi. Rustam borib haligi yuragi yorilib ketganday bo‘lib yotgan yilqichilarni gapga soldi:

– Nima ko‘rdinglar? – dedi. Yilqichilar:

– Bizlar yap-yalang‘och bir arvochni ko‘rdik. O‘zi yosh bachchaga o‘xshaydi, – dedi «Es berganga dast berar, dast berganga, es berar», – deganday Rustambek mozoristonda bir go‘rning oldiga borib aytdi: «Bibi Hilol singlimning qornida bolasi bor edi. Shu tug‘ib, bola shundan bo‘lganmikin. Shu go‘r, singlim Bibi Hilolning go‘ri, o‘zim mana bu toshni qo‘yib edim. Shundan Bibi Hilolning go‘rini topdim», – dedi. Oqshom bo‘ldi Rustambek sahar vaqtida kelib go‘rni poylab yotdi.

Qarasa, Bibi Hilolning go‘ri yop-erug‘ bo‘lib ketdi. Shunda bir bola Bibi Hilolning go‘ridan chiqdi, juda suluv, quvi¹ o‘n to‘rt kunlik oyga o‘xshaydi.

Shunda bir sher mozoristonda yotgan ekan, bolaga qarab tashlandi. Shunda hazrati Xizr kelib sherni bir tarsaki urdi.

Sher nimta-nimta bo‘lib, tirqirab ketdi, Rustambek qo‘rqib arosat qilib:

– Shunday sherni bir tarsaki urib o‘ldirib, maydalab yubordi, mening nimia jonim bor, – dedi.

Uyiga qaytib keldi, kelib o‘ylab aytdi:

«Kel-e, bu shaharda musofir bo‘lib o‘lgandan, o‘z jiyanginamning qo‘lida o‘lganim yaxshi».

Rustambek, kelar oqshomi uch oshiq, bir qizil egar, yana bir-ikkita qo‘g‘irchoq, bir-ikki ro‘mol, uchta bolalar o‘ynaydigan soqqa oldi.

«Sinab bilayin, shu bola o‘g‘ilmikin, qizmikini», – deb egar bilan uch oshiqni bir yoqqa qo‘ydi. Ikki qo‘g‘irchoq bilan ro‘molni go‘rning bir yog‘i-ga qo‘ydi. Poylab yotdi.

¹ Ko‘rinishi.

Go‘ro‘g‘li go‘rdan chiqib, ro‘mollarga ko‘zi tushib, ro‘mollarni, qo‘g‘irchoqlarni yirtди. Ro‘moldan har xil-har xil bayroqlar qildi. Go‘rning bu yog‘iga o‘tdi, uch oshiqqa ko‘zi tushdi, qo‘liga olib, shu mozordagi o‘liklarning barini keldim, gartkam, deb oshiqni yerga tashladi.

Egarni minib, «Chuv-ha, chuv-ha, ot qo‘y, qaytma, boxabar bo‘linglar», – deb egarni asta-asta qimirlatib, go‘rdan ancha yerga uzoqlab ketdi.

Shunda Rustambek joyidan turib, tez chopdi. Go‘ro‘g‘li ham buni ko‘rib, go‘riga qarab chopdi.

Rustambek Go‘ro‘g‘lining go‘rga kiradigan yeriga yetib borib, yota ketdi. Go‘ro‘g‘libek go‘rga kirolmay, bir chinqirdi. Rustambekning yuragi yorilib, o‘lib qolay dedi.

Shunda Rustam bachchaga qarab bir so‘z dedi:

Buralib olib bo‘yningga qo‘lim solaman,
Harna bo‘lsam sening bilan bo‘laman.
Yig‘lama, chirog‘im, ko‘nglim buzildi,
Rostin aytсам, sening tog‘ang bo‘laman.

Boqqa kirgan olmalardan otarmish,
Suyungan qul murodiga yetarmish.
Bibi Hilol singlim bo‘ldi, chirog‘im,
Bir tog‘a – yetti ota bo‘larmish!

Ko‘nglimda bo‘lgan mening havomni,
Yo topmagayman dardga davomni.
Yig‘lama, aylanay tog‘ang bo‘laman!

Bibi Hilol qiyomatlik singlimdir,
Shuytib, keyin mozoratga kelganim.
Hay dardiga, rangi gulday so‘lganim!
Jiyanginam, birga yurgin uyima¹!

Ikki kun bo‘ldi, chiroqqinam, bilganim,
Yuragimda dard ko‘p, dardginam ol-ha,

¹ Uyimga.

Toqatim yo‘q bog‘larda gul ochilguncha,
Husningga qarayman, o‘zing bekbachcha,
Bo‘zlama, chirog‘im, yurgin uyima!

Go‘ro‘g‘li Rustambekdan bu so‘zni eshitib, go‘rga kirayin desa kirolmay, ilojini topolmay, xo‘rsinib, Rustambekka qarab bir so‘z dedi:

Yaxshilik ko‘r, yomonlikni ko‘rmagin,
Yo‘q, savdoni sen boshima solmagin.
Enam sho‘rdan duoyibad olmagin,
Kimam¹ bo‘lsang, keta bergin nariroq,
Zargar eldan kelgan taraf² bo‘lmagin!

Oqizma ko‘zimdan qonli yoshimni,
Qochirmagin aql bilan hushimni!
Hiyla bilan olib borib uyingga,
Kesib olma bu tanamdan boshimni!

Podsholardan kelgan josus bo‘lmagin,
Arvoh urgan bo‘lar yer bilan yakson,
Enam sho‘rdan duoyibad olmagin!

Tog‘am bo‘lsang, nega bunda kelmading,
Bunda kelib, mehri shafqat qilmading?

Hiloloyga o‘zing bo‘lsang emchakdosh,
Hech bo‘lmasa, bir hayitda kelmading.
Kimam bo‘lsang, qo‘ya bergin uyima!

Mard yigit dushmanning qonin to‘kardi,
Podsholar elidan olar navkardi³.
Har yiliga biror-ikki kelmading,
Nari qochgin, tog‘aliging bekordir.

¹ Kim ham.

² Dushman.

³ Navkarni.

Kuyib ketgan mening gulday enam bor,
Sut bilan siporish¹ qilgan siynam bor.
Tog'am bo'lsang, qo'ygin go'rga kirayin,
Go'r ichida yotgan munglig' enam bor!

O'lmasam, dunyoda davron surayin,
Ko'hi Qofdan gul bo'tani terayin.
Bu chuqurda yotgan g'arib enamdan,
Kirib turib, tog'aliging so'rayin.

«Ena rozi, xudo rozi» odamzod,
Enam javob bersa so'ngra borayin.

Bek Rustam shirin jonini sotdi,
Taram-taram ko'zlaridan yosh ketdi.
Kelmaganiga juda pushaymon qip,
Ol esa deb yotgan joyni bo'shatdi.

Go'ro'g'libek endi go'riga kirdi, ko'zidan yoshini to'-
kib, zor-zor yig'lab, Bibi Hilol enasiga qarab, bir so'z dedi!

Anal bilan Mansurga qurgan dormidi,
Tirik ayrilgan, bir ko'rgali zormidi,
Yur, chirog'im, deydi meni qo'ymaydi,
Senda aka, menda tog'a bormidi?

Yig'laganda yosh yog'ilar yuzima,
Quloq sol, enajon, aytgan so'zima,
Senda aka, menda tog'a bormidi?
Bir-bir bayon aylab bering o'zima,

Gap chiqadi menday erning tilidan.
Qutulmadik bu dunyoning xilidan
Bitta odam, tog'angman, deb so'zlaydi,
O'zi yolg'iz kepti Zargar elidan.
Senda aka, menda tog'a bormidi?

¹ Siporish – nasihat.

Bu gaplarni tinglab enajon,
Menga bering, bu soʻzlardin xabardi...

Ana endi, Goʻroʻgʻlibek tiklab qarasa, enasi Hiloloy
oʻlib, suyagi shovshib qopti¹. Goʻroʻgʻli buni koʻrib zor-zor yigʻ-
lab, enasiga qarab bir soʻz dedi:

Otim Goʻroʻgʻlidir olamga doston,
Ena ketar boʻldim, sendan ayrilib,
Qarchigʻaying boʻlay, guytik² enajon.

Yetimlikdan sargʻayadi bu raʻyim,
Qarindoshim yoʻqdir, bir duogoʻyim,
Endi ketar boʻldim sizdan ayrilib
Shunqoring boʻlayin, buyi gʻamguzorim.

Otim Goʻroʻgʻlidir olamga doston,
Hamma ham yolgʻonchi dunyoga mehmon.
Bu kundankay³ kunim qaytib oʻtadi,
Iskalab⁴ oldingga olgin, enajon.

Ololmaydi Goʻroʻgʻlining oʻzini,
Gʻam sargʻaytib Goʻroʻgʻlining yuzini,
Qorinlari hoʻl boʻp qoldi yoshiga.
Voy enam, deb oʻpkasini bosolmay,
Yigʻlab chiqdi mozorining boshiga.

– Yigʻlama, chirogʻim, – dedi Rustambek,
Bachchani quchoqlab oldi toʻshiga.
Mozorat titraydi nolishiga.
Kuyganidan gapni gapga ulaydi,
Mozoratning tuprogʻini silaydi.

¹ Qolibdi.

² Kuygan.

³ Kundan keyin.

⁴ Iskalamoq – qayta-qayta hidlamoq.

Go‘ro‘g‘li: «Enam», – deb,
Rustam: «Bovrim¹», – deb
«O‘lim qursin», – deyishib, bo‘zlab yig‘laydi.

Kuysin o‘lim, bandi-bo‘g‘ni bo‘shadi,
Rustambekning suyaklari shovshadi.
Go‘ro‘g‘li: «Enam», – deb,
Rustam: «Singlim», – deb,
Shu mozorda ikkovi yig‘lashadi.

Rustambekman² Go‘ro‘g‘li dod ayladi,
Gohi yig‘lab, gohi faryod ayladi.
Bilar-bilmas Qur‘on o‘qib ikkovi,
Hiloloyning arvohin shod ayladi.

Nodonlarni aslo qo‘ymang ra‘yiga,
Davlati bor yigit kelar ko‘yiga.
Voy enam, deb Go‘ro‘g‘libek bo‘zlaydi...
Rustambekning jigarlari ezilib,
Olib qaytdi Go‘ro‘g‘lini uyiga.

Sholchiq yerda oyoqlari toyrib,
May ichganday yuraklari moyrib
Go‘ro‘g‘libek: «Voy enam», – deb yig‘laydi,
– Enam, – dedi bo‘yni ortga qayrib.

G‘azoda³ bedovning dumi suzilib,
– Enam, – dedi narkislari ezilib,
– Yig‘lama, chirog‘im, – dedi Rustambek,
Rustambekning ko‘ngillari buzilib.

Rustambek, ukam, deb ko‘zin yoshladi,
Voy attang, deb barmog‘ini tishladi.
Uytib-buytib, zo‘rminan⁴ uyga yetdi.

¹ Jigarim.

² Rustambek bilan.

³ G‘azo (g‘azot) – urush, jang.

⁴ Zo‘rluk bilan.

Esli ekan Rustambekning xotini,
Go‘ro‘g‘lini shunday to‘shiga bosib,
Yetti qavat betiga to‘shak tashladi.

Ana endi Rustambek yig‘lay-yig‘lay, Go‘ro‘g‘lini olib keldi, Rustambekning xotini, erining yuz-xotirini qilib, o‘rnidan turib, «voy bolam», deb bag‘riga bosdi, quchoqlab ko‘kragiga oldi. Go‘ro‘g‘libek odam ko‘rgan emas, bir chinqirib yubordi. Rustambekning xotinining yuragi yorilib Go‘ro‘g‘lining bong urganiga yerga yiqilib ketayin deb qoldi. Rustambek, xotinimni jin urdimi, dedi.

Go‘ro‘g‘libek Rustambekning uyida osh ichmaydi, to‘n kiymaydi, bir narsa bersa olmaydi, Qo‘ng‘irboyni qo‘ymaydi, non yeb qorni to‘ymaydi. Rustambek aytsa, hech nimaga ko‘nmaydi.

Shunda Go‘ro‘g‘lining go‘r boshida oshiq o‘ynab bir toshni takya qilib, mozordagi o‘liklarni gardkam-gardkam, deb o‘ynagani Rustambekning esiga tushdi. Bir etak oshiqni olib kelib, Go‘ro‘g‘lining oldiga to‘kdi.

Go‘ro‘g‘li miyig‘idan kulib, uzalib¹, qo‘li bilan oshiq-larni oldiga tortib, yig‘ib oldi.

Shunda Rustambekning o‘g‘li Qo‘ng‘irboy ham uch yashar bo‘lgan edi.

Go‘ro‘g‘li Qo‘ng‘irboyni o‘zi bilan teng bir bola ko‘rib: «Bunda kel!» – deb imladi. Qo‘ng‘irboy Go‘ro‘g‘lidan qo‘rqib, hurkib o‘tirib edi. Go‘ro‘g‘lining kulganini ko‘rib, u ham kulib, Go‘ro‘g‘lining oldiga keldi.

Go‘ro‘g‘li haligi oshiqning yarmini Qo‘ng‘irboyga berdi... Ikki yosh bachcha, ikkovi birday bo‘lib, ochilgan gulday bo‘lib, sayragan bulbulday bo‘lib, bir-biri bilan so‘zlashib, oshiqni o‘rtaga tashlab o‘ynashib, ko‘chalardagi o‘zi bilan teng bachchalar bilan ham oz-mozgina talashib, so‘kishib yura berdilar. Oradan uch kun o‘tdi. Enasi esiga tushib, Go‘ro‘g‘libek Rustam tog‘asining oldiga yetdi. Shunda Rustambekka qarab Go‘ro‘g‘li bir so‘z dedi:

¹ *Uzalmoq* – qaddini ko‘tarib cho‘zilmoq.

Quloq soling, tog'ajon, gapning rostiga,
Ra'ying qo'ying, so'zimning payvastiga.
Uyginama¹ olib borsang, tog'ajon,
Hiloloyday enam tushdi esima!

Bu g'ariblik yurak-bag'rim yirtadi,
Boqqa kirgan olmalarni otadi.
Men enamni sog'inibman, tog'ajon,
Vatanima² olib borsang qaytadi³?

Yuraklarim bo'lib ketdi to'la qon,
Qiblagohim men enamni sog'indim,
Uyginama olib borsang, tog'ajon!

Eshit, tog'a, jiyaningning tilini,
Har bandaning xudo bilar holini.
Qiblagoh enamni yomon sog'indim,
Men bilmayman mozaratning yo'lini,
Siz singlingni, men enamni ko'rayin,
Yuring, tog'a, vatanima borayik!

Go'ro'g'lidan bu so'zni eshitib, Rustambekning rangi
gulday so'lib, ichi g'amga to'lib, enasining o'lganini bilmaydi,
deb Go'ro'g'liga tasalli berib, bir so'z dedi:

Mard kishi dushmanga qiladi qasddi⁴,
Yaxshi odam qiladikan havasdi⁵,
Yig'lama, aylanay ko'nglim buzildi,
Ota bilan ena o'lmak merosdi(r)!

Yig'laganning yoqasi ho'l yoshiga,
O'lgan odam hech bir tirilgani yo'q,
O'lgan ketar biz boramiz qoshiga.

¹ Uyginamga.

² Vatanimga.

³ Nima qiladi.

⁴ Qasdni.

⁵ Havasni.

Yig'lama, aylanay, bag'rim ezildi,
Ko'zlarimdan qator yoshim tizildi!
Yig'lama farzandim, ko'nghim buzildi!
Ko'ngin, bolam, xudoning qudratiga,
Bu qismatlar azal kunda sezildi!

Qaddimni qayirgan qaytayin dog'-a
Qarchig'ay selkillab qo'nar qarog'a
O'z kuyganim yetmasmidi o'zima,
Ota bilan ena o'lmak xasimdi.
Bo'yginangdan menday tog'ang sadog'a.

Kuyganidan gapni gapga ulaydi,
Ko'zda yoshin qo'li bilan silaydi.
Hiloloyni ko'p sog'ingan Go'ro'g'li,
Op borgin deb betoqat bo'p yilaydi¹.

G'am sarg'aytib tog'asining yuzini,
Merganlar otadi ko'lning g'ozini.
Go'ro'g'lining holiga qarab tog'asi,
Hay attang, deb to'xtatolmas o'zini.

Go'ro'g'lining o'pkasi shishib ketdi,
Rustambek behush bo'lib o'zidan ketdi.
Qo'ng'irboy bachchasi dod deb yig'lashdi.

«O'gayligi endi ma'lum bo'ldi», – deb
Go'ro'g'libek chiqib olib hovlidan,
Yig'lay-yig'lay ko'chalarda sarson bo'p,
Hilolning oldiga bolasi yetdi.

Ana shunda Go'ro'g'li: «Tog'am o'gaylik qildi, bo'lmasa meni enamning oldiga olib borardi», – deb yig'lay-yig'lay tog'asining uyidan chiqib, enasining go'rining boshiga bordi.

Rustambek behush bo'lib, yotib qolgan edi, Qo'ng'irboyning enasi, Go'ro'g'lining qayoqqa ketganini bilmay qoldi.

¹ Yig'laydi.

Aqli rasolarga ma'lum bo'lsinkim, har qanday odam bo'lsa ham, yoshi yetmay-ishi yetmaydi ekan. Go'ro'g'li enasi-ning o'lganini bilgan bo'lsa ham bolalik qilib, go'r boshida, o'lgan enasiga qarab: «Go'ringdan chiq», – deb bir so'z dedi:

Boqqa kirdim lola guldan tergani,
Ilojim yo'q tanda jonim bergani.
Uch kun bo'ldi, ena bejoy sog'indim,
Go'ro'g'liday o'g'ling keldi ko'rgani,
Bolam, deb oldima chiqqin, enajon!

Ko'p sog'indim yuraklarim bo'ldi qon,
Ko'chalarda bo'lib qoldim sargardon.
Go'ro'g'liday o'g'ling keldi sog'inib,
Turakay¹ uyingdan chiqqin enajon.

Iskalab bag'ringga olsang na bo'ldi?
Yig'lay-yig'lay ichim qonlarga to'ldi.

Esima tushganda qaddim bukildi,
Bolam, deb oldima kelgin Hiloloy!
Biror fasl, meni suysang na bo'ldi?
Tolpinib oldima chiqqin enajon!

Sarg'ayibdi Go'ro'g'lining siyog'i²,
Uyilibdi aning³ bodom qovog'i.
Joni bo'lsa chiqar edi oldiga,
Turolmaydi Hiloloyning tanasi.

Sarsarda ochilar tog'ning lolasi,
Kuymagay bandaning kulba xonasi.
Enajon deb mozoratda bo'zlaydi,
Hiloloyning go'rda topgan bolasi.

¹ Tura qol.

² Siyoq – bichim, tashqi ko'rinish.

³ Uning.

Enajon, deb yig'lay-yig'lay xo'rsinib,
Uyqu oldi Go'ro'g'lining ko'zini.
Har kim ko'ngli mard bilmaymi o'zini?
Rustam bosib qoldi izini.

Yurak-bag'rin bek Rustam tuzladi,
– Bir yalang'och bola bundan o'tdimi? – deb,
Ko'chadagi lopkonchilardan¹ so'rab
Go'ro'g'lining ketgan yo'lin izladi.

Izlagan banda murodga yetibdi,
Bek Rustam ko'p qayg'uni tortibdi.
Mozoratga borib ko'rsa Rustambek,
Ko'z yoshiga chakkalari loy bo'lib,
Pishillab Go'ro'g'li uxlab yotibdi.

Go'ro'g'lining holin ko'rib tog'asi,
Quchoqlab bachchani bag'riga oldi.
Chuchuk uyquda uxlab yotgan Go'ro'g'li,
Enajonim oldiga oldimi, deb
Voy ena, deb uyqusidan uyg'ondi.

Yomg'irman² bahra olar dashtning giyosi³,
Baland tog'da shunqor qushning uyasi.
Shundayin Go'ro'g'li tiklab qarasa,
Enasimas, olgan Rustam tog'asi!

Qo'rchoq uyilganga ko'ngil ko'nikdi,
Endi ketdi enasining havasi,
Qur'on o'qib, enasining ruhiga,
Olib qaytdi Rustambekday tog'asi.

Barakalla, Rustam to'g'riligiga
«Er xizmatdan topar ekan», – der gap bor.

¹ Yo'lovchilardan demoqchi bo'lsa kerak.

² Yomg'ir bilan.

³ Giyohi.

Shuncha xizmatlarni qilib Rustambek,
Rustam bo'ldi shu davlatning egasi.

To'g'ri yetar murodga, yomon qolar uyatga,
To'g'ri o'zar, egri to'zar, siring aytma yotga,
To'g'rilikdan Rustam yetdi murodga.

Ana endi Go'ro'g'li enasining o'lganini bilib qoldi.
Shunda Rustam:

– Bolam Go'ro'g'li, sening enang o'lgan, o'lgan odam go'rdan chiqmaydi, har nima bo'lsa ham Xudoning taqdiri shu, – dedi. Go'ro'g'liga ko'p nasihatlarni aytib, uyiga olib qaytdi. Go'ro'g'li, enam o'lgan ekan, deb umidini uzib Rustambekning uyiga keldi. Go'ro'g'li Rustambek tog'asining uyiga kelib, qo'yib ketgan yeridan oshiqqlarini topib, xit qilib, u yog'idan bu yog'idan yo'nib, Qo'ng'irboyni qo'ltig'iga olib, «Yur o'ynaymiz!» – deb ko'chalarga chiqib, bachchalar bilan oshiqni o'ynay berdi. Bir xillarini yutib oldi, bir xillarini zo'rlik qilib tortib oldi. Shuytib, har kuni yo'chalarda bolalarning oshiqqlarini yutib, zo'rlik qilib olib, urish qilib, yoqama-yoqa bo'lgan bolalarning qulog'ini ushlab yulib oldi, bir xilini ushlab bosib olib pichoq bilan tilib oldi, belgisi qildi.

Shunda haligilar: «Yaxshi bo'ldi o'ldirmadi», – deyihib quvonib qoldi. Yosh bolalar Go'ro'g'lidan qo'rqib, ko'chaga tirq etib chiqolmay qoldi.

Buni otalari eshitib, amaldor-hokimlari o'z o'rtalarida gap qildi. Yig'ilishib:

«Qani, Rustambekning oldiga borayik», – deb Rustambekning oldiga keldi. Rustambek davlatli bo'lib ketgan edi. Kelgan odamlarga har xil ziyofatdan qildi. Lekin bular, Rustambekning o'g'lini o'ldiramiz, deb kelgan edi. Buning ziyofat qilganidan dimog'i chog' bo'lib, ko'ngillarida o'ylab kelgan o'ylari ketdi. Shunda bular:

– Ey, Rustambek, bizning sizga aytadigan maslahatimiz bor, – dedi.

Rustambek:

– Nima maslahatlaringiz bor? – dedi.

– O‘g‘lingiz bir xil bolalarni urib, bir xilining qulog‘ini yulib, bir xillarini belgili bo‘lsin deb pichoq bilan qulog‘idan tilibdi. Shu qilgan ishi hamma katta-kichikka so‘z bo‘libdi, Zargar shahriga bu ishlar qattiq tegibdi, – dedi. «Bor maqtansa topilar, yo‘q maqtansa choyilar».

Ana shunda Rustam:

– Sizlar mehmon bo‘lib kelgan ekansizlar desam, talab qilib kelgan ekansizlar, – dedi. Bir la‘li tillani olib kelib, shu o‘ltirgan amaldorlarning oldiga qo‘ydi, Haligilar, bor bilan kim barobar bo‘ladi, deyishib, aytganiga pushaymon qilishdi. «Bu Rustam boydir, har yerda boyligidan bizlarga zo‘rlik qiladi», – deb pulni olmay qaytib ketdilar.

Bularni ketmoqda qo‘yib, Go‘ro‘g‘lidan eshiting:

Go‘ro‘g‘li xatni o‘qimoq, yozmoqni bilar edi. Bir kuni Go‘ro‘g‘li qog‘ozlarga yozdi:

«Har kim oq kiyim kiyib kelsa indamayman, qora kiyim kiyganni so‘yaman. Lekin bir kun Shohdorxon podshoning ustiga olovlar qo‘yaman, oq kiyganlarga oq palovlar qo‘yaman, qora kiyganlarga ko‘p g‘avg‘olar solaman».

Go‘ro‘g‘lidan qo‘rqqani oq kiyim kiyib chiqadi, qo‘rqmagani, buni eshitmaganlar qora kiyim kiyib chiqsa, urib, so‘kib, quvib, yetganining qo‘llarini burab, shol qiladi; yetolmaganlarining uyiga besh-olti tosh otib, qaytib keladi.

Lekin Go‘ro‘g‘li urish qila bersa, Qo‘ng‘irboy:

«O‘ldi-yoy-o‘ldi-yoy!» – deb past ko‘chalar bilan yo‘lni chap berib, qochib kelib otasi Rustambekka ko‘rgan va bilgan ishlarini:

«Ota, Go‘ro‘g‘li shunday ishlar qildi», – deb aytadi.

Shunda Rustambek:

– G‘am yema, sen ham Go‘ro‘g‘li bilan birga yursang bo‘lmaymi? – deb ko‘p nasihatlar qiladi. Shunday bo‘lsa ham Qo‘ng‘ir qo‘rqadi, uyning to‘riga o‘tib yotadi. Go‘ro‘g‘lining zo‘rligi Zargar shahriga o‘tdi.

Shunda bolalar: «E Rustambekning o‘g‘li qursin, urishib yuramizmi, ko‘chaga chiqmaymiz», – deb ko‘chaga chiqmasdan qo‘ydi.

Oradan to‘rt yil o‘tdi. Go‘ro‘g‘li yetti yoshga kirdi. Ana

shu kuni Go'ro'g'li Rustambekning oldiga keldi, oqshom uning oldida yotdi. Erta bilan o'rnidan turib, Qo'ng'irboyini olib ko'chaga chiqib: «Senga bir narsa ko'rsataman», – dedi. Qo'ng'irboy Go'ro'g'lining ko'zidan qo'rqib, meni ham urib o'ldiradi, deb qo'rqqanidan birga jo'nay berdi. «Go'ro'g'lidan ayrilma, bor», – deb Rustambek nasihatni qila berdi. Go'ro'g'li bilan Qo'ng'irboy ko'chaga chiqib qarasa, bir bola turibdi, otasining otini Badkir polvon, der edi. Shohdorxon podshoning oldida bundan o'tar polvon yo'q edi. Shohdorxonga birinchi polvon edi. Turgan bola shuning o'g'li ekan, otini Go'sfand to'ra, der edi. Go'ro'g'li shu bilan oshiq o'ynab qoldi. Go'sfand to'ra Go'ro'g'lining oshig'ining barini yutib oldi. Shunda Go'ro'g'lining burni picha terlab oldi. [O'zbekning achchig'i kelsa, uyalsa burni terlaydi.] Go'ro'g'li yuttirganiga chiday olmay uyalib, achchig'i kelib qolib:

– Mening oshig'imni ber, – dedi.

Go'sfand to'ra:

– Men sen aytgan bachchalaringdan emasman, – dedi.

Go'ro'g'li:

– Bermaysanmi? – dedi.

Go'sfand:

– Bermaganda qaytasan¹, enangni... – dedi.

Buni eshitib, Go'ro'g'lining achchig'i kelib, bir tarsaki urdi. Go'sfand to'raning ikki ko'zi irg'ib chiqib ketdi. Dod, deb uyiga ketdi, zor yig'lab otasiga aytdi. Badkir tilla soqqadan bo'lgan oshiqni qo'lga olib, Go'ro'g'lini aldab, ushlab olib kelay, deb Go'ro'g'lining oldiga yaqinlab yetdi.

Go'ro'g'li Badkirning tarziga qarab, afti-basharasini ko'rib, o'ylagan o'yini bilib, bir so'z dedi:

So'ylaydigan bu suyaksiz til bo'lsin,
Yurgan joyim shahri Zargar, el bo'lsin!
Ajral haydab sen bunda kelasan,
Gapir, Badkir dushman, senga yo'l bo'lsin?

¹ Nima qila olasan.

Endi senga qattiq o'ylar mo'l bo'lsin,
So'naning qo'ngani Oydin ko'l bo'lsin!
Ajaling yetadi mening qo'limdan,
So'ylagin, tarafim¹, senga yo'l bo'lsin?

Avvalambor, bir baloni qilasan,
O'ylab tursam ko'p gaplarni bilasan,
Gapir, Badkir dushman, senga yo'l bo'lsin?

Uzundi, qisqadi to'nlar mo'l bo'lsin
Ajdarho nishonim, senga yo'l bo'lsin?

Ana endi buni eshitib, Badkir Go'ro'g'liga qarab bir.
so'z dedi:

Yurgan yerim bo'tako'zli² jo'nag'ar,
Panjam yotsa³, burningdan qon oqar,
Oltin soqqa tilla, bu yo'l yutasan,
Oshiqni men bilan o'yna, enag'ar.

Meni yutsang, murodingga yetasan,
Agar yutsang, o'zing boy bo'p ketasan.
G'ijir-g'ijir kela kelgin yosh bachcha,
Qani, ko'ray qaytib⁴ meni yutasan?!

Go'ro'g'libek yana vaqtin xushladi,
Boshin chayqab barmog'ini tishladi.
Qo'ng'irboyni podachi qip, Go'ro'g'li,
Olchixezni⁵ o'rtalikka tashladi.

Jo'ylagin, deb bir-biriga so'yladi,
Go'ro'g'li belin mahkam boyladi,

¹ Dushmanim.

² Bo'tako'z – binafsha yoki havorang gulli bir yillik begona o't.

³ Panjam yotsa – mushtim tugilsa.

⁴ Qanday.

⁵ Oshiq (o'yinchoq).

Ul Badkir polvonga navbatni berdi,
Andankay¹ Go'ro'g'li cho'lab tayladi².

Gohi o'ynab vaqtlari xush bo'ldi,
Qo'ng'irboy ko'zidan to'kkan yosh bo'ldi.
Qiziqishib ikkovlari o'ynadi,
Kunning o'zi endi rosa tush beldi³.

Badkir degan shirin jonini sotdi,
Go'ro'g'li o'zbeki qiziqib ketdi.
Ayni peshin bo'lganda Badkir polvon
Bittasini qo'ymay bachchani yutdi.

– Oshig'imni bergin, qizig'ar, – dedi,
Go'ro'g'li qo'lga tarmasha ketdi.
Kengash chiqar o'zbeklarning biyidan,
Yosh bolaning picha qaytar ra'yidan.

Vag'irlashib o'zbek urishin qilib,
Go'ro'g'li baqirib turdi joyidan.

Ana shunda, Go'ro'g'li Badkirga tarmashib turib, kallasi bilan Badkirning iyagiga bir shoxladi, tishi-tilini cho'rtta qirqib o'tdi: Qoraharday cho'ngkirab⁴ qoldi, olaqaroq bo'lgan tanaday murkirab⁵ qoldi, Go'ro'g'li, Badkirning qo'lidan ushlab bir zo'r bilan qo'lini yag'rini bilan yulib oldi. Qaytarib, o'z kaltagi bilan o'zini yelkasiga bir oshirib soldi. Badkirning suyaklari yerga naqsh bo'ldi, badanlari ayron solgan tulupday⁶ mayda-mayda bo'ldi, serrayib uppa-uzun bo'lib, o'lib qoldi.

Buni ko'rib, Qo'ng'irboy borib Rustambekka aytdi.

Ana endi Go'ro'g'li Badkirni o'ldirib, Badkirning oshig'ini o'lja qilib oldi. Badkirning chinodig'iga soldi. Dimog'i chog' bo'lib, orqalab oldi. Bibi Hilol enasi esiga tushib, Go'-

¹ Undan keyin.

² Tashladi.

³ Tush paytining o'rtasi.

⁴ G'uldurab

⁵ Yiqilib.

⁶ Tulup – hayvonlarning yormasdan shilib olingan meshsimon terisi.

ro‘g‘li go‘rga qarab oshiqni ko‘tarib, enasining mozoriga yetdi.

Duoyi fotihalar qilib, o‘ylab aytdi: «Tuyasi bor tuya so‘yadi, qo‘yi bor qo‘y so‘yadi, biyasi bor biya so‘yadi, men kambag‘al bo‘lsam, mening borim shu», – deb qo‘lidagi bir to‘rva chinochiqdagi soqqa va oshiqnlarni oldiga olib, o‘z qo‘li bilan tilla soqqasidan, oshig‘idan har bir go‘rning kattasiga kattaroq, kichkinasiga kichikroq qo‘ydi. Go‘ristondagi hamma go‘rlarga oshig‘i yetib, o‘nta oshig‘i ortib qoldi. Go‘ro‘g‘li yetdi, deb dimog‘i chog‘ bo‘ldi. Badkir bilan o‘ynab charchab qolgan edi, uxlab qoldi.

Buni uxlab qolmoqda qo‘ying, endi Badkirning qavmi-qarindoshlaridan eshiting.

Badkirning qarindoshlari Badkirning o‘lganini bilib, endi to‘plarni olamiz, to‘p bilan urib Rustamning uy-anjomlarini tep-tekis qilib uyiga o‘t qo‘yib, Badkirning bir qoni uchun, Rustambekning o‘g‘lini, o‘zini, xotinini, Go‘ro‘g‘lini – to‘rt-tovini o‘ldiramiz, deb maslahat qildilar. Zargar shahrida ko‘p g‘ala-g‘ovur, talato‘p bo‘ldi.

Bularni bu yerda, shu maslahatda qo‘ying, Go‘ro‘g‘lidan eshiting:

Go‘ro‘g‘li otasining yurtiga ketar bo‘lib, yig‘lab Rustambekning qoshiga bordi.

Go‘ro‘g‘libek zor-zor yig‘lab, mozoratdan qaytib, Rustambek tog‘asiga qarab, gardanini xam qilib, qo‘lini lom qilib, fотиha bering, deb bir so‘z dedi:

Zargarning elnda bo‘ldim sargardon.
Tog‘a bo‘lsang aytgin, avlod-ajdodim,
Urug‘imni endi bayon bergin, tog‘ajon!

Yo‘liqmayin zolimlarning qahriga,
Ot chidamas achchiq qamchi zahriga.
Yaxshi-yomon sizing bilan gaplashdik,
Talab qildim men otamning shahriga.

Olisdan ko‘rinar bedovning bo‘zi
G‘anqillab uchadi ko‘llarning g‘ozi.

Ketar bo'ldim endi, Yovmit shahriga,
Tog'a, bo'ling Go'ro'g'libekdan rozi!

Yigitni kuydirar suluvning so'zi,
Qoshi qora, sho'r daryoning qunduzi.
Ketar bo'ldim, men otamning yurtiga,
Tog'a, bo'ling endi mendan rozi!

«Ona rozi, xudo rozi», – tog'ajon,
Tog'a bo'ling jiyanginandan rozi!

Tog'asiga Go'ro'g'libek so'z aytdi,
Yig'lamay qaytayin, qismatlar qatti(q).
Mehr qo'yib qolgan ekan, Rustambek,
Bu so'zni Go'ro'g'lidan eshitdi.

Behush bo'lib, bechora o'zidan ketdi.
O'g'lidan ziyod ko'rardi Rustambek,
Uch yuz oltmish bo'g'inlarin bo'shatti.
Hoy attang-a, dardlar dardga ulashdi.

Bu so'zlarni eshitib Go'ro'g'lidan,
Bek Rustambek hisobidan adashdi,
Ham Qo'ng'irboy, ham chechasi yig'lashdi,
Go'ro'g'luga, ketmagin, deb tirmashdi,
Yig'lay-yig'lay barin o'pkasi shishdi.

Endi Rustambek boshidan o'tgan sir-u asrorlarni bayon
berib, bir so'z dedi:

Xudoning ishini endi netayin,
Sen ketgan so'ng, xunobalar yutayin.
Sen bo'lg'in yegan-ichganga rozi,
Sakkiz yillik eski gapdan aytayin!

Yig'layman o'z holimga zor-zor,
Mening joyimdan – Xorazm elidan,

Karvon bilan kelib edim ergashib.
Gajdumbekka bo‘lib edim xizmatkor!

Bu so‘zima quloq solgin jiyanim,
Bachchalik qip, aqling ketmasin shoshib.

Eshitgin chirog‘im, mendan bu dotti¹,
Yig‘lamay naylayin qismatlar qatti(q).

Bu dardimni senga aytay chirog‘im,
Bir bedov otang bilan tog‘ang boqdi.
Sovutib, minishib oldi beliga.
Boshini olib, qutqarishib ikkovi,
Yovmitning eliga qochishib ketdi.

Bibi Hilol enangizni bo‘zlatdi,
Yeganima rozi bo‘lgin, Go‘ro‘g‘li,
Bu davlatlar tog‘angizning davlati.

Bir kunlari keldim Zargar eliga,
To‘p-to‘p bo‘p, dushmanlar qip maslahatni:
«Hiloloyini o‘ldiramiz», – deyishib,
«Ustiga olovlar qo‘yamiz», – deyishib.

Bu gaplar jonimdan o‘tdi, farzandim,
Shuytib qoldi, enang sho‘rlik adashib.
Yig‘lay, yig‘lay enangning o‘pkasi shishib,
Ham akadan, ham yoridan ayrilib,
Enang qopti hisobidan adashib.

Boshima to‘kildi daryoyi ummon,
Eshitgan so‘ng bo‘ldi qiyomat zamon.
Qiyomatlik singlim, deb enangni,
Shundan keyin bo‘lib edim qadrdon.

Meros halol olib ketgin molingni,
Men bandaman, Ollo bilar holimni.

¹ Dodni.

Eshitgin, chirog'im, tog'ang tilini,
Olib ket, Go'ro'g'li, barcha molingni!

Yasovda¹ pand berar otning mayibi,
Qo'llagay yigitning piri-g'oyibi,
Men senga rostini aytsam, Go'ro'g'li,
Sen bo'lasan, bu davlatning soyibi.

G'o'ladandi² yugruk otning to'qasi,
Yovda qaynar mard yigitning miyasi.
Ketar bo'lsang, olib ketgin, Go'ro'g'li,
Sen bo'lasan bu davlatning egasi!

Ko'rar bo'lding endi Yovmit elingni,
Zor yig'latding Qo'ng'irboyni – ulimni³
Yegan-ichg'anima sen bo'lgin rozi,
Haydab ketgin yig'ishtirib molingni!
Tuyalarga ortib ketgin pulingni!

Otangning otini deydi – ko'r Ravshan,
Tog'angning otini deydi – Gajdumxon.
Yoppa-yovlik, olib ketgin molingni!
Eson-omon ko'rsang ota yurtingni,
Har zamonda ko'rib ketgin holimni!

Ana endi Go'ro'g'lining ko'ngli Rustambek tog'asidan
to'ldi, dimog'i chog' bo'ldi. «Barakalla, Rustambek tog'a», –
deb bir so'z dedi:

Bedov mingan uydan qirga chopilar.
Nur ko'rganlar avliyoga topinar.
Eson-omon borsam ota yurtima,
Yovmit eldan arkon davlat topilar.

¹ Yasov – 1) harbiy saf; 2) jang, urush.

² G'oladandi – g'o'ladandir – 1) bronza; 2) g'o'la shaklida quyilgan oltin, mis, jez; eritilgan yaxlit metall.

³ O'g'limni.

Yovning kuni beklar qalqon chopilar,
Yuraklari misli o‘tday qobinar¹.

Eson-omon borib ko‘rsam otamni,
Shuncha davlat Yovmit eldan topilar.

Yetti yil bo‘lganman Zargarda mehmon,
Omonatdi bu tanamda gartak jon.
Eson-omon topsam Turkman shahrini,
Arkon davlat ota yurtida farovon.

Dushman ko‘pdi, aqlimni shoshirdim,
Azizlardek oyog‘ingga bosh urdim.
Ko‘nglim to‘ldi gaplaringga, Rustambek,
Tog‘a, davlatimni sizga topshirdim.

Oftoblar qaynatar cho‘lda miyani,
Biron nusxa olib ketay o‘zingdan,
Op kelib ber, o‘zim emgan biyani.

Anjom-asboblarni sizga topshirdim,
Sirim aytmay g‘animimdan yashirdim.
El ko‘chirib Ola tog‘dan oshirdim,
Ulug‘ dedim ostonangga bosh urdim.

Otam desam, rangim gulday so‘ladi,
Cho‘llarda ahvolim qanday bo‘ladi?
Bir xonazot olib ketay uyurdan,
Yovmit borsam, bizga belgi bo‘ladi.

Chini bilan duo qiling, tog‘ajon,
Bu yetimlik meni qildi sargardon!
Omon-eson elga borsam begumon,
Ota yurtga eson borsam bo‘ladi.

¹ Qobinmoq – qizimoq, tutamoq, alanglamoq.

So'nalar loylaydi chalqigan¹ ko'lni,
Xayr qildi Rustambekka ko'p molni,
Moli dunyo ko'rinmaydi Rustamga,
Ushlab oldi Rustam tarlon baytalni.

O'tar dunyo qiyomatni o'yladi.
Olib kelib Go'ro'g'lining «enasin»,
Yakka mixga² bek Rustambek boyladi.
– Mana kiyib ket, – deb Rustambek,
Qo'ltiq-qo'ltiq to'nlar op kep tayladi.

Ana endi Go'ro'g'li ketganday, oy botganday, Rustambek dunyodan o'tganday. Rustambek shunday qarasa, Go'ro'g'li o'n besh kunlik oyday, qaddi-qomati, shoni-shavkati, har kishining bo'lar ekan o'ziga yarasha hurmati. Buni bu ahvolda ko'rib, Rustambek Go'ro'g'liga bir so'z dedi:

Bolam, ketsang aqlimni shoshirdim,
Sirni aytmay g'animlardan yashirdim.
Eson-omon borgin Turkman yurtiga,
Bor, Go'ro'g'li, bir Olloga toshpirdim!

Sog'-salomat ko'rgin ota yurtningni.
Safaring, chirog'im, bexatar bo'lsin!

Qo'ng'irboyman chechasi bo'zlashadi,
Rustambekning endi aqli shoshadi,
Quchoqlashib, iskalashib hammasi,
Yarim kecha, «Attang!» «Attang!» – deyishadi.
Zor yig'lashib, uchchovlari ko'rishib,
Yarim kecha yo'lni o'nglab Zargardan,
Go'ro'g'lini chiqaripti Rustambek.

Go'ro'g'li: «Kiyim olmayman, kiyim kiymayman», – deganda Rustam fig'on bo'ldi. Rustamning xafa bo'lganini bilib:

¹ Chalqimoq – to'lib-toshmoq.

² Yakka mix – ot bog'lash uchun yerga ko'milgan kapa qoziq.

«O‘zim kiymasam ham, birovga berib ketarman, och-yalang‘ och dunyoda ko‘p», – deb tog‘asining bergan kiyimidan bir bo‘xchasini bir qo‘ltiq qilib olib ketib edi.

Alqissa, Rustambek yarim kechada Go‘ro‘g‘lini jo‘natib uyiga qaytib keldi. Uyida yotdi, erta bilan tong otdi, Rustambek o‘rnidan turib qarasa, tevarakni lashkar bosib ketipti.

Shunda lashkarlar birdan:

«Chov!» – deb kelib Rustambekni bandi qilib, Shohdorxonning oldiga to‘g‘ri qildi.

Shohdorxon:

– Ey, Rustambek, avlod-ajdodlaring qani? – dedi.

Rustambek:

– O‘zimning o‘g‘illarim uyda, – dedi.

Shohdorxon:

– Janjalchi, odam o‘ldiradurgan o‘g‘ling qayoqda? – dedi. Rustambek:

– U mening o‘g‘lim emas? – dedi. Shohdorxon:

– U kimning o‘g‘li? – dedi. Rustambek:

– U Ravshanbekning o‘g‘li. Enasining qornida qolgan edi. Bibi Hilol o‘lgandan keyin olib borib ko‘mib keldim. Oradan uch yil o‘tdi. Bir kun mozoristonga bordim. Bibi Hilolning go‘ri oldida yotgan ekan. Savob-da, deb uyimga olib keldim. Oradan to‘rt yil o‘tdi. Kishining bolasi edi. Kecha namozgar Yovmitga ketdi, – dedi.

Shohdorxon:

– Hay attang, sohibqiron edi, bilmabsizlar, – deb hamma folchi-rammolarini¹ va munajjimlarini dorga tortdi. Rustambekni rost so‘zlagani uchun Shohdorxon ozod qilib yubordi.

Rustambekni ozod bo‘lmoqda, Shohdorxonni rammolarini osib o‘ldirmoqda qo‘yib, Go‘ro‘g‘lidan eshiting:

Go‘ro‘g‘li yarim kechada emgan biya «enasini» yetaklab, Zargardan chiqib, yo‘lga tushib keta berdi.

Go‘ro‘g‘li o‘z ahvoliga va zamonning o‘tishiga qarab, keta berdi.

¹ Rammo – folbin.

Ochilar bog'ning guli,
So'ylar tanglaydi tili.
Yovmit eliga jo'nadi,
Bibi Hilolning uli.

Rahm aylagay yoshiga,
Ko'nib Haqning ishiga.
Go'ro'g'libek jo'nadi,
Er Xizrning dashtiga.

Qulo cho'lda so'zlaydi,
Bo'taday bo'p bo'zlaydi.
Go'ro'g'liday bekbachcha,
Yovmit elni izlaydi.

Tovus yotar qiyada,
Bo'z tarlonlar uyada.
Go'ro'g'libek jo'nadi,
Kecha bilan ham kunduz,
Borayotir piyoda.

Mulla o'qir zabardi¹,
Usta olar tabardi².
Yura-yura bachchaning
Oyoqlari qabardi.

Qirdan oshib yugurib,
Qaddi yoyday bukilib.
Qulo cho'lda yo'l yurdi,
Tirnoqlari to'kilib.

Yuragida ko'p o'yi.
Sarg'ayib rangi-ro'yig
Tag'i bir oy yo'l yurdi,
Yo'lning, suvning gadoyi.

¹ Arab alifbosi nazarda tutilmoqda.

² **Tabar** – yarim doira shaklidagi boltasimon qurol.

Shoh oldida shohteri,
Elga ko'pdi qadri,
Jo'nay berdi cho'llarda,
Yovmit elning botiri.

Bu damlar g'animatti,
Yetaklab baytal otti.
Qulo cho'lda yo'l yurib,
Og'zi-burnidan chang ketdi.

Suvning qadri o'tdi,
Yo Xizr, pirim deb,
Bachcha o'zidan ketdi.

Ochilmadi lolasi,
Oqdi ko'zning jalasi,
Cho'lda qoldi tashnalab,
Ravshan ko'ring bolasi.

Tumshug'i ho'l yoshiga,
Tomosha qil, tarlon baytal ishiga,
Guldirab, guldirab jonvor kishnaydi.

Soya solib Go'ro'g'lining boshiga.
Cho'l titraydi biyaning nolishiga.

Bek bo'lganning bo'lmas ekan havosi,
Topilgay-da endi dardning davosi.
Go'ro'g'li shunday tashnalab qolganda,
Bolam, deb keldi er Xizr bobosi.

Xushvaqtman¹ o'tkarsin qish-yozini,
Shoirilar qo'liga olar sozini,
Og'ziga bobosi andak suv soldi,
Go'ro'g'li shu zamon ochdi ko'zini.

¹ Xursandchilik bilan.

Go'ro'g'libek ko'zini ochib qarasa, ikki yigit kelayotibdi. Juda yuvingan, tarangan, shohona sarpolarga o'ralgan. Qo'lida qarchig'ay qush, oldida qush uchiraturgan kuchuk, Go'ro'g'libek kelayotgan bekbachchalarga qarab, bir so'z dedi:

Bog'da ochilgan gul g'unchalar,
Gulga yarashgan nimchalar¹,
Ikki birday bekbachchalar,
Qayerda Yovmitning eli?

Mingan oti to'bichoqlar²,
Yonida tilla pichoqlar,
Ikki birday qo'zichoqlar,
Qayerda Turkmaning eli?

Bir-biridan ozodalar,
Kiyganlari tozadalar,
Bedov mingan xonzodalar,
Qayerda Yovmitning shahri?

Mingan oti to'bichoqlar,
Nayzada zarrin chochoqlar³,
Ikki birday g'o'chchoqlar⁴,
Qayerda Yovmitning eli?

Menman⁵ siynasi dog'lar,
Boqchasi bo'ston bog'lar,
Bedov mingan bek o'g'illar,
Qayerda Yovmitning eli?

Belida tilla kamarlar,
Boshida mayin dastorlar⁶,

¹ Nimcha – endi ochila boshlagan g'uncha.

² To'bichoq – o'ynoqi ot.

³ Chochoq – popuk.

⁴ G'o'chchoq – mard, azamat, pahlavon.

⁵ Manman.

⁶ Dastor – salla.

Chakkaga qo‘ygan shunqorlar,
Qayerda Yovmitning eli?

Toza gulday navjuvonlar¹,
Tarafi² yo‘q pahlavonlar,
Yo‘ldan kelgan begumonlar,
Qayerda Yovmitning eli?

Oqqan ko‘zdan qonli yoshlar,
Ot chopsa changiydi dashlar,
Qo‘lingda tolpingan qushlar,
Qayerda Turkmanning eli?

O‘zing bir elning bekszoti,
Yuragimda ko‘p darddi(r),
Ikki birday el xonzodi,
Qayerda Turkmanning eli?

Ikki bexzoda bu so‘zni eshitib, tilla uzangiga oyoqni tarab, murtini burab, otning tizginini ushlab, o‘zini qiyshaytirib egarning bir yog‘iga tashlab, Go‘ro‘g‘liga shunday tiklab qaradi. Birining oti Qolibek, birining oti Bollibek, ikkovi shunday Go‘ro‘g‘liga qarasa, Go‘ro‘g‘lining jandasi³ shalvirab turibdi. «Jenama qadam, yengi yo‘q, yetimlikdan kami yo‘q, hech odam buning bilan tengi yo‘q».

Haligi ikkovi: «Har nima bo‘lsa, Xudoning bandasi-da, kel-e, buning so‘ziga javob berib ketayik», – deb Qolibek Go‘ro‘g‘liga qarab bir so‘z dedi:

Bu yog‘i Asqarning beli.
Past yog‘i Xuroson ko‘li.
Qaydan kelding, yetim bachcha?
Ana shu, Turkmanning eli!

¹ Navjuvon – 1) yosh yigit; 2) o‘spirin.

² Dushmani.

³ Janda – qalandarlar to‘ni.

Bulbullar sayraydi bahri¹,
Beklarning kelmasin qahri,
Turkman elni bilmasang,
Mana shu, Turkmaning shahri!

Ochilar bog'larda g'uncha,
Yurakda dard-u g'am ancha.
Turkman elin bilmasang,
Turkmanga kelding, yosh bachcha!

Yaxshiga xizmat qilmagan,
Ota-enasin ko'rmagan.
Ana shu, Yovmitning shahri!
Yovmit elini bilmasang,
Ana shu, Yovmitning eli!

Bu so'zni aytib, ikki bekdoda otini burib, o'z yo'liga qarab keta berdi.

Go'ro'g'lining achchig'i kelib, yerdan bir toshni uzalib oldi, haligi ikki bekdodani urmoqchi bo'ldi. Yana o'ziga-o'zi: «Shamolli kun chaqirma, so'zing zoye ketdi, – deb tasalli berib, – bu ikkovi takabbur, mal'un² sifatli, g'ofil bo'lgan, puliga quvongan, beva-bechora, yetim-esir kambag'alni pisand qilma-gan, to'q ho'kizga o'xshab, yugurib yurganlardan ekan. Baxtim kulsa, bir kuni jazosini beraman», – dedi.

«Endi menga, o'zimday bir g'arib yetimni topib, so'ramoq lozim bo'ldi», – deb shaharga qarab keta berdi.

Buni ketmoqda qo'yib, endi gapni Gajdumbekdan eshiting.

Gajdumbek Taka yurtidan to'qson bekbachcha bilan Ravshan ko'rni ko'raman, deb Yovmitga kelgan edi.

Urayxon podsho Gajdumbekni ziyofat qilgan edi. Urayxonning aytuvi bilan Gajdumbek bir choyxonada ikki yuz choqli bekbachchalar bilan tomosha qilib o'ltirgan, hali Ravshanbekni borib ko'rgan emas edi. Lekin Ravshanbek

¹ G'azalni.

² La'natlangan.

o'ltirgan saroy ham shu yerga yaqin edi. Gajdumbek keladi, deb Ravshanbek ko'r ham saroyning hamma yerini shiپirtirib, suv sepib, gilamlar bilan yasattirib qo'yib, ko'z tutib, quloq solib o'ltirib edi.

Go'ro'g'libek shu shaharga kelguncha biror odamni topmay, o'z tengini ko'rmay kela berdi. Shaharning bir yeriga kelsa, odamlar to'p-to'p bo'lib, ko'cha bilan bir yoqqa ketib borayotibdi. Shunda Go'ro'g'li aytdi: «Bular bir joyga – to'yga yo azaga, yo bir ziyofatga, yo biron yaxshilik yerga borayotibdi. Kel-e, men ham shu yerga shular bilan borayin, tomoshasi bo'lsa ko'rayin, ziyofat, to'y, xudoyisi bo'lsa xalq qatori haqimni yeb, indamay tomosha qilib yaxshi-yomonni bilayin; agar meni yetim, deb ko'zga ilmay, qaramasa, tengligimni bermasa, mushtga xarxasha qilib, besh-oltitasining kekirdagini uzib, ajali yetganlarini o'ldirib, o'zimni bularga tanitayin». Odamlarga ergashib, bu ham ularning orqasidan keta berdi. Ketayotgan kishilar o'tib ketdi. Go'ro'g'li bir ko'rning oldiga yetdi, uni ko'rib, Go'ro'g'lining a'zoyi badani mumday erib, qo'rg'oshinday balqib ketdi. «Kel-e, ko'rni ko'r biladi, zo'rni zo'r biladi, ko'zdan ayrilgan ko'rning ko'ngli g'arib bo'ladi, shundan otamni so'rab, bir so'z aytayin», – dedi. Go'ro'g'li qarasa, haligi ko'r qizil yuzli, yuzlaridan nur tomgan, maloyika tal'atli, hur kelbatli, sher sifatli, ko'zidan boshqa yerda sin yo'q, martabali, ulug' odam ekan.

Shunga qarab, Go'ro'g'li bir so'z dedi:

Assalomu alaykum turgan, bobojon,
Yo'qchi bo'lib keldim Turkman eliga.

G'ofil qolib, karvonimni ko'chirdim,
Nechovlarga ajal sharbat ichirdim,
Yo'qchi bo'lib keldim, bobo, elingga.

Bir shunqorman, qarchig'ayni qochirdim,
Qutulmadim g'ariblikning dardidan.
Yaxshi odam toymasin davlatidan!
Yo'qchi bo'lib keldim, bobo, shahringga.

Izlab keldim, shunqorimning ortidan,
Men sayyodman, shunqorimni, ko‘rdingmi?
Yaxshi so‘zla, quloq solay tilingga,
Xudo rahm aylasin, bobo, joningga!

G‘ayri yurtidan qarchig‘ayimni so‘rab
Izlab keldim, bobo, Turkman eliga.

Go‘ro‘g‘lidan bu so‘zni eshitib, oh tortib: «Sen kimsan, qaysi eldan kelding, kimni so‘raysan?» – deb Go‘ro‘g‘liga qarab, bir so‘z dedi [Ravshan]:

Dushman qursin ko‘zginamni o‘ydirdi,
Davlatli odam siylov to‘nin kiydirdi.
Rostin ayt, chirog‘im, qaydin kelasan,
Aytgan so‘zing yurak-bag‘rim kuydirdi?

Gapingga qarayman, lodon bolasan,
Men o‘ylasam, osha¹ yurtidan kelasan.
Tovushingni Hiloloyga o‘xshatdim!
Shu shunqorning, sen nimasi bo‘lasan?

Gapginangga bandi-bo‘g‘nim bo‘shadi,
Sen so‘ylading suyaklarim shovshadi.
Qarchig‘ayning sen nimasi bo‘lasan?
Tovushginang Hiloljonga o‘xshadi!

Dushman ko‘rsam, qattiq-qattiq tosh otdim,
Gapginangga yuragimni bo‘shatdim,
Shu shunqorning, sen nimasi bo‘lasan?
Tovushingni Hiloloyga o‘xshatdim!

Buni eshitib, Go‘ro‘g‘libek bir so‘z dedi:

Eshiting, bobojon, o‘zimdan so‘zni,
Hay darig‘o, g‘am sarg‘aytdi gul yuzni.

¹ Osha – 1) uzoq, olis; 2) yot. Osha yurt – 1) olis yurt; 2) yot yurt.

Koʻrgan bormi, bilgan bormi otamdan,
Oʻzingizday ikki koʻzi ojizni.

Gajdumbekman, koʻr Ravshanni bildingmi?
Men oʻqidim alif bilan zabarni,
Gajdumbekman koʻr Ravshanni soʻrayman,
Koʻr Ravshan otamdan bering xabarni!
Gajdumbekman Ravshan koʻrni koʻrdingmi?

Nomard otam bundoq qochib kelgani,
Hiloloyning rangi gulday soʻlgani,
Koʻr Ravshan otamdan bering bir xabar,
Men boʻlaman homilador qolgani!
Gajdumman¹ koʻr Ravshanni koʻrdingmi?

Xudoyo ketgay-da yurakning dardi,
Kelgan joyim Turkman elning elati.
Izlab keldim, Gajdumbekday togʻamni,
Men boʻlaman koʻr Ravshanning farzandi!

Chopilsa dol bedov qaytmas raʼyidan.
Ravshanbekning yuraklari yorilib,
– Voh bolam! – deb boʻzlab turdi joyidan.

Voy bolam, deb barmogʻini tishladi,
Hay attang, deb koʻzlarini yoshladi.
Koʻzim ojiz, koʻrolmayman bolam, deb
Oʻzini supadan otib tashladi.

Davlat turmas takobirning² boshida.
Qulochini yozib olib koʻr Ravshan,
Bolam deb ayqalab bosdi toʻshiga.

Xoʻrsinibdi soʻylatolmay tilini,
Karvonlar chang qilar yurgan yoʻlini. !

¹ Gajdumbek bilan.

² Isrofgar.

Voh bolam, deb yuraklari yorilib,
Quchoqladi ichda qolgan o'g'lini.

Merganlar otadi ko'lining g'ozini.
Xo'rsinibdi aytolmaydi so'zini.
Bolam, deb bag'riga bosib ko'r Ravshan.
Iskalab yuziga qo'ydi yuzini.

Go'ro'g'libek vaqtlarin xushladi,
Boshin chayqab barmog'ini tishladi,
Qamishday buralib endi yosh bachcha.
– Ota! – deb bo'yniga qo'lin tashladi.

Chorsuda¹ Gajdumbek qulog'in solsa,
Bolam, dedi ko'r Ravshanning dovushi.

Uka budir, bu dunyoning havasi,
Sira yo'qdir bu o'limning davosi,
Sermaslab² Gajdumbek turdi joyidan,
Tirik ayrilgan yomon ekan dunyoda.
Esga tushdi, Hiloloyday singlisi.

Kamar boylab dastorini o'radi.
Kokilini yarashiqqa taradi
Tiri(k) ayrilgan Hilol tushib esiga,
Gajdumbek joyidan tiklab qaradi.

Yuzlari ham Hiloloyning yuziday,
Qoshi ko'zi Hiloloyning o'ziday.
Ko'zda yoshin pechi bilan silay,
Bek Gajdumbek dod-u faryod qiladi.
Hiloloy Zargardan kelib qopti, deb
Yuragi yorilib, chopib keladi,

¹ Chorsi, chorsu – tarixiy shaharlarda: usti yopiq savdo- sotiq joyi, ya'ni bozorning markaziy, rastalar kesishgan joyi; umuman, savdo-sotiq joyi.

² Sermaslamoq – 1) siltanmoq; 2) gandiraklamoq.

Talato'p bo'p Yovmit elning ko'chasi,
Yuragida g'am ko'p, dardmand anchasi,
Har kim o'z eliga ko'pdi¹ hurmati,
Gajdumbekning girdini olib chopishib,
Kelayotir Yovmitning bekbachchasi.

Qochib kelib edi Zargar elidan,
Gap chiqadi shoirlarning tilidan.
– Voy bovrin! – deb Gajdumbek yugurib,
Kelib oldi Ravshanbekning qo'lidan.

Bedovga yarashgan asl to'g'asi²,
Yaxshi odamning ko'p ichida havasi,
Bolam, deb bag'riga bosib iskadi,
Qochib kelgan Gajdumbekday tog'asi.

Hamma beklar barisi bo'zlashadi,
Gajdumbekning suyaklari shovshadi.
Navbat-navbat quchoqlashib bachchani,
Go'ro'g'liman³ hammasi ko'rishadi.

Go'ro'g'lining kokilini taradi,
Ko'rgan tushni yaxshiliqqa yo'radi.
Jigarchilik ko'p qiyindi dunyoda,
Bek Gajdumbek Hiloloyni so'radi:

– Yakka kepsan⁴ o'zing Turkman eliga,
Rahm aylagin kuyganlarning holiga,
Voy akam, deb g'arib bo'p yig'lab edi,
Nega tashlab kelding dushman qo'liga?
Qo'l qanotim Hiloloy singlim qani?

–Eshitgin, tog'ajon, o'zimdandotti,
Yetimligi qursin, meni bo'zlatti.

¹ Ko'pdir.

² To'g'a (to'qa) – ot pochasiga taqiladigan enlik uzuksimon narsa.

³ Go'ro'g'li bilan.

⁴ Kelibsan.

Yaxshi ekan koʻrdim, Yovmitning yurti,
Boshdan oʻtganini sizga aytayin:

Hiloloy – shoʻr enam dunyodan oʻtdi!
Xudoning taqdiri bizga shu boʻldi,
Rustambek, enamni singil qilgandi,
Oborib mozorga qoʻygan ekandi,
Yer yuziga tushgan ekan Goʻroʻgʻli.

Yaxshi odamlar menga egalik qildi,
Oradan tagʻida uch yil oʻtganda,
Jiyanim, deb mozoratdan quchoqlab,
Bek Rustambek togʻam meni op keldi.

Jiyan, dedi parvarishlarni qildi,
Tarafning¹ ichida meni zoʻr qildi.
Bejoy koʻp boʻldi Rustam xizmati,
Yaxshilikdan ado boʻlmas hasrati.

Otamning otini, koʻr Ravshan, dedi
Togʻamning otini, Gajdumxon, dedi.
Shohdorshoh podsho oʻldiraman deganda,
Yarim kecha olib chiqib Zargardan,
Yovmit elga borgin, dedi, joʻnatdi,

Eshitgin togʻajon, jiyaning zorin,
Talatoʻp qip keldim Zargarning shahrin,
Shoʻr enam gʻarib boʻp dunyodan oʻtdi.
Omonat, deb qoʻyib keldim mozorni,

Oʻlmay koʻrdim sizni sogʻ-u salomat,
Rustambekka boʻlib qoldi qiyomat.
Enamning suyagi qoldi omonat,
Omonatga qilma, dedim xiyonat.

Qaytayin, togʻajon, singlingiz oʻldi,
Ravshanbekman sizday mardni axtarib
Goʻroʻgʻli jiyaning elingga keldi.

¹ Dushmanning.

Oralagan joyi bog‘ bilan chorboq,
Boshqa boshdan uyilib keldi qoboq.
– Voy gulim! – deb bo‘zlab turib joyidan
Tayog‘in suyanib oldi Ravshanbek.

Darvish qullar erta sahar uyg‘ondi.
O‘lim kelgan och bo‘yrini tayandi
– G‘arib o‘lgan singlim, – deb Gajdumbek,
Vo singlim, deb nayzasini suyandi.

Kuyganidan gapni gapga ulaydi,
Go‘ro‘g‘lining manglaylarin silaydi.

Go‘ro‘g‘li, enam, deb Ravshan, gulim, deb
Bek Gajdumbek nayzasini suyanib,
Monandi Hiloloy yangi o‘lganday,
«Voy enam!» «Voy singlim», – deb yig‘laydi.

Odamlarning qoboqlari uyildi.
Oltin piyolaga choylar quyildi,
Gajdumbek ko‘ngliga qarab xaloyiq.
Bandalik qilaylik, deb barisi.
Yovmit eldan ko‘ngil yetar yiyildi¹.

Odamlarning band-bo‘g‘ini bo‘shadi,
O‘lim qursin suyaklari shovshadi.
Gajdumbekning sarpoy kiygan beklari,
Biri opam, biri singlimlashadi.

– Vo bovrin! – deb, ko‘p odam chinqiradi
Satta² ko‘rgan odam boqdi, qaradi,
Bovrin, degan beklarning dovshiga,
Monandi³ Yovmit larzaga kiradi.

¹ Yig‘ildi.

² Satta – zap zo‘r, eng sara.

³ Go‘yoki.

G'azoda bedovning dumi suzilib,
Azizlardan yurak-bag'ri ezilib,
Biri bovrin, biri singlimlashadi,
Xaloyiqning ko'zdan yoshi tizilib,

Go'ro'g'li: «Enam», – dedi, Ravshanbek: «Gulim», – dedi, Gajdumbek: «Singlim», – dedi, barcha beklar: «Bovrim», – deb, xaloyiqlar bari dod ayladi, gohi yig'lab, gohi faryod ayladi. Madrasadan mulla a'lamlar necha suvrani¹ o'qib, chorsuda bandalik deb, Qur'on o'qib, Hiloloyning ruhini shod ayladi.

Shoirning aytgan so'zi ko'p bo'ldi, avji qolsa gapi tushgur xo'p bo'ldi. Go'ro'g'lining bir bayti sop bo'ldi.

Ana endi, gapni kimdan eshiting, Ravshanbekdan eshiting:

Ravshanbek Go'ro'g'lining oyog'ini, qo'lini betiga suy-kadi. Yaraq etib ko'zi ochilib ketdi...

Ana shunda Qoliboy, Bolliboy ko'rgan bilganlarini Urayxon podshoga borib aytdi:

«Ey, taqsir, arzim bor».

Urayxon podsho:

«Nima arzing bor?» – dedi.

Shunda ikkovi:

– Sulton suyagini xo'rlapti, degan siz bo'ldingiz, – dedi.

Urayxon podsho:

– Nimaga, dalil ko'rsatinglar, – dedi.

Shunda bular:

– Ravshanbek, Odilxon podshoning bel bolasi ekan, Bibi Oyshadan tug'ilgan ekan. Ravshanbek Zargarning yurtida Bibi Hiloloyni olgan ekan. Bu ko'r bo'lib qochib kelganda Bibi Hilolning qornida gumona qolgan ekan. Hilol o'lgan so'ng, go'rning ichida bir o'g'lon paydo bo'lgan ekan, bachchanning otini Go'ro'g'li qo'ygan ekan, o'zi qip-qizil yalang'och kelibdi. Gajdumbek uch kundan beri Hiloloyga osh berib xudoyi qilib, shu Go'ro'g'li bilan birga o'ltiribdi. Ana shu ishimiz uyat bo'lgan ekan, – dedi.

¹ Surani.

Urayxon podsho vazirlaridan bu soʻzni eshitib aytdi:

– Podsholarning aqli, esi, vazirlar boʻladi, deb eshitganlaring yoʻqmi? Bu ayblar, sizlardan boʻlgan. Bu toʻgʻrida menda ayb yoʻq. Koʻrdan nima qarindosh boʻladi, deb oʻzlaring quvib yubormadinglarmi?

Bu soʻzning ustiga Ahmadbek kelib qoldi, Ahmadbek aytdi:

– «Doʻst kelsa, dushman yer», – degan maqolni eshitganing yoʻqmi? Bir odamning orqasidan necha duldul otli, toʻnli, toyli, shoyli boʻlib yuradi. Lekin shuncha yoʻldan Ravshanbek koʻr boʻlsa ham, togʻam deb, suykanib keldi.

Sening xumsaliging tutdi. Shunday soʻz boʻlarini bir vaqtda men bilib edim. Kel, jiyanimsan, deb koʻtarmalab, registondan¹ bir saroyini hokim-larning muhrini bosib, olti qul sotib olib, bor, podsho Urayxonni duo qil, deb berib kelib edim, – dedi.

Lekin shunday boʻlsa ham Urayxon uyalib qoldi. Shunda podshoning oldida bir shoiri bor ekan. Podshoning uyalganini bilib, shu oʻltirishda bir soʻz aytmoqchi boʻldi.

Shoirning oti Xannon edi, podshogo qarab bir soʻz aytdi:

Yurt qadrini shohlar bilmas,
Tilla taxtdan tushmaguncha.

El qadrini beklar bilmas,
Boshqa elga oshmaguncha.

Ot qadrini yigit bilmas,
Yayov yoʻlga tushmaguncha.

Er qadrini xotin bilmas,
Yomon yerga tushmaguncha.

Yor qadrini yigit bilmas,
Yomon xotin olmaguncha.

¹ **Registon** – Oʻrta Sharq mamlakatlari shaharlaridagi markaziy maydon.

Qush qadrini sayyod bilmas,
Qarchig‘ayni solmaguncha.

Qo‘sh qadrini dehqon bilmas,
Novvos¹ ho‘kiz qo‘shmaguncha.

To‘n qadrini yigit bilmas,
To‘n egnidan tushmaguncha.

Elning qadrin shohlar bilmas,
Boshqa yurtga oshmaguncha.

Mardning qadrin odam bilmas,
Nomardga bosh qo‘shmaguncha.

Yomonlar tortsin jazosin,
Berib har kimga izosin!
Bek bilmas in‘om mazasin,
Hotam bo‘lib tushmaguncha.

So‘z degan bir gavhar bo‘lar,
Qadrin bilsang javhar bo‘lar,
Suxanvor qadrin na bilsin,
Ma‘nisiga tushmaguncha².

Bir barnoning ko‘p aqli,
Zarafshon bo‘yli kokili.
Hur yuzlining qadrin bilmas,
Yomonga bosh qo‘shmaguncha.

Zarning qadrin zahhobga ayt,
Elning qadrin arbobga ayt.
Xasislar mardoni bilsin,
Elning egasin yomonlab,
Bir ish bo‘lib shoshmaguncha.

¹ Novvos – uch yashar erkak qoramol.

² Tushunmaguncha.

Had degan tosh bebahodir,
Gavhar toshlarga podshodir,
Zar bahosin hech kim bilmas,
Egasiga tushmaguncha.

Bir tulporni nodon olsa,
Tuyogʻidan egar solsa,
Chubur qilib minib olsa,
Bedovning qadrin na bilsin,
Minib otdan tushmaguncha.

Ilm soʻzini mulla bilar,
Yaxshilarni dono bilar,
Nodonlarni na bilsin,
Gap bilib soʻzlashmaguncha.

Yaxshi soʻzidan adashmas,
Yomonlarga boshin qoʻshmas,
Har ish boʻlsa aqli shoshmas,
Besuv daryoga yarashmas,
To mavj urib toshmaguncha.

Eldan ayrilsa bir joʻmard¹,
Uning bilan boʻlmas nomard.
Yaxshi qadrin na bilsin,
Yomon bilan gaplashmaguncha

Toʻra yurtning yomon koʻrmas,
Oriyatni soʻkib, urmas,
Qattiq qiyin jazo bermas,
Ishi haddan oshmaguncha.

Oshiq boʻlsa barnoga,
Qora qosh, koʻzi shahloga,
Rasvo boʻlsang sen dunyoga,
Eshiting, inonsa savdoga,

¹ Joʻmard – tanti, mard.

Mehri tosh uni na bilsin,
O‘z boshiga tushmaguncha.

Yaxshi tutar muhabbatni,
Aralashtirmas bedardni,
O‘ziga qo‘shmas nomardni,
Ul qilolmas bu xizmatni.
Johil ularni na bilsin,
Xomligidan pishmaguncha.

Biling do‘stlar, odam yaxshi,
Siring bilar mahram yaxshi,
Shod-u g‘amda birday bo‘lsa,
Jon ayamas hamdam yaxshi.
Tosh ko‘ngil uni na bilsin,
Erminan¹ qot² tanishmaguncha.

O‘tgan so‘zni o‘ylamangiz,
Bu gaplarni so‘zlamangiz,
Har ish bo‘lsa bo‘lib o‘tti,
O‘tgan gapni so‘zlamangiz.
Xannon shoir so‘zni aytar,
Joni tandan chiqmaguncha.

– Har nima bo‘ldi, o‘tgan gap bo‘lib o‘tdi, endigi gap shuki, sizlar ham maslahat qilib, borib ko‘rganlaringiz a‘loroq. Mening so‘zim shu! Bu yog‘ini, mana, vazirlar, akobir³, shopovul, japovul, o‘ng otaliq⁴, chap otaliq, mahram, yasovul, davronbegi, bakovullar⁵ bilan siz ulug‘ podsho va bekszodalar bilasizlar, – dedi.

Shunda Urayxon podsho barcha bekszoda, vazir-u

¹ Mard bilan.

² Qot – qattiq. Bu yerda to‘liq ma‘nosida kelgan.

³ Akobir – yuqori martabali amaldor.

⁴ Otaliq – podshoga maslahatgo‘y ishonchli mansabdor.

⁵ Bakovul – podshoh, xon va lashkarlarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat olib boruvchi, hukmdorga taom tortishdan oldin uni avval o‘zi totib kuruvchi mansabdor; bosh oshpaz

mahram, yasovullariga qarab:

– Endi gap, kelgan mehmonning oldiga bir aqli raso odam yubormoq, – dedi, Shunda hammalari maslahat bilan Xannon shoir bilan ikki yasovul yubormoqchi bo‘ldilar. Nima-gaki, Xannon shoir so‘z aytib kelgan mehmonning, o‘tirgan odamlarning vaqtini xushlaydi, o‘rdaga olib keladi.

Xannon bilan ikki yasovul – birining oti Holmat, birining oti Olmat – uchovlarini jo‘natdi. Bular bodpoy¹ yo‘rg‘a otni minib o‘z saltanatlari bilan yo‘lga tushib ketdi. Registonning oldidagi saroyga yetdi. Qarasalar, hamma katta-kichik qo‘rg‘on-begilar, amaldorlar, saroyga yigilgan ekan. Dasturxonlar yozilib, oshlar odamlarga qo‘yilgan ekan. «Podshoning yasovuli keldi!» – deb saroydagilarning yuragi terakning bargiday titrab, aqldan adashib hammasi o‘rinlaridan yerga tushib, salom-alik qilishib qolishdilar.

«Nimaga keldilar ekan?» – deb shunda turgan xizmatkorlar kelgan mehmonlarni otdan tushirib, vaqtini xushlab, joyga o‘tqazib, ostiga yaxshi to‘shakdan tashlab, ko‘rishib, so‘rashib turdilar. Kelgan yasovullar Go‘ro‘g‘liga qarasalar, o‘n besh kunlik oyday balqib, yuzlaridan podsholik, polvonlik belgisi ko‘rinib turibdi. Shunda bularning oldiga dasturxon yozilib, turli-turli mevalardan, oshdan tortildi. Xannon shoir qo‘lini alif-lom qilib, gardanini xam qilib, yaxshi odob bilan Go‘ro‘g‘liga qarab, bir so‘z dedi:

Assalomu alaykum, kelgan mehmonim,
Xush kelibsiz, ana manznl, ana joy!

Bahorda ochilar bog‘ning bodomi,
Qizning yuzi qizil guldek xirmoni.
Bizlar bilan birga yuring, mehmonjon,
Bizlar keldik, Urayxonning mahrami!

Har kim o‘z joni uchun qilar xayrdi².
Uyqu kelsa, qush bo‘ynini qayirdi.

¹ Bodpoy – 1) yelib tez yuradigan, uchqur, chopqir ot; 2) yog‘ochdan yasalgan uchar ot.

² Savobni.

Bizlar bilan birga yuring qarindosh,
Davlatli xon ziyofatga buyurdi!

Kiyiklar yuradi cho‘lning dashida,
Davlat turmas takobirning boshida.
Amri podsho vojib, bizni buyurdi,
Mehmon, yuring Urayxonning qoshiga.

Bu shahar azimdi¹ aylanish ko‘cha,
Ko‘chalarda tengsaladi² bir necha.
Podshohimiz op kelgin, deb buyurdi,
Ziyofatga birga yuring, bekbachcha.

Davlatli xon, op kelgin, deb chaqirdi,
Bizlar bilan birga yuring mehmonjon!
Bo‘lib kebsiz Qulo cho‘lda sargardon,
Yuragingiz bo‘limgay-da endi qon!

Podshohimiz bari kelsin, deb aytdi,
Hamma turgan bari yursin, mehmonjon!

Bizlar bilan billa³ yuring, xaloyiq.
Amri podsho vojib, degan bir gap bor!

Katta-kichikman⁴ deb aytmang, Gajdumbek,
Yoppa-yovlik shu turganing yuringlar!
Yig‘laganda yosh yog‘ilar yuzlarga,
Og‘aynilar, quloq songlar⁵ so‘zlarga,
Oqshom quloq songlar, chertgan sozlarga!

Merganlar o‘q otar ko‘lda g‘ozlarga.
Yoppa-yovlik bizing bilan yuringlar,
Ishonimli⁶ odam kelgan sizlarga!

¹ Azimni.

² **Tengsalmoq** – 1) behudaga aylanib yurmoq; 2) tebranmoq, chayqalmoq.

³ Birga.

⁴ Katta-kichik bilan.

⁵ Solinglar.

⁶ Ishonchli.

Yoppa-yovlik mana turgan satta bek,
Ey, yosh o'g'lon javob bering bularga,
Yoppa yuring ziyofatga ketamiz.
Yuring darrov shoh oldiga yetamiz!

Shunda borib, qolgan gapni aytamiz,
So'zni chertib, oqshom qo'shiq aytamiz!

Bu so'zni Ravshanbek eshitib, o'tday tutashib¹:

– Zargarning shahridan kelganimga sakkiz yil o'tdi. Barakalla Ahmadbekka, mening qadrimga o'sha yetdi. Urayxon podshoning oldidan umidim uzilib, noumid bo'lib chiqib edim. Meni yetalab Registonga olib kelib, shu saroyini bo'yi baravarli zarga sotib olib, qozi-kalonlarga ziyofatlar qilib, mening otimga vasiqa qilib, bozordan oltita yaxshi g'ulombachcha sotib olib kelib, o'lganingcha shu Ravshanbekning aytganini qilasan, aytganini qilmasanglar sizlarni dorga tortib o'ldiraman, deb menga xizmatkor qilib berib ketdi. Shundan beri umrim shu bilan o'tdi. Men Ahmadbekdan roziman, ammo podshoning oldiga bormayman, Urayxon podshoga men endi qarindosh bo'libmanmi, yetti-sakkiz yillardan beri meni bir yo'qlagani yo'q edi. Ota, deb enasining ichida qolgan farzandim kelibdi. Har yigirma kunda, Gajdumbekdan xabar kelib yotdi.

Urayxon podsho shu yerda turib, mendan bir xabar olgan yo'q, endi chaqirganini bir pulga olmayman, – dedi. Shunda Go'ro'g'libek o'rnidan turib, qo'lini alif-lom qilib, gardanini otasiga xam qilib bir so'z dedi:

Bo'lib keldim Qulo cho'lda sargardon.
Ko'zingiz yumiqli otajon Ravshan,
Haq hurmati, yuring shohning oldiga.
Gina qilsang, kulfat ortar, otajon!

Olqorlar sakraydi tog'da, dalada.
Haq hurmati, achchig'ingni tilayman,
Yuring, ota, podsholikka borayik,
Mendayin farzanding tushdi oraga!

¹ Tutamoq – qattiq qizishmoq.

Kuyganimdan gapni gapga ulayman,
G'arib o'lgan Hiloloyning hurmati,
So'zi o'lgani – o'zi o'lgani odamning
Shu mavridga achchig'ingni tilayman.
Yuring, ota, shohni borib ko'rayik!

Yig'laganda yosh yog'ilar yuziga.
Quloq soling Go'ro'g'lining so'ziga!
Yuring ota, podsholikka borayik,
Uyalgani bo'lar, ota, o'ziga!

Gapni qo'ying har tarafga do'ndirmang¹,
Qarindoshni qabrdan nari endirmang²,
Go'ro'g'liday farzandingning hurmati,
Xaloyiqning sha'nini hech sindirmang!
Yuring, ota, shohni borib ko'rayik!

Kengash chiqar elning katta biyidan,
Mard yigitlar hech qaytmasin ra'yidan,
Umriginang uzoq bo'lsin mehmon deb,
Qulluq deyishib Urayxonning beklari,
Qo'zg'alishib endi turdi joyidan.

Ravshanbekka xudo berdi davlatni,
Iyartirib³ Go'ro'g'liday farzandni.
Hammasiga jilovdor bo'p yosh bachcha,
Podsholikka turgan odamlar ketdi.

Tomosha qing shoirning ishiga,
Yo'rg'alatib Registonning qoshiga.
Mehmon keladi! Endi shoir chuvladi,
Borib qoldi Urayxonning qoshiga.

³
Har kim o'z joni uchun qilar xayrdi,
Karvon yursa, yo'lga solar chiyirdi⁴.

¹ Do'nmoq – 1) aylanmoq; 2) charx urmoq; 3) qaytmoq.

² Endirmoq – tushirmoq.

³ Ergashtirib.

⁴ Chiyir – cho'lda yurganda uzundan uzun tushib qolgan oyoq (tuyoq) izi.

Borgin, dedi podsho necha mahramga,
Chust-chabik¹ qilib barin buyurdi.

Tomoshaylang² bu beklarning ishiga.
– Assalomu alaykum, aziz mehmon, – deb
Peshvoz chiqdi Go‘ro‘g‘lining qoshiga.

Vazirlar bachchaning vaqtin xushladi,
Ko‘ngillari qayta-qayta jo‘shadi.
Vazirlar chopib turib joyidan,
Kelgan mehmonlarning otin ushladi.

O‘rin berib mehmonlarga Urayxon,
Dasturxonni o‘rtalikka tashladi.

Go‘ro‘g‘libek otasi Ravshanbek, tog‘asi Gajdumbek va ergashib yurgan bekbachcha va bekozodalar bilan Urayxon podshoning oldiga borib tushib, qaror oldilar. Shunda Go‘ro‘g‘libek avval Urayxon podshoning oldiga borib, odob bilan dasti alif-lom qilib, gardanini xam qilib, to‘qqiz-to‘qqiz ta‘zim qilib, boshqa vazirlar bilan ham ko‘rishib, har qaysilarining o‘zlariga yarasha odoblarini bajo qilib, hamma turgan katta-kichiklarning dimog‘ini chog‘ qildi. Podsho, vazir, akobir, otaliqlar va barcha podshohzoda, bekozodalar Go‘ro‘g‘lining odobini ko‘rib: «Barakalla, Go‘ro‘g‘li yosh ekan, yosh ham bo‘lsa kattalarga bosh ekan», – deb tan berdilar.

Urayxon podsho avval Go‘ro‘g‘liga nim taxtidan joy berdi. Qolganlariga ham o‘z amallariga va o‘z martabalariga yarasha o‘rin berdi. Shunda hammalari joy-joylarida o‘ltirib oldi. Tilla kamar bog‘lagan mahram bolalar xizmatni o‘rin qilib, dasturxonchi dasturxon tashladi. Qo‘l yuvdiruvchi qo‘l yuvdirib, hammalari birday, ochilgan gulday bo‘lib, byar-birlariga odob bilan qarashib, mahramlari yarashiqqa tilla kokillarini tarashib, bir-birlariga ko‘zlarini qisib, imlashib, o‘ltirishda kayf-safo qilishib, har xil dasturxonlarni tortishib, har rang ziyofatlarni oldilar.

¹ Tez, darhol.

² Tomosha aylang.

Ziyofat tamom bo'lgandan so'ng, fotihani betga tortmoqchi bo'lganda, hamma Go'ro'g'liga ishorat qildi: «Fotiha qiling», – dedilar. Shunda Go'ro'g'li otasi Ravshanbekka: «Duo qiling», – deb ishora qildi. Ravshanbek duo qildi. Boshqa o'tirgan Go'ro'g'li boshliq hammalari: «Omin!» – deb fotihani betiga tortdilar.

Shunda Urayxon podsho:

– Sarpo olib kelinglar, – deb tegishli bakovul, vazirlariga amr qildi. Shunda mahram, vazirlar shohona sarpolardan quchoq-quchoq qilib o'rtaga qo'ydilar. Go'ro'g'lining yuz-xotiridan hamma kelgan beklarga Ravshanbek, Gajdumbek boshliq sarpo yopdilar. Ana shunda Go'ro'g'libekka ham necha odoblar bilan podshohona to'n, sarpo yopmoqchi bo'ldi.

Shunda Go'ro'g'lining egniga to'nni soldi. Go'ro'g'li to'nni kiymay, tizzasining ostiga bosdi.

Bu ishni ko'rib, turgan odamlar:

– Nimaga tilla to'nni kiymaysiz? – dedi.

Shunda Go'ro'g'li:

– Iloji bo'lsa, menga bir jun sholdan bo'lgan kiyim beringizlar, kiyayin, – dedi. Go'ro'g'lidan bu so'zni eshitib, o'ltirgan kishilar darrov aytganidan ziyoda, yaxshi jundan bo'lgan to'n-sarpolarni olib yopdilar. Go'ro'g'li kiyib oldi.

Ulug'lar, vazirlar:

– Podshoning bergan tilla sarposini kiymasangiz ham oling, – dedilar. Go'ro'g'li, xo'p, deb tilladan bo'lgan podshohona sarponi oldi. Shunda o'ltirgan kishilar to'n, sarpo qutlug' bo'lsin qildilar. Go'ro'g'li boshliq hamma to'n kiygan bekdodalar, Ravshanbek, Gajdumbek hammalari qulluq, deb o'rni-laridan turib, Urayxon podshoni duo qildilar.

Urayxoy podshoning dimog'i chog' bo'lib:

– Endi uch kunlik vaqti xushlik, shodiyona to'y qilinglar, shaharlarni chaqirib to'y beringlar, – deb vazirlarga farmon qildi. Vazirlar, xo'p, deb o'rinlaridan turib, uch kunlik to'y asbobini tuzib, hamma shaharlarga, ko'cha va guzarlarga¹ to'y xabariga jarchi qo'ya berdi, Ana endi to'y boshlandi. Oshpazlar osh pishir-

¹ Guzar – yo'l.

moqda, novvoylar non yopmoqda bo‘lib barcha to‘y asboblarini xizmatkorlar taxlashib, to‘yga kelgan odamlarga ziyofat ustiga ziyofat berishib, qand ustiga qand, novvot ustiga novvot, sharbat ustiga sharbat tortdi. Har turli nozi ne‘mat... Ko‘rganlar hayron-da, ko‘rmaganlar armonda. Yetganlar har rang ziyofatda, yetmaganlar, uyqusi ko‘p odamlar mast bo‘lib uxlab yotir sharmanda. Ana endi kelganlar bu tartibda ziyofatni ko‘rdilar.

Podshoning oldidagi ulug‘ mehmonlarning ziyofatlaridan ham andak aytib o‘tmoq lozim. O‘ltirgan bekozodalar Go‘ro‘g‘li boshliq Ravshanbek, Gajdumbek oldiga ham tilla dasturxonlarni yozib, ziyofatlar ustiga ziyofatlar berib, oqshom bo‘lganda hamma chechan-chobarni, shoir, so‘z bilguvchilarni yig‘ib, sozandalar sozi bilan, xush juvonlar nozi bilan, satta jodu ko‘zi bilan o‘ynashib, kulishib, bir-birlari bilan yaxshi so‘zlarni aytib kulishib, tongning otganini, kunning botganini bilmay, barcha amaldorlar va fuqarolar vaqtlari xush bo‘lishib, sozandalar sozini chertdilar. na‘magarlar na‘malarini kamsiz qildi. Ana shu orada uch kecha-yu uch kunduz o‘tdi. Endi Ahmadbek ziyofatga aytdi. Hamma odamlar podshoning ziyofatidan forig‘ bo‘lib, Ahmadxonning uyiga yetdi... Ahmadbek ham: «Yoppayovlik. Taka yurti uch kun to‘y, ziyofatga», – deb aytdi, jarchi qo‘yib shaharlarni chaqirtirdi. Ana shunda o‘ng otaliq, chap otaliq vazirlari qozikalon, muftilar¹, raislar, sap gardonkash, sandal peshin polvonlar, yasovul, shig‘avul², bakovullar, beklar, bekbachchalar, shahzodalar, dalayi dashtdan kelgan katta-kichik o‘zbeklar, qozoqlar, eshitgan hamma to‘yga yig‘ildilar. Ahmad Sardor kelgan hamma odamlarga ertan choy, oqshom palov berib, palov ustiga rang-barang o‘zlariga yarasha sarpodan berdi: dimog‘ini chog‘ qildi. Shuytib, kechalari sozanda baxshilar soz, do‘mbiralarini chertib, suxandonlar so‘z aytib, karnaychilar karnay chalib, surnaychilar surnay chalib, kelganlarning dimog‘ini xushladi. Odamlar Ahmadbekdan rozi bo‘ldi, ko‘ngillari juda ham to‘ldi, vaqti xush bo‘lmagan odam qolmadi.

¹ Mufti – shariat qonunlari va talablariga asoslanib, yuridik qonunlar va fatvolar tuzuvchi, keng imtiyozlarga ega bo‘lgan adliya amaldori.

² Shig‘ovul (Shig‘ovul) – xon va amir huzurida tantanali yig‘ilish, elchi qabul qilish marosimlarini uyushtiruvchi mansabdor.

Bularni vaqti xushlik bilan, dimog'i choqlikda qo'yib, Ahmadbekning xotinidan eshiting:

Ahmadbekning Xoljuvon degan xotini bor edi. Lekin farzandi yo'q edi. Xoljuvon qanday xotin – tovusday taralgan, bellari buralgan, har xil kiyimlarga o'ralgan, oynaga qaragan, zulfini taragan, o'ziga loyiq ro'mollardan o'ragan. Hamma yeri birday, tishi oppoq durday, badanlari qishning kuni yoqqan qor-day, labining shirinligi asal bilan bolday, yuzining qizilligi hor ustiga tomgan qizil qonday... Ayoldan kimni yaxshi desa, Xoljuvon deguday.

Xoljuvon shu yerda tursin, Ahmadbekdan eshiting:

Ahmadbek ziyofat ustida hamma yig'ilgan katta-kichik oldida, Go'ro'g'lini o'g'il qilmoqchi bo'ldi, qo'liga bir ilik olib, Go'ro'g'liga bermoqchi bo'lib, bir so'z dedi:

Endi bo'lgin ko'nglimning havasi,
Duo qil, topilsin davlatning davosi,
O'lganim so'ng¹, otam deb tayoq ushla,
O'zing bo'lgin davlatimning egasi!

Qo'llagay yigitni piri-g'oyibi,
Ahmadbekning elda ko'pdi ayibi.
Qiyomatlik o'g'lim dedim men seni,
Otamlab, bo'l davlatimning soyibi!

Befarzandman, doim kuydim hasratga,
Askar g'ayrat bilan minadi otga.
O'zing bo'lgin hovlilarning egasi,
Otam deb obborib qo'ygin lahatga!

Befarzandman, aqlimni shoshirdim.
Avliyo deb, oyog'ingga bosh urdim.
Ham o'g'limsan, ham jiyanim, Go'ro'g'lim,
Arkoni davlatni senga topshirdim.

¹ O'lganimdan so'ng.

Endi bo'ldi ko'nglimning havasi
Takobirni urar molning ziyosi¹.
Anjom, asbobimni senga topshirdim,
O'zing bo'lg'in barcha molning eyasi²!

Yaxshi ko'rdim sening qaddi bo'yingni,
Sen ham aytgin yuragingda o'yingni!
Ilikni qo'lingga olgin, farzandim,
Qirq kun qilay, bolam, sening to'yingni!

Joylagin sen, davlatli bo'p, Turkman elingni,
Qiyomatlik o'g'lim dedim men seni.
Elatingdan yig'ay satta biyingni
Arkon davlatni o'zim talatib,
Qirq kun, bolam, qilay sening to'yingni!

Bu so'zni Ahmadbekdan eshitib, Urayxon podshodan
boshqa, hamma o'ltirganlar joyidan turdi.

Hammalari:

– E, Ahmadbek, o'g'il ham, to'y ham qutlug' bo'lsin! –
dedilar. Ahmadbek:

– Qulluq, – dedi. Urayxon podsho ham xalq qatori Ahmadbekka o'g'il qutlug' bo'lsin, to'y qutlug' bo'lsin qildi. Ahmadbek qulluq, dedi.

Xoljuvon ichkari o'rdada. Hamma katta-kichik kayvoni³ oyimlar, saphur⁴ sifatli, maloyika tal'atli kelinchaklar, har biri suluv nozanin qizlar, tengi-tengi bilan, ko'ngil suygani bilan shiringina so'zlashib turiptilar.

Shunda Xoljuvon xotinlarga qarab, bir so'z aytayotipti:

Oydan ko'rkam, kundan suluv yuzim bor.
Davlatim bor, karashmam bor, nozim bor.
So'zima quloq sol, satta oyimlar,
Maslahat beringlar, sizga so'zim bor!

¹ Uvoli.

² Egasi.

³ Kayvon(i) – 1) yoshi ulug', ko'pni ko'rgan, ko'p narsani biladigan; 2) uddaburon.

⁴ Malak sifatli.

Xizmatimda oyim dedi bir necha,
Podsholarga xizmat qildi bir necha.
Oyimlar, maslahat qanday bo‘ladi?
Tenglarim, maslahat qanday bo‘ladi?

Sizlarga aytilgan mening so‘zlarim,
Jovdirar majlisda shahlo ko‘zlarim.
Go‘ro‘g‘lini olib kelsak o‘rdaga,
Xoljuvonga maslahat ber, qizlarim!

Qoshing daryolarning qunduzi,
Ko‘zlaring surmali, tongning yulduzi.
Go‘ro‘g‘lini olib kelsak o‘rdaga,
Maslahat ber, Yovmit elning azizi!

Bulbulning qo‘ngani bog‘da gul bo‘ldi,
Majlisda so‘ylagan qizil til bo‘ldi,
Olib kelsak shu mehmonni majlisga
Ham Ahmadga, Xoljuvonga ul bo‘ldi¹.
Kayvoni, maslahat qanday bo‘ladi?

Kayvonilar:

– Bu aytgan so‘zingiz juda yaxshi, qutlug‘ bo‘lsin, – deb
turdilar. Ayollarning o‘rtasidan Holmat yasovulboshining Xol-
donoy degan xotini bir so‘z dedi:

Goh-goh o‘zimdan ketdim har zamon,
Tog‘larning boshini cholgandir tuman.
Ollohim yetkarsin sizni maqsadga,
Farzandingiz qutlug‘ bo‘lsin, opajon!

Bo‘lib kepti Qulo cho‘lda sargardon,
Beklar Oydin ko‘lga chuyar² bo‘z tarlon.
Xudoyo o‘lmasin, zohir dunyoda,
Go‘ro‘g‘libek qutlug‘ bo‘lsin, opajon!

¹ O‘g‘il bo‘ldi.

² Solar.

Majlisda so‘ylaydi shirin tilingiz,
Ochilar bog‘larda lola gulingiz.
Koyish ko‘rmang oyim Yovmit elida,
Farzanding qutlug‘ bo‘lsin, ulingiz¹.

Endi yaxshi bo‘ldi ko‘rgan kuningiz,
Obod bo‘ldi oyim, Yovmit elingiz.
Bu o‘rdaga ani² olib kelayik,
Qutlug‘ bo‘lsin, xudo bergan ulingiz!

Xoljuvon bu so‘zni turgan oyimlarning kattasi Xoldonadan eshitib, Durdona degan kanizakka:

– Besh-olti o‘zingga yarasha qizlardan birga olib, Go‘ro‘g‘libekni bunda olib kelinglar, – dedi. Durdona, qulluq deb, joyidan turib ketdi, Go‘ro‘g‘li bilan Ahmadbekning oldiga yetdi.

Ahmadbekka salom berib, Durdona:

– Xoljuvon oyim, Go‘ro‘g‘li o‘g‘lingizni o‘rdaga olib kel deb meni buyurdi, – dedi.

Ahmadbek Durdonadan bu so‘zni eshitib, Go‘ro‘g‘liga aytdi:

– Bor o‘g‘lim, men qanday bo‘lsam Xoljuvon ham shunday. Borib ko‘rishib, tanishib kel!

Go‘ro‘g‘libek, qulluq deb o‘rnidan turib ketdi. Hamma turgan kishilar: «Borgani durust, juda yaxshi bo‘ldi», – deb qoldilar.

Go‘ro‘g‘libek, o‘n to‘rt kunlik to‘lgan oyday bo‘lib, Xoljuvonning oldiga bordi. Xoljuvon oyim Go‘ro‘g‘li bilan ko‘rishdi. Oyimlarning oldida Xoljuvon Go‘ro‘g‘lini o‘g‘il qilib, yoqasidan solib, etagidan chiqarib oldi, betlaridan o‘pdi. Turgan hamma oyimlar ham Go‘ro‘g‘li bilan ko‘rishib, yuzlaridan o‘pib, Xoljuvon oyimga:

«O‘g‘lingiz qutlug‘ bo‘lsin», – dedilar.

Xoljuvon ham uch kun to‘y qilib, ayollarning rasmi

¹ O‘g‘lingiz.

² Uni.

taammullari bilan har qaysi ayolga sarpoyi mursaklar¹ berib, ziyofatlar qilib vaqtlarini xushladi. Xoljuvonning uch kunlik ziyofati o'tgan so'ng, Go'ro'g'li ularning oldidan chiqib, otalarining oldiga bordi.

Shunda Ahmadbek Go'ro'g'lining qirq kunlik to'yi deb chaqirdi. Jarchilar bozor, shaharni chaqira berdi. Qirq kecha-qirq kunduz to'y haddan osha qiziq bo'lib o'tdi, hamma to'yga kelgan fuqarolar va podsholar ham o'z ishiga ketdi. Gajdumbek ham o'z sarpolarini, kiyimlarini kiyib, o'z eli Taka Turkmanga ketdi. Ravshanbek ham Ahmadbek bergan saroyga ketdi. Go'ro'g'li Ahmadbekning uyida farzand bo'lib yotib qoldi.

Kundan kun, tundan tun o'tdi. Go'ro'g'li sakkiz yoshga kirdi, Ahmadbek Go'ro'g'libekni maktabga qo'ymoqchi bo'ldi, shaharning ichida Muhammad Yusuf otli bir olim kishi bor edi. Shunga maktabga qo'ydi. Go'ro'g'lining ko'ngliga ilm-u hol, ilm-u qol joy bo'lgan edi. Shunday bo'lsa ham Muhammad Yusufga shogird bo'ldi.

Go'ro'g'li bir-ikki fasl² mulla Muhammad Yusufning oldida turib mulladan bir-ikki so'zni eshitib, qarasa, mulla o'zi bilgan so'zidan kamroq biladi. Muhammad Yusufning ilmi yo'qligi Go'ro'g'liga bilindi. Go'ro'g'libek mullaning sahv³ o'qiganini bilib, mullasiga bir qaradi. Mulla sho'rlik Go'ro'g'lining haybatidan qo'rqib, so'z o'rgatmoq tugul yuziga aslo qaray olmadi.

Shunda, mulla bolalaridan bironi Ahmadbekka yuborib aytirdi. «Go'ro'g'lining o'zi mulla, hamma ilmlarni biladi, buni o'qitmoq lozim emas», – dedi, Go'ro'g'li o'qib bo'ldim, deb maktabxonadan chiqib, otasi Ahmadbekning oldiga yetdi. Ahmadbek:

– Ey bolam, o'zing mulla, hamma ilmdan boxabar ekansan. Endi seni o'qitmayman, o'z ixtiyoring o'zingda, – dedi.

Go'ro'g'libek, endi dalalarni ko'rib kelayin, deb o'zi emgan baytalini yetaklab, dalaga qarab yo'lga tushdi. Xuroson ko'lga borib, baytalni o'tlatib yura berdi.

¹ Mursak – 1) ayollar kiyadigan yengi kalta ustki milliy kiyim; 2) yengsiz kamzul.

² Muddat.

³ Xato.

Baytali semirib ketdi, bir kunlari ayg'ir talab bo'lib qoldi. Shunda baytalga ot qo'yaman, deb bunga yarasha chopaturg'on katta ayg'ir topolmadi. Bir kuni Go'ro'g'libek baytalni ko'lining oldida yetaklab yurib edi, bir otning kishnagan tovushi chiqdi. Buni eshitib, Go'ro'g'libek u yoq-bu yoqqa qarab qoldi. Kishnagan ot shu ko'lining ichida ekan, bir vaqt u ko'ldan kishnab-kishnab chiqib baytalga chopdi-yu, yana ko'lga tushib yo'q bo'lib ketdi.

Shunda Go'ro'g'libek:

«Otning ham obisi¹ bo'ladi ekan, Suvda yuradi ekan, bundan bo'lgan ot harish yo bir odamxo'r ot bo'ladi», – dedi.

Oydan oy, kundan kun o'tdi, vaqti yaqin bo'lib baytal bir urg'ochi qulun tug'di. Bolasi yetti kunlik bo'lganda, baytal o'lib qoldi.

Shunda Go'ro'g'libek:

«Hoy attang, baytal o'lib qoldi, bolasi yetim bo'lib qoldi», – deb yig'lab-yig'lab, otasi bilan enasi Xoljuvonning oldiga bordi.

Shunda Ahmadbek: «O'lsa o'ldi-da, ajali yetgan baytal ekan, o'zing omon bo'l! Hamma turgan mana bu mollar seniki, bunga xafa bo'lma», – deb, tasalli berdi.

Shunday bo'lsa ham Go'ro'g'li:

«Men sutini emgan edim», – deb ko'p xafa bo'ldi.

Bir kunlari Ahmadbek bir shaharga bormoqchi bo'lib, yo'l yarog'ini qilib, jo'nab ketdi.

Buni ketmoqda qo'ying, Go'ro'g'lidan eshiting:

Go'ro'g'libek haligi yetim bo'lib qolgan qulun toychani nima desa berib parvarish qilib yura berdi. Go'ro'g'lining baytaliga ko'lda chopgan ot, duldul edi. Shu dulduldan bu toy bo'lgan edi.

Bir kunlari Go'ro'g'libekka:

«Otangiz Ravshanbek kasal bo'ldi», – deb, xabar keldi.

Shunda Go'ro'g'li borib ko'rsa, mazasi ketibdi. Otasi bilan rozilashdi. Otasi Ravshanbek:

– E, Go'ro'g'libek, qiladigan ishingni Xudo o'ng'arsin!

¹ Suvga mo'ljallangani.

Mening nasihatim shulki, hargiz Ahmadbek otangning aytganidan chiqma, Xoljuvon enangni yig'latma! – deb vasiyat qilib, olamdan o'tdi.

Go'ro'g'libek otasining o'lganini ko'rib xafa bo'lib qoldi. Nima qilarini bilmadi.

Odamlar Go'ro'g'.libekka

– E, Go'ro'g'libek, ota o'lmak meros, – deb tasalli berdi. Go'ro'g'li toyini yetaklab dalayi dasht, cho'li biybonlarda otasining o'lganiga dimog'i kuyib goh xafa bo'lib, goh taqdiriga rozi bo'lib yura berdi. Shu ko'rgilikda oradan ikki yil o'tdi. Haligi baytal uch yashar bo'ldi. Juda katta baytal bo'lib, ayg'ir talab bo'lib kuyikka¹ keldi. Endigi gapni Xoljuvon ham Shirvonning shahridan eshmtng.

Shirvonning Rayhon² arab degan podshosi bor edi. Iroq mamlakati, Arabiston shunga qarar edi; Rayhon arab Xoljuvon oyinga oshiq edi. Xoljuvon Yovmit shahrining fuqarolaridan edi. Rayhon arab, Xoljuvon suluv qiz deb eshitib, o'zi kelib ko'rgan, sovchi qo'yib ololmagan edi. Sovchi qo'yganda Ahmadbek ham sovchi qo'yib, Rayhonga berdirmay o'zi olgan edi.

Lekin Rayhon arab har yilda har zamon, Ahmadbekning yo'qligida pana yerlarda turib, Xoljuvonni ko'rib ketar, ko'rolmasa, sakson kun kasal bo'lib yotar edi.

Bir kunlari Rayhon:

«Necha kun, necha oy bo'lib Ahmadbek bir yoqqa, bir shaharga safar qilib ketibdi, o'z yurtida yo'q emish», – deb eshitdi.

Ahadbekning yo'qligini g'animat bilib, Tajan degan daryodan o'tdi. Ana endi Turkmanning shahriga yetdi. Ahmadbekning «Bog'i maydon» degan bir yerda chorbog'i bor edi. Bir kuni Go'ro'g'li ko'p xafa, baytalini yetaklab yurib edi. Baytaliga qo'yayin desa, yarasha ot topolmas edi. Shunday «Bog'i maydon»ga borib qarasa, bir odam ko'ziga ko'rindi. Mingan oti tulpor osmonga tiklab, osmonga chiqmoqni ko'zlab turipti. Go'ro'g'lining ota-bobosi sinchi edi, ko'zi tushgandan bildi. «Otliqni gapga solaman, otini baytalimga tilayman, bersa beradi,

¹ Kuyik – dard, qayg'u.

² Rayhon – afsonaviy arab podshosi, Go'ro'g'lining dushmani.

bermasa yoqasidan olaman, ko'tarib yerga uraman, kallasiga besh-olti mushtni solaman», – dedi Go'ro'g'li haligining oldiga borib ko'rib:

«Bu bir shaharning podshosi, nima uchun bu yerga keldi ekan», – deb salom berib bir so'z dedi:

Ostingda o'ynaydi chin tulpor oting,
Rustanga o'xshaydi shon-u shavkating,
Qayerda, mehmonjon, sening elating,
Ajdarho nishonim, qaydan bo'larsan?

Belingga bo'g'ganing keskir isfihon¹,
Tarzingga qarayman, tarafsiz² polvon,
Afting ko'rib manzil joying so'rayman,
Qayerdan kelasan, aytgin, mehmonjon?

Qoshingni keltirdim³ bir yangi oyga,
Ko'nglingni o'xshatdim hotamtoy boyga.
Rostin ayt, mehmonjon, qaysi elatdan,
Nega kelding, o'zing, podsholik joyga?

Besiyoqga o'xshatdim sumbatingni⁴,
Menga aytgin, yuragingda dardingni!
Podsholik bog'otda⁵ bo'ylab⁶ yuribsan,
Menga aytgin, unib-o'sgan yurtिंगni!

Bir gapim bor, aytay senga mehmonjon.
Baytalima⁷ qo'yanmi otingni?

Ana buni eshitib, Rayhon arab Go'ro'g'liga qarab bir

¹ **Isfihon** – keskir tig', qilich, xanjar. O'tgan asrlarda Isfihon ustalari ishlagan keskir tig'larga nisbatan ishlyatilgan isfihoniy so'zining qisqarib ot shakliga kelgani.

² Tengi yo'q.

³ O'xshatdim.

⁴ Gavdangni.

⁵ **Bog'ot** – tevaragi cho'l bo'lgan bog'li, daraxtzor obod yer.

⁶ **Bo'ylamoq** – cho'zilmoq.

⁷ Baytalimga.

safsata gapni aytdi:

Juylaydigan juychi boylar jo‘ydimi,
Davlati bor yigit doim kuydimi?
Yetimak¹ ko‘nglingga malol kelmasa,
Hur sifatli Xoljuvon uydami?

Bahor bo‘lsa, qo‘ng‘ir g‘ozlar ko‘ldami,
Urug‘li el davlatboshisidami?
Men so‘rayman Xoljuvonday chechangni
Shahlo ko‘zli Xoljuvonjon uydami?

Necha kundan beri beklar to‘ydami,
Senday yetim, otang o‘lib uydami?
Men so‘rayman, la‘l munchoqli chechangni,
Hur sifatli Xoljuvonjon uydami?

Go‘ro‘g‘li buning Rayhon ekanligini bilgan edi, bilgan bo‘lsa ham so‘ragan edi. Bu gap Go‘ro‘g‘lidan juda o‘tib ketdi. Shunda Go‘ro‘g‘li Rayhon arabga qarab: «Seni, darrov bosa solib so‘yayinmi», – deb bir so‘z dedi:

Eshit mehmon yetimakning so‘zini,
Merganlar otadi ko‘lning g‘ozini.
Shirvon elda Rayhon arab qizini,
So‘lqillagan Zaydinjonning² o‘zini,
Rayhon qizi – Zaydin yorim uydami?

Men o‘qidim alif bilan zabarni,
Temirchi Xudo deb urar tabarni.
Shirvondagi Rayhon arab qizidan
Zaydinoy yorimdan bergin xabarni!
Rayhon qizi Zaydin yorim undami?

¹ Yetimcha.

² Zaydinoy – afsonaviy arab podshosi Rayhonning qizi.

Davlat bersa zarli dastor o'rayman,
Ko'rgan tushim yaxshiliqqa yo'rayman.
Shirvondagi Rayhon arab qizini,
Qo'sh emchakli Zaydin yorim so'rayman,
Rayhon qizi, Zaydin yorim uydami?

Buni Rayhon eshitib, g'ilofidan xanjarini tortdi. Shunda Go'ro'g'libek Rayhon arabga bir tikladi¹. Joni chiqib ketguday bo'ldi. «Bu ham bekozodalardan ekan, bunga tig'-xanjar tortmoq lozim emas», – deb xanjarini qiniga «shirq» etkazib solib qo'ydi.

Go'ro'g'libek:

– E Rayhon podsho, beodoblik sendan o'tdi, undankay² mendan o'tdi. Eshitganing yo'qmi: «Birovning buzog'i o'lsin desang, o'zingning ho'kizing o'lar», – degan so'z bor. Sen mening Xoljuvon chechamni gapirding, men sening qizingni so'rab gapirsam ayb bo'ldimi? – dedi.

Shunda Rayhon arab:

«Bu yosh ekan, yosh bo'lsa ham, esli ekan», – deb, o'zining gapi ayb ekanini bildi.

«Vaqtiga yetsa odam bo'lar ekan», – deb xoxolab kuldi.

Shunda Go'ro'g'libek, Rayhon arabga:

«Endi otingni mening baytalingga qo'yasanmi?» – dedi.

Rayhon arab aytdi:

«Xoljuvonoyim o'z qo'li bilan bir kosa suv bersa otimni qo'yaman!»

Go'ro'g'libek:

– O'gaychilik-da mening so'zimga kirsam, suv beradi, mening aytganimga ko'nmasa qaytaman, ko'nmasa ham otimga otingni berasan, – dedi.

Rayhon arab:

– Har nima qil, Xoljuvon bir kosa suv bersin, otimni baytalingga qancha qo'ysang qo'y, – dedi.

Shunda Go'ro'g'libek:

– Xayr, men borib Xoljuvonga aytayin, – deb, Xoljuvonoyimning oldiga ketdi. Go'ro'g'libek yig'lab borayotib edi.

¹ Tikilib qaradi.

² Undan keyin.

Buni Xoljuvonoyim ko'rib: «Nimaga yig'laysan?» – deb, Go'ro'g'libekka qarab. bir so'z dedi:

G'azoda bedovning dumi suzildi,
Yig'lay-yig'lay narkaslarim¹ ezildi.
Nimaga yig'laysan, qadding bukilib,
Bachchajon, nimaga ko'ngling buzildi?

Bir Xudoyim judolikni soldimi?
Men bilmayin ranging gulday so'ldimi?
Nimaga yig'laysan, qadding bukilib,
Ahmadbekdan yomon xabar keldimi?

Bog'da ochilgan qizil guling so'ldimi?
Yo yomon so'z yurak-bag'ring tildimi?
Osha yurtga ketgan tog'ang o'ldimi?
Tog'ang o'lib yomon xabar keldimi?

Podsholar elidan olar bojini,
Mard yigit tarafdin² olar o'chini.
Sen yitlading menda toqat qolmadi,
Chirog'im, ayt, yig'laganing vajini!

Go'ro'g'libek Xoljuvondan bu so'zni eshitib, bir so'z dedi:

Gap chiqadi Go'ro'g'lining tilidan,
Qutulmadim g'ariblikning hilidan³.
Men yig'lamay kim yig'lasin, chechajon?
Bir mehmon kelibdi Zargar elidan.
Mehmon kepti shahri Zargar elidan,
Yurib kepti changib yotgan cho'lidan.
Qo'ndirarga menda vatan bo'lmasa,
Mehmon kepti Rustambekning qo'lidan.

¹ Narkas – nargiz. Bu yerda nargiz ko'zlarim ma'nosida kelgan.

² Dushmandan.

³ Olovidan.

Hamishaday Ravshan otam bo'lmasa,
Aylanay deb bo'ynima qo'l solmasa,
Aziz mehmon kepti meni so'roqlab,
Qo'ndirarga menda vatan bo'lmasa,

Mard yigit dushmandan olar o'chini,
Chin suluvlar burab qo'yar sochini.
Qo'ndirarga mening uyim bo'lmasa,
Yig'laganim mening shuning uchuni.

Buni eshitib, Xoljuvon Go'ro'g'libekka bir so'z dedi:

Harna bo'lsa mehmoningman¹ bo'layin,
Bu kallamni etagiga solayin,
Olib kelgin, chiroqqinam mehmonni,
Tos-tepamdan siljib xizmat qilayin.

Ot, qo'y kechgan suvlar loylansin,
Qasd qilgan g'animning qo'li boylansin!
Mehmoningdan tanda jonim sadag'a,
Mol-dunyo mehmoningdan aylansin.

Eshitgin, chirog'im, mening zorimni,
Ko'rsatgin op kelib kirdikorimni!
Shu vatanlar, chiroqqinam, sizniki,
Olib kelgin, sarf etayin borimni!

Erning boshida bordir o'dag'a²,
O'lim navbat emish shohi gadoga.

Darrov olib kelgin, qaynim, mehmonni,
Mehmoningdan tanda jonim sadag'a!

Bo'xcha-chigin o'n besh yashar qizniki.
Oppoq ko'llar turna bilan g'ozniki.

¹ Mehmoning bilan.

² O'dag'a – «o'tov og'asi» – boshliq, yetakchi, ulfatboshi, sarkor.

Mehmoningni olib kelgin, chirog'im,
Naqqoshli¹ uylar bari sizniki!

Go'ro'g'libek Xoljuvon chechasiga hiyla qilib, bir so'z degan edi. Xoljuvon hiylani bilmadi.

Go'ro'g'li: «Har nima bo'lsa, baytaldan bir xonazot olayin» – deb, aqli-hushi baytalda bo'lib shuytib yolg'on so'zlarni rostday so'zlab yotib edi.

Ana shunda Go'ro'g'lining aytgan so'zi budir!
Bilmaganing bildirayin bilmasang,
Chechajon, maqsadga yetgin o'lmasang!

Bir gapim bor sizga aytay Xoljuvon,
Tag'in ham ko'nglingga og'ir olmasang!

Bog'larda tebrangan olma, normidi(r)²,
Qatorga tirkalgan lo'kcha³ normidi(r),
Bir gapim bor, sizga aytay, chechajon,
Yaxshi otli bir tomiring bormidi?

Uzangiga oyog'ini tiraydi,
Davlati bor shol sallani o'raydi.
Bo'lavachchang, tog'avachchang bormidi?

Gulshan bog'da, ostida yaxshi oti.
Xoljuvonoy, o'zingizni so'raydi.
Bedov otli qarindoshing bormidi?

Xoljuvonoyim labini tishlab, ichin tortdi, Go'ro'g'liga qarab, bir so'z dedi:

Arosat maydonda otni yelibdi,
O'tkir olmosin qo'lga olibdi.
Darvozaga qulfni solgin, chirog'im,
Jun bosgan Rayhon arab kelibdi!

¹ Naqqoshli – naqshlangan.

² Nor – anor.

³ Lo'k – 1) yuk tashiydigan tuya; 2) erkak yosh tuya.

Yosh o'g'lon quloq solgin so'zima,
Yig'lay-yig'lay yosh yog'ilar yuzima!
Voy, jun soqol Rayhon arab kelibdi,
Yetti yoshdan beri xushtor o'zima.

Yig'latar elingda u bir nechangni,
So'ldirar bog'larda guli g'unchangni.
Shirvon eldan Rayhon arab kelibdi,
Olib ketar Xoljuvonday chechangni.

Yosh o'g'lonsan o'zingni bo'zlatar,
Oti ildam joyrog'ini xezlatar¹.
Yonashirma² jun soqolni bu yerga,
Xoljuvon chechangni op qochib ketar!

O'ylasam, kun qiyomat bo'libdi,
Tog'larning boshini tuman olibdi.
Shirvonning podshosi Rayhon arab,
O'zi polvon, meni izlab kelibdi.

Quloq solgin menday bebaxt tiliga,
Beklardayin po'ta boylar beliga!
Darvozalarni mahkam qil, Go'ro'g'li,
Olib ketar meni Shirvon eliga!

Go'ro'g'li aytdi:

– E Xoljuvonoyim, men senga rostin aytayinmi? Sen Rayhon arabni bilar ekansan, lekin oti yaxshi ot, bedov ekan. Baytalimga qo'y deb edim, chechang o'z qo'lidan bir kosa suv bersa qo'yaman, dedi. Mana, gap – shu! Suv bersang, otidan bir xonazot choptirib olaman; suv bermasang zorim bor-u, zo'rim yo'q, qaqqayib qola beraman. Bu yog'ini o'zing bilasan, – dedi.

Shunda Xoljuvon:

– Meni olib ketadi-da, – dedi.

¹ Xezlamoq – tez harakat bilan oldinga intilmoq, tashlanmoq; hamla qilmoq; sapchimoq, sakramoq.

² Yaqinlashirma.

Go'ro'g'libek aytdi:

– Mening oyog'im uzangida turganda, checha, aslo g'am yema! Mening qo'limdan olib ketolmaydi.

Shuncha ulay-bulay deb Xoljuvonoyim har tarafga gapni qochirdi, so'ziga Go'ro'g'li ko'nmay xafa bo'ldi. Shunda Xoljuvon aytdi: «Go'ro'g'libekning so'zini qaytarib, qabul qilmasam, Ahmadbek tog'asi kelsa, sening xotining mening so'zimni qaytardi desa, sen Go'ro'g'libekning ra'yini qaytaribsan, deb, meni to'pga solib ottiradi yo miltiq bilan otib o'ldiradi». Har nima bo'lsa ham esli ayol edi, aytdi: «Go'ro'g'lining ra'yini qaytarib Ahmadbekning tayog'ini yeb o'lgandan yo o'larman, yo qolarman, bir kosa suv bersam berayin, Rayhon olib ketar yo olib ketmas».

Shunda Go'ro'g'libekka qarab:

– E Go'ro'g'libek, endi sening uchun har nima bo'lsam bo'layin. Mehmoningni olib kel, otini sening baytalingga qo'ysa, bir kosa suv berayin, – dedi.

Qora uy bor edi.

Xoljuvon: «Uyning ichida turaman, uy ichidan suvni beraman», – dedi.

Shunda Go'ro'g'li Rayhon arabni imladi.

Rayhon arab otining ustida turib: «Suv bersin», – dedi.

Go'ro'g'li:

«Otdan tushing, otni baytalga qo'yayin», – dedi.

Rayhon arab aytdi:

«Otdan tushmayman, ishim oshig'ich, darrov ketaman, baytalingni olib kel, shu turishda otni baytalingga qo'yaman», – dedi.

Go'ro'g'li baytalini yetaklab, Rayhon arabning oti oldiga olib kelib, tus qilib turdi. Rayhon arab, ot ustadan tushmay, otini baytalga qo'ydi.

Shu orada Xoljuvonga: – Suv ber! – dedi.

Xoljuvon bir kosa suvni uvuqning¹ orasidan Rayhon arabga uzatdi. Rayhon arab suvni olmay Xoljuvonning qo'lidan ushlab, silkib uvuqlarni sindirib, bir tortdi. Xoljuvonni uvuq

¹ Uvuq – o'tov va qora uy gumbazini tashkil etadigan, poyadan yo'nilgan xodachalar va ularning har bittasi.

orasidan uloqni surib olgan polvonlarday surib oldi.

Shu orada oti Go‘ro‘g‘lining baytaliga chopib turgan edi, Rayhon arab otining jilovini ikki qo‘li bilan ushlab turgan edi. Shunda jilovini qo‘yib yuborib, Xoljuvonni go‘sam¹ takaday qilib oldiga o‘ngarib oldi. Otining jilovini qaytarib baytaldan tushirib oldi-da, jo‘nab keta berdi. Go‘ro‘g‘li qarasa, Rayhon arab Xoljuvonni o‘ngarib olib ketayotibdi. Xoljuvonning po‘pagi Rayhon arabning biqinidan o‘tib, borayotibdi. Go‘ro‘g‘li qo‘liga qora uyga tirab qo‘yadigan boqon² yog‘ochni kaltak qilib oldi. Baytalni irg‘ib minib: «Chuv-ho, chuv-ho, chuv!» – deb qo‘ya berdi. Ana-mana deguncha Rayhon arab otining qorasini oldi. Rayhon arab juda uzab ketgan edi. Shunday bo‘lsa ham, baytalni qistab chopib, tekis yerda Rayhon arabga yetib, otning dumidan bir tol, ikki tol qilini yulib olib borayotir. Lekin yomon qir yo toshloq tob³ yerlar kelsa, keyinroq qolib borayotibdi. Bu baytal ham tulpordan tug‘ilgan baytal edi. Shuytib o‘ttiz tosh yo‘lga quvib ketdi. Tajan daryosining u boshidan bu boshi bir tosh edi. Rayhon arab tikka borib, chuv deb otini daryoga tiklatib soldi. Oti daryodan qirq gaz nari irg‘ib o‘tib ketdi. O‘tib turib Rayhon arab otini taqqa to‘xtatdi. Go‘ro‘g‘li ham tiklatib, baytalni daryoga soldi, baytal baytallik qilib o‘tolmay qoldi. Shuncha qildi, irg‘imadi. Buni ko‘rib Rayhon arab kulib, Xoljuvonning u yer bu yeridan ushlab, bo‘ksalariga qo‘li bilan shapatilab, Go‘ro‘g‘liga qarab turdi. Go‘ro‘g‘li buni ko‘rib, rangi somonday sarg‘ayib, gulday so‘lib, xafa bo‘lib:

«Har nima bo‘lsa bo‘ldi», – deb qarab turdi.

Shunda Rayhon arab Go‘ro‘g‘liga qarab malomat qilib, bir so‘z deda:

Yurgan yerim bo‘tako‘zli jo‘nag‘ar,
Nayza tegsa, oq badandan qon oqar.
Olib ketdim Xoljuvonday chechangni,
E, hok, e hok terda qolding, enag‘ar!

¹ Go‘sam (ko‘sam) – qo‘ylarni yetaklab yuruvchi yetakchi katta serka.

² Katta va yo‘g‘on.

³ Tob – haydalgan yerda omoch bilan chizib ajratilgan dala.

Yig'latdim elingda men bir nechangni,
Ochilmay so'ldirdim borda g'unchangni.
Olib keldim, la'l munchoqli chechangni,
Hayron qildim senday yetim bachchangni.
Yet-da, ol-da, quv-ho, quv-ho, enag'ar!

Talato'p qip keldim, Turkman shahrini,
Vayron qildim, shohning kirdikorini,
Olib qochdim Xoljuvonday parini,
Hiyla bilan oldim Ahmad yorini,
E hok, e hok, terda qolding, yetimak!

Firib bilan olib qochdim chechangni,
Yet-da, ol-da Xoljuvonday oyimni!
E hok, e hok terda qolding, Go'ro'g'li.

Bahorlar sayraydi bog'larning guli,
Yangi tushdi senga taraflik¹ hili.
Olib keldim jodu ko'zli chechangni,
Dod degizdim Yovmit elda nechangni.
E hok, e hok terda qolding, Go'ro'g'li.

Bu so'zni Go'ro'g'li Rayhon arabdan eshitib, terda qolib, baytalidan behush yiqilmoqchi bo'lib, yana tarafning² oldida o'zini bildirmay dolbiratmadi³.

Go'ro'g'li ham Rayhonning jonidan o'tkazib, o'xshatib bir so'z dedi:

Menga ham qarasha bir parvardigor,
Uch yil Go'ro'g'li yoshini to'kar.
Yashirincha qizingni olib kelarman,
Tavba deb yoqangni ushla, zanag'ar!

Kuydirarman sening xonazotingni,
Vayron qip naqqoshli makoningni.
Op kelarman, sening Zaydin joningni.

¹ Dushmanlik.

² Dushmanning.

³ Dovdiratmadi.

Shirvon elni olov qo'yib kuydiray,
Har shaharga e'lon xat qip yozdiray,
Chin oti Xumordi, laqabi Zaydin,
Olib kelib, Ahmadbekka suydiray
Ko'ppak kuchukdayin qurma, zanag'ar!

Qirq yigit beklarim o'ltirganida,
Olib kelib Zaydinoyday qizingni
Har maylisda anga¹ maylar quydirib,
Qilib qo'yay beklarima xizmatkor!

Nonni katta tishlagin,
Gapni katta gapirma!

So'z orqasin o'ylagin,
Yuzing tuman bo'lib qolar, bachchag'ar!

Uch yilda toyimni ot qip minarman,
Boshingga yo'q savdolar solarman.
Uch yilda borarman Shirvon elingga,
So'zingni ichingda saqla, tarafim²,
Oy Zaydin qizingni olib kelarman!

Arosat maydonda otim yelarman,
Ne-ne savdolarni senga solarman,
Sening so'zing suyagimni o'rtadi
Ham Xoljuvon, ham Oy Zaydin qizingni,
Op qochib, lotimni olib kelarman!

Hali hozirga xushvaqt qilding o'zingni,
Yunglari yelpillab turgan yuzingni.
Podadayin bo'kirmagin zanag'ar,
Op kelarman Zaydinjonni – qizingni!

¹ Unga.

² Dushmanim.

Yoz garimsel¹, qishda bo‘ron bo‘lmaymi²?
Besh kun davron odamzodga kelmaymi³?
Shu gaplarim boshlaringga tushganda,
Senday ko‘ppak tiriklayin o‘lmaymi⁴?

Turkman elga siylov po‘stin kiydiray,
Elatimdan labbaklarimni yig‘diray.
Uch yilda op kelib, Zaydin joningni,
Qartayganda Ahmadbekday tog‘ama,
So‘lqillatib Zaydinoyini suydiray.

Eshit ko‘ppak, Go‘ro‘g‘lining ohini,
Andankay⁵ yig‘ay elning katta biyini.
Ahmadbekka Zaydinni xotin qilib,
Quda deb aytarman elga o‘zingni.
Kelib yersan Zaydinoyning to‘yini.

Rayhon arabning bu so‘zga juda achchig‘i keldi, badanlaridan nishtarday o‘tdi. «Daryodan o‘tib, bu enag‘arning kallasini sapchaday qilib uzib tashlasammi», – dedi. Yana o‘ziga-o‘zi o‘ylab aytdi. «Bu bola ekan, ming nina bir juvoldiz⁶ bo‘lmaydi, yuz kalta kasratki⁷ bir ilon bo‘lmaydi, cho‘bir ot bo‘lmaydi, qirchang‘i baytal tulpor tug‘maydi. Men bilan Go‘ro‘g‘li barobar bo‘lami⁸, Go‘ro‘g‘li bilan barobar bo‘lib yuraymi? Bu odam bo‘lganda mening bilan barobar bo‘lolmaydi. Baytalga bo‘lsa, otimni o‘xshatib choptirmadim. Mening yurtimga kelolmaydi», – deb Xoljuvonning u yer, bu yeridan ushlab, ko‘zing ko‘rsin deb, ko‘z-ko‘z qilib, orqasiga qarab jo‘nab ketdi.

Go‘ro‘g‘libek xafa bo‘lib, daryodan o‘tolmay: «O‘lmasam seni bir ko‘rarman», – deb o‘z eliga borolmay, shahriga

¹ **Garmsel** – issiq shamol.

² Bo‘lmasmi.

³ Kelmasmi.

⁴ O‘lmasmi.

⁵ Undan keyin.

⁶ **Juvoldiz** – qop tikish uchun ishlatiladigan yo‘g‘on, egik igna.

⁷ **Kasratki** – kaltakesak.

⁸ Bo‘ladimi.

kirolmay, Bolli ko'liga qarab ketdi. Shu ko'llarda baytalni boqib yura berdi, lekin uyiga kelolmaydi. Tong qorong'isi boylar cho'ponlarining nonini tortib olib yeydirgan bo'ldi. Cho'ponlar, podachilar non-oshlarini dalaga chiqarib yeyolmadi. Go'ro'g'li shu tariqa kun o'tkarib yura berdi.

Bir kunlari Ahmadbekning suyunchixo'ri:

«Ahmadbek osha yurtdan keldi», – deb, kelib qoldi.

Elati Xoljuvonna Rayhon arab olib ketganiga ko'p xafa bo'lib turganlarining ustiga Ahmadbekni keldi, deb eshitib vaqti xush bo'lib Urayxon podshodan boshqa hammalari Ahmadbekning oldiga peshvoz chiqib ketdilar. Ahmadbekning oldiga yetib, salom berib, hol-ahvol so'rab ko'rishdilar. Ahmadbek qarasa yig'ilgan, kelgan odamlarning ichida Go'ro'g'libek ko'rinmadi. Ahmadbek Xolmat, Olmat beklarga qarab, Go'ro'g'lini so'rab, bir so'z dedi:

Hamma bekni ko'rdim sog'-u salomat,
O'ligim egasi – Go'ro'g'li qani?

Bir-biringga yuringlar deb so'ylading,
Bellaringga tilla kamar boylading.
Sog'-salomat baring kelding oldima,
Yurt egasi – Go'ro'g'lini naylading¹?

Bormikan dunyoda bir bag'ri butun,
Sinmagay-da uchqur bo'lgan qanotim.

Salom berib baring chiqding oldima,
Qani mening Go'ro'g'libek farzandim?

Ko'lga chiqib dobilling² tuydingmi?
Oltin piyolaga maylar quydingmi?
Zargar eldan kelgan, sen yetim deyib,
Birga op kelmay yo ketinga qo'ydingmi?

¹ Nima qilding.

² **Dobil**, – dovul, katta nog'ora.

Yig'laganda yosh yog'ilar yuzima,
Enkaysam, oq yuzim tushar tizima¹.
Sog'-salomat ko'rdim men hammangizni,
Go'ro'g'libek ko'rinmaydi ko'zima.

Bu so'zni Xolmatbek, Olmatbek va barcha beklar eshitib, barisi to'dalashib, maslahat qilib aytdilar:

– Go'ro'g'libekni bir odam ziyofatga olib ketgan edi.

Ahmadbek:

– Turinglar, darrov Go'ro'g'lini olib kelib, mening ko'zimga ko'rsatinglar! – dedi.

Shunda ellik choqli odam birdan chopishib, Bolli ko'lga ketdilar. Go'ro'g'libekning oldiga yetib borib, salom berdilar. Go'ro'g'li ham alik olib, salom berdi. Shu orada Go'ro'g'libek o'n ikki yoshga kirgan edi.

Haligilar:

– Ahmadbek sizni ko'rmay, bizlarni g'azab qilib, Go'ro'g'lini olib kelinglar deb yubordi, – dedilar.

Shunda Go'ro'g'li aytdi:

– Elda hech bir gap-so'z, maslahat bo'ldimi?

Bulardan biri aytdi:

– Hammaning ham ko'ngli qora.

Go'ro'g'libek:

– Urayxon podsho, elni yig'amiz, ko'pchilik lashkarni uyamiz, Go'ro'g'lini sardori lashkar qilamiz, Shirvonning eliga askar tortib boramiz, Rayhon podshoni o'ldiramiz, Xoljuvonning lotini olamiz, xazinasini barcha askarlarga talatamiz, deb aytmadimi? Men maslahat bo'lar, deb har kuni poylab yotibman. Xabar yo'q, – dedi.

Kelgan odamlardan birovi aytdi:

– Unday choq² so'z, maslahat bo'lgan yo'q.

Go'ro'g'libek: «Benomuslar», – deb so'kib-so'kib bir xilini o'ldirib, bir xillarini qo'lini burab sindirib qoldi, qolgani qochib. shaharga kirdi. Go'ro'g'libek darvozagacha quvib kelib yana orqasiga qaytib, shaharga kirmay, bu daf'a Xuroson degan

¹ Tizzamga.

² Choq – chog', ma'qul.

bir ko‘l bor edi, shu ko‘lga borib yotdi. Go‘ro‘g‘libekni Xuroson ko‘lida qo‘ying. Endigi so‘zni haligi, Go‘ro‘g‘lining qo‘lidan omon qolib, yarador bo‘lib kelgan beshtasidan eshiting: beshtaning ichidan Jonolibek degani Ahmadbekning oldiga borib, bo‘lib o‘tgan so‘zlarni bayon berib, bir so‘z dedi:

O‘tar dunyo qiyomatni o‘ylayik,
Omonatdir tanda jonni qiynayik!
So‘zima quloq sol, elning og‘asi,
Bir gap bor, sizga bayon aylayik!

Rayhon arab bedov otin yelibdi,
Kun qiyomat bir nechaga bo‘libdi.
Ani aytsam, tagi bejoy ko‘p yomon,
Bir alomat elga savdo solibdi.

Go‘ro‘g‘libek baytal yetalab¹ yuribdi,
Ochilgan bog‘lardan gulni teribdi.
Bog‘ maydonida bo‘ylab yurganda,
«Sen kimsan?» – deb yung soqolni ko‘ribdi.
Uzangisiga oyog‘ini tirabdi.

Davlati bor yakshi salla o‘rabdi.
Borib turib shu yung bosgan arabdan,
Eli bilan mazhabini so‘rabdi!

Oltin piyolaga mayni quy, debdi,
Ko‘lga chiqib doilingni tuy, debdi,
Ulay-bulay², qilib shunda arabga,
Baytalima otginangni qo‘y, debdi.

Yo‘q savdoni shu qizig‘ar solibdi,
Kun qiyomat Turkman elga bo‘libdi.
O‘zi bachcha, Go‘ro‘g‘libek nodondir,
Olib kelib uyda mehmon qilibdi.
Otini baytalga irg‘itibdi,

¹ Yetaklab.

² Unday-bunday.

Shu zanag'ar achchiq qamchi chotibdi¹.
Bundan ortiq sitam bormi Ahmadbek,
Xoljuvonnini olib qochib ketibdi.

Go'ro'g'lining aqllari shoshibdi,
O'zi quvib katta yo'lga tushibdi.
Ot to'zoni Qulo cho'lni tutibdi,
Tajan daryosiga qistab yetibdi.

Go'ro'g'libek xo'p quvibdi cho'llarda,
Ildam ekan yung soqolning tulpori.
Tajan daryosidan irg'ib o'tibdi.
E hok, e hok, deyib Go'ro'g'libekni,
Kalaka qip Xoljuvonday oyimni,
Olib qochib Shirvon elga ketibdi.

Go'ro'g'libek xafa bo'lib zor yig'lab,
Bolli ko'lda hali bo'zlab yotibdi.

Ahmadbek «Go'ro'g'libek kelmadi», – deb achchig'i kelib o'ltirib edi. Bu so'zni Jonolibekdan eshitib: «Xayr, taqdir-da», – deb parvoyiga kelmadi.

Lekin bular Go'ro'g'lining yo'lda urib, so'kib ketganini Ahmadbekka aytmedi. Ahmadbek o'ltirgan odamlarga qarab bir so'z dedi:

Otga yo'l bermaydi tog'da o'ralar,
Nayza tegsa, oq badanni yaralar.
Olib kenglar Go'ro'g'libek o'g'limni,
Xotin o'ldi, qamchi sindi, yoronlar!

Bedov mingan o'rdan qirga chopinar,
Olib kenglar Go'ro'g'libek bolamni,
Pulim bo'lsa, yaxshi xotin topilar.

¹ Chotmoq – zarb bilan urmoq, zarb bilan ketma-ket urmoq.

Tovus degan qush taranar qiyada,
Ne ko'rib kechirdim mana dunyoda,
Olib keling Go'ro'g'libek jonimni,
Xoljuvondan yor topilar ziyoda!

Iloyo, kechgan suvlar loylansin,
Baxt bersa, dushmanning qo'li boylansin!
Olib keling Go'ro'g'li sherbachchamni,
Ming Xoljuvon bir gapidan aylansin!

Yigitlar ichida o'zi o'dag'a,
Boshiga sanchilar tilladan jig'a¹.
Xafa qilmang Go'ro'g'liday yo'lbarsni,
Ming Xoljuvon bir so'zidan sadag'a.

Beklar minmaymikan qora bayirmi?
Otga berar arpa bilan iyirni².
Xushvaqt qilib jami turgan odamni,
Go'ro'g'lini op kenglar, deb buyurdi.

Davlati bor minar sap ildam otni,
Qulluq deb joyidan turib odamlar
Xushvaqt bo'lib yuragidan g'am ketdi,
Chopishib Go'ro'g'libek oldiga yetdi.

Borgan kishilar Go'ro'g'libekka qarab salom berib:

– Sizni Ahmadbek kelsin, Xoljuvon oyim uchun g'am
yemasin, xotin o'ldi, qamchi sindi, dedi, bizlar sizga keldik, –
deb Go'ro'g'liga qarab bir so'z dedi:

Ahmadbek kep Yovmit elni joyladi,
Beklar tilla kamar belga boyladi.
Go'ro'g'lini olib kel deb buyurdi,
Qilgan gunohingizni ozod ayladi.

¹ Jig'a – qimmatbaho toshlar va ukpar bilan bezatilgan, bosh kiyimga taqiladigan qimmatbaho taqinchoq, buyum.

² Iyir – dorivor o'simlikdan tayyorlangan otlarga beriladigan ozuqa.

Shirin tilman¹ odamlarga so‘yladi,
Oqadigan tiniq suvni loyladi.
Bizlar bilan yuring endi, qarindosh,
Qilgan gunohingizni ozod ayladi!

G‘ofil qolib karvonini ko‘chirdi,
Nechovlarga ajal sharbat ichirdi,
Endi bormasangiz yurtga bo‘lmaydi,
Qilgan gunohingizni Ahmad kechirdi.

Yovmit elda ko‘nglimiz bo‘lsin ravshan,
Dushman qursin, xili bizlarga yomon.
Bek Ahmadbek, op kenglar deb buyurdi,
Bizlar bilan billa yuring, bekjon!

Go‘ro‘g‘li ketdi saksovul oralab,
Borib oldi bittasini saralab.
Baytalini minib oldi Go‘ro‘g‘li,
«Ol o‘lding!» – deb qochdi odamlar chuvlab.

Tomosha aylang Go‘ro‘g‘lining ishiga,
Baytalini chopib Yovmit dashiga.
– Bitta qolmay baring qirilib qol, – deb,
Saksovulman² hadeb soldi boshiga.

Odamlarning aqlin shoshirib ketdi,
Chopon bilan salla cho‘llarni tutdi.
To‘p-to‘p qilib qarindoshin quvalab, –
Bittang qolmay baring birday o‘lgin, – deb,
Nechovlarni urib sulatib ketdi.

Baland-baland tog‘da bo‘lgan xumodi,
Men bilmayman toshib ketgan gunohdi,
Qizg‘aldoqday bo‘yab qo‘chqil qoniga
Quvib kirdi Yovmitning shahriga.
– Keldi! – deyishib darvozani qamadi.

¹ Til bilan.

² Saksovul bilan.

Ana shunda haligilarni urib, so‘kib, bir xilini o‘ldirguday mayib qilib bir xilini otdan ag‘darib tashlab, o‘zi darvozagacha quvib kelib, yana arazlab orqasiga qarab jo‘nab ketdi.

Tayoq yeganlar: «Ravshan ko‘rdan qolmay ketsin, Rayhon arab Xoljuvonnini olib ketmay ketsin», – deb Go‘ro‘g‘li-dan dod-faryod qilib yig‘lab, Ahmadbekka urganini aytmadilar.

«Go‘ro‘g‘li endi men Ahmadbekning oldiga bormayman, mening qarindoshim yo‘q dedi», – deb aytdilar. Go‘ro‘g‘lining kelmaydigan so‘zini Ahmadbek eshitib, juda xafaligi oshib, odamlariga qarab, bir so‘z dedi:

Har banda olgani bilan qarisin,
Ummon daryo to‘lib-toshib yurisin!
Menga o‘tdi bir farzandning qadri,
Dod-u faryod farzandsizlik qurisin!

Yovga chopar yigitlarning botiri,
Elga ko‘pdi¹ yaxshi odamning xotiri.
Hoy attang-a, farzandsizlik qurisin,
Qaytay o‘tdi bir farzandning qadri!

O‘z o‘g‘lim bo‘lganda kulmasmidi?
Qo‘lginasin bo‘ynima solmasmidi?
Otajon deb, iskalashib ko‘rishib,
Tizzamda otajon deb turmasmidi?

Hoy attang-a, g‘anim tushdi izima,
Yorug‘ dunyo qorong‘i bo‘ldi ko‘zima.
Tug‘maganning qaytay² mehri tosh ekan,
Farzandsizlik asar qildi o‘zima.

Hay attang-a, farzandsizlik mung‘ayib,
Somodayin ikki yuzim sarg‘ayib,
Hoy attang, armonli bo‘ldim Yovmitda,
Arkoni davlatim bo‘ldi besoyib.

¹ Ko‘pdir.

² Nima qilay.

Ko'z yoshini yengi bilan silaydi,
Kuygan odam gapni gapga ulaydi.

Ham Xoljuvon, Go'ro'g'lining azasi,
Mayiblarday qaddi bo'yi bukilib.
Ahmadbek, oh tootib bovlab yig'laydi.
Go'ro'g'li, deb ko'zdan yoshi tizilib.

Ahmadbek bu so'zni aytib, oh tortib, Go'ro'g'libek bilan Xoljuvonning azasini qilib, «Xoljuvon ketgan bo'lsa ham, Go'ro'g'libek kelganda edi, dimog'im chog' bo'lar edi, arazlab kelmasa, menga dunyo, mol, pul, davlat, kattalik kerak emas», – deb xafa bo'lib, yotib qoldi.

Buni yotmoqda qo'yib, endi Go'ro'g'lidan eshiting:

Go'ro'g'li ko'lga borib yura berdi. Bir kuni qarasa, baytali bo'g'oz bo'lgan ekan, tug'moqchi bo'lib, tipirlab yotdi.

Shunda:

– E jonivor, har nima tug'sang, erkak tug', – dedi. Go'ro'g'li juda shoshdi. Qulunni quchoqlab olib, yerga sira qo'ymaydi, baytalga yalagani bermaydi. «Yerga qo'ysam, yer-ning izzasi¹ buning badanidan o'tib ketadi», – deydi. Kechasi bo'ldi, o'zining kiyim-kechagini qulunning ustiga yopib oldi. Lekin qulun oyoqlanmay, juni chiqqunday bo'lib turibdi... Go'ro'g'li har zamon burnini ushlab qarasa, burnidan dami keladi. «Jonivorning joni bor ekan», – deb vaqti xush bo'lib turdi. Shu ko'rgilikda kun choshgoh bo'ldi, quluni oyoqlanib, o'rnidan turib yiqildi. Go'ro'g'li qulunni yana ko'tarib emizdi. Emib to'ygandan keyin oyoqlanib turdi. Yana emdi. Keyin oyoqlanib chopib, enasining u yog'idan, 6u yog'idan irg'ib o'ta berdi. Toyning enasi yalayin deydi, Go'ro'g'li qo'ymaydi, enasi bilan talashadi. Go'ro'g'li bilan qulunning enasi talasha-talasha shu orada yetti kun o'tdi. Shunda Go'ro'g'li baytaliga achchig'i kelib, baytalining burniga bir mushtladi. Baytal o'lib qoldi.

Buning o'lganini ko'rib Go'ro'g'libek ko'p xafa bo'lib, «Men ham yetim, sen ham yetim bo'lding», – deb yetim toy bilan

¹ Zaxi.

so'zlashib, zor-zor yig'ladi. Toyini boqa berdi:

Qo'yning sutin beradi,
Qo'yday yuvosh bo'lsin deb.

Echki sutin beradi,
Yordan¹ o'ynab yursin deb.

Tuya sutin beradi,
Bo'yni uzun bo'lsin deb.

Sher sutini beradi,
O'mgani² keng bo'lsin deb.

Yo'lbars sutin beradi,
Yo'lbarsday zo'r bo'lsin deb.

Olqor sutin beradi,
Tog'da o'ynab yursin deb.

Kiyik sutin beradi,
Kiyikday sakrab yursin deb.

Quyong sutin beradi,
Quyunday chaqqon yursin deb.

Qulon³ sutni beradi,
Cho'lda mahkam bo'lsin deb.

Filning sutin beradi,
Yerda pishqirib tursin deb.

Karkning⁴ sutin beradi,
Hamma jondor qo'rqsin deb.

¹ Jar.

² O'mgan – ko'krak.

³ Qulon – 1) otdan kichikroq, eshakdan kattaroq, otdan ko'ra ko'proq eshakka o'xshab ketadigan yovvoyi hayvon; 2) yovvoyi ot.

⁴ Kark – 1) yovvoyi tuya; 2) karkidon; 3) erkak tuyaning bir turi.

Qunduz sutin beradi,
Suvda yuzib yursin deb.

Baliq moyin beradi,
Suvga sho'ng'ib ketsin deb.

Qush yuragin beradi,
Qushday uchib ketsin deb.

Qoplon sutin beradi,
Qoplonday botir bo'lsin deb.

Tulki sutin beradi,
Tulkiday suzib ketsin deb.

Tozi sutin beradi,
Qushga quvib yetsin deb.

Burgut bovrin¹ beradi,
Burgutday g'ajir bo'lsin deb.

Tuyg'un² bovrin beradi,
Martabali bo'lsin deb.

Shunqor³ bovrin beradi,
Tepib o'tib ketsin deb.

Lochin bovrin beradi,
Tishlab qiyib o'tsin deb.

Dinor bovrin beradi,
To'ndi qiyib o'tsin deb.

Quzg'un yuragin beradi,
Umri uzoq bo'lsin deb.

¹ Jigarini.

² Tuyg'un – qarchig'aysimonlar oilasiga mansub qirg'iy yoki qarchig'ayning erkagi.

³ Shunqor – lochinsimonlar oilasiga mansub yirtqich qush.

Maymun sutin beradi,
Ko'p o'yinchi bo'lsin deb.

Go'ro'g'li yoshini to'kdi, qaddi bo'ynini bukdi. Tag'i olti oy boqdi, bundan boshqa ermagi yo'q. Lekin hamma gapga o'rgatdi. Jonivor juda ziyrak, dono bo'ldi, hamma ishni, tilni bildi. Tusdan, badandan, aft-basharadan hech bir kamligi qolmadi. Rayhon arabning otiga o'xshaydi, balki buning ikki yog'i ham tulpor. Rayhonning tulporidan necha hissa ziyoda bo'ldi.

Go'ro'g'libek toyidan ko'ngli to'lib: «Bir sinab ko'ra-yin», – dedi, Shunday qarasa, bir qora kuchuk oldidan o'tib ketib boradi. Go'ro'g'libek toyga uzalib minib oldi. Haligi kuchukning orqasidan quvib yerga uzalib, ikki oyog'idan ushlab, uloq qilib, och biqinidan oyog'ini oshirib oldi, ko'z ochib yumguncha besh olti qirdan oshib ketdi.

Shunda kuchuk jonidan to'yib, achchig'idan toyning mushak etidan tishlab, nimcha¹ go'shtini yulib oldi. Toy cho'chib ketdi. Go'ro'g'li qarasa, kuchuk toyning mushak etidan yulib olibdi. Buni ko'rib kuchukni yerga otib tashladi. Ildam chopgandan kuchuk o'lib, mayda-mayda bo'lib ketdi.

Go'ro'g'li toyidan tushib, choponining o'ngaridan² yulib olib, kuydirib toyining kuchuk tishlagan yeriga surtdi. Obbo jonivor toyim, deb xafa bo'ldi.

Shu ahvolda yurib edi, buni Xizr bildi.

U:

– Go'ro'g'libek endi toyni chopib yomon o'rgandi. Yana bir chopsa, qizil moy qilib, ishdan chiqarib qo'yadi. Buning toyini olib kelay, o'zim boqib beray, bo'lmasa Go'ro'g'libek otsiz bulib qoladi, – dedi.

Shu orada Yovmitning podshosi Urayxon o'lib qoldi. Hamma endi kimni podsho qilamiz, deb maslahat qildilar, hamma birdan Go'ro'g'lini podsho qilamiz, deb maslahat qildi.

¹ Nimcha – taxminan yarim kilogramm og'irlik.

² Etigidan.

Sakkiz chor hokim¹, o'n to'rt muhrdor², to'qson olti tug'dor³, o'ng otalik, chap otalik vazirlar, qozi kalon, muftilar yig'ilishib Go'-ro'g'lining oldiga bordilar. Salomalik qilib, Go'-ro'g'li bilan ko'rishdilar. Go'-ro'g'li shunda o'n uchga kirgan edi. Kelgan vaznr, sipohilar Go'-ro'g'liga aytdi:

– E, Go'-ro'g'libek, Urayxon podsho o'ldi. hamma orqasirtingizdan sizni podsho qildi.

Go'-ro'g'libek aytdi:

– Xo'p qilibsizlar, yaxshi qilibsizlar, – deb aks gapirdi. – Podsho bo'ladiganing qatorda nori bo'ladi, xazinada zari bo'ladi, ertan choy, oqshom palov, rang-barang sarpoyi bo'ladi, hamisha fuqarolarga berib turadigan chuloni⁴ bo'ladi, sarkardalarga beradigan semiz chori⁵ qo'yi bo'ladi. Go'-ro'g'lining bir toyi bor. Podsho qilamiz, deb buni ham so'yib yegilaring keldimi? Sizlarning aldaganlaringga ko'nadigan o'zbek men emas. Men sizlarning tishlaringizni tosh bilan urib sindiraman, – dedi.

Shuytib, Go'-ro'g'li kelgan odamlarni hadeb quva berdi. Avval-avval dastorlarini, so'ng-so'ng choponlarini tashlab qochdi. Go'-ro'g'li yetib, hammalarini urib, badanlarini ko'kartirib, boshlarida yorilmagan yerlari qolmadi. Hammalarini oldiga solib, shaharning darvozasiga haydab borib, orqasiga qaytdi. Qochib kelgan vazirlar, otaliq, beklar podshoning o'rnida o'tirgan barcha ulug' sipohilarining oldiga borib, Go'-ro'g'libekdan ko'rgan zahmat, kulfatlarini aytdilar.

Bular: «Endi bunday bo'lsa, qanday qilamiz», – deb hayron bo'lib yura berdi.

Oradan bir necha kun o'tdi.

Go'-ro'g'libek:

«Men tunov kun juda qiziq qilib, kelgan vazirlarni, beklarni, otaliq, bakovullarni xafa qildim. Kel-e, endi o'zim borib bu beklar, vazir-akobir, sipohilar, barcha amaldorlarning

¹ Chor hokim – Buxoro amirligida to'rt oliy mansab: qozi, rais, amaldor, mirshab.

² Muhrdor – xon, amirlar saroyida muhr saqlovchi amaldor.

³ Tug'dor (tug'begi) – podsholikning tug'-bayroqlarini nazorat qiluvchi mansabdor.

⁴ Chulon – ertalabki choydan ilgari nahorda beriladigan issiq ovqat. Dostonlarda tasvirlanishicha, chulon tuzsiz tayyorlangan.

⁵ Chori – to'rt yashar. Chori qo'y – to'rt yashar qo'y.

oldidan o'tib, vaqtini xushlab kelayin», – deb o'zidan-o'zi podsholikka kirib qoldi. Buni ko'rib, hamma odam bardor-bardor qilib, hammasi birdan o'rnidan turib yugurib kelib, Go'ro'g'libekni ko'tarib, podsholikning tilladan bo'lgan imoratiga olib kirib ketdi. Toyini tashqarida toshdan bo'lgan yakka mmxga bog'lab qo'ydi. Go'ro'g'libek bular bilan so'zlashib o'tirib tursin. Hazrati Xizr har kuni Go'ro'g'lining toyini olib ketmoqchi bo'lib yurar edi. Lekin Go'ro'g'libek toydan ayrilmas edi. Bu kuni ko'rsa, Go'ro'g'libekning toyi qoziqda bog'log'li turipti. Astagina toyni yetaklab olib chiqib ketdi. Hech kim bilmay qoldi. Toyni olib Afsar toqqa yetdi. Toyni qo'yib yubordi. U o'tlab yura berdi.

Toyni o'tlab yurmoqda qo'ying, endi Go'ro'g'libekdan eshiting: Go'ro'g'libek eshikka qarasa, toyi yo'q. Chopib chiqib toyni axtardi, topolmadi. Shunda podsholikning sakson tablaxonasini axtarib ko'rdi. Tablaxonada ham yo'q. Shunda raisning darrasini tortib oldi. Katta-kichik demasdan odamlarning hammasini ura berdi. Odamlarning go'shtlari qop-qora bo'lib uchib ketdi.

– E ahmoqlar, men shu toyimni ot qilib minar edim, Rayhon arabdan lotimni olar edim, Zaydinoyni olib kelib, Ahmadbekka berar edim. Sizlarning, podsho qilamiz, deb mening toyimni so'yib yerlaringizni bilib edim, – dedi. Shunda ular:

– Bizlar sira ko'rganimiz yo'q, qayoqqa qarab ketdi bilmay qoldik. Bizlar ham hayron bo'lib qoldik, – deb Go'ro'g'libekka ko'p uzrlar aytdi. Go'ro'g'libek, arazlab Yovmit shahridan dalaga toyni axtarib chiqib ketdi. O'tday tutashib: «Hu!» – deganda og'vidan o'tlar sochilib, bo'zlab, goh yig'lab keta berdi, Go'ro'g'libek xor-zor yig'lab o'z ahvoliga qarab, bir so'z dedi:

Qaytayin, qarindosh soldi voyimni¹,
Menda otajonginam bo'lmasa...
Seni podsho qilamiz, deb
Yeb qo'ydi yetim toyimni.

¹ Voyim – vahm, vahima.

So'ndirdi bog'da gulimni,
Ko'rmayman Yovmit elimni,
Qiron qildilar kunimni,
Seni podsho qilaman, deb,
Yeb qo'ydi yetim toyimni.

Bo'taday bo'zlab yig'larman,
Siyna bag'rimni tuzlarman,
Bor kechdim qarindoshimdam.
To'rt podshoning shahrini,
Qalandar bo'lib izlarman.

Uh, ho, uh, kuyib o'rtandim,
Dod yomonning dastidan.
Yeb qo'yda yetim toyimni
Toyim izlab qalandarman.

Go'ro'g'li o'tday tutashdi,
Yetim toydan adashdi.
Ingranib yo'llarga tushdi.
Necha soy, qir-jardan oshdb,
Toyim deb yuragi shoshdi.

Gohi yo'ldan, gohi cho'ldan,
Yilqi bilan cho'ponlardan,
Bir kun toyni ko'rdingmm, deb
Mard Go'ro'g'li so'radi.

– Yetim toyimni urlatdim¹
O'g'rilar yetalab ketdi.
Ko'rdinglarmi ko'k toyimni?
Turkmanni oralab ketdi.

Tuxumi qozoqni so'ratdi,
Topolmadi aziz otini,

¹ Urlamoq – o'g'irlamoq.

Jarchilar qo'yib qichqirdi,
Qoraqiston¹ elni so'rab,
Undan Nurotaga yetdi.

Chashmaning boshiga keldi.
Mang'it bilan Kenakasdan,
Boqirg'on, Samarqanddan,
Qirq bilan Juzadan Xitoy,
Qipchoq ul Muytandan,
Xalfa turkman yig'ilishib,
Ziyoratga borib qoldi,
Go'ro'g'libek ko'ringandan,
Yetim toyni so'rab yotdi.

Daragin topmay G'irotining
Nurotadan chiqib ketdi.
Nurotadan Sentop yetdi
Undan Bag'dodga o'tdi,
Jizzaxning elin so'ratdi,
Issiqladi, kuyib ketdi.

Har kimni ko'rsa so'ratdi,
Undan Zominga yetdi.
Qirq sonli Baroqxonning yurti,
O'ratepaga yetdi.

Bozorga kelganlardan,
Yetim toyni so'rab yotdi.
Topolmay ko'k toy daragin,
Xovosdan o'tib ketdi.

Undan Sirdaryoga yetdi.
Kemaga tushgan odamdan,
Bir ko'k toyni ko'rdingmi, deb
Ko'ringandan so'rab ketdi.

¹ Qoraqalpog'iston.

Shaharning ichiga kirib,
Bir tanga meshkopga berib
Yetim toyni ko'rdingmi, deb
Toshkent shahrin so'ratdi.

Jarchilar qo'yib qichqirdi.
Ko'k toydan xabar topmay,
Yuraklari kuyib-yonib,
Undan Zarkat tog'dan o'tdi,
Qirg'izni oralab ketdi.

Topolmada G'irotni.
Qirg'iz bilan To'qmoqlidan,
– Yetim toyim, – deb so'ratdi.

Voy, voy, yomon o'lsin, deb
Undan o'tib, Qo'qon yetdi.
Topolmayin ko'k toyini,
Marg'ilonga qarab ketdi.

Marg'ilon elni so'ratdi.
O'g'risi ko'p, kazzobi ko'p,
Borib turib so'rayin deb,
Sim degan shaharga yetdi.

O'g'rillardan yetim toy deb,
Go'ro'g'li polvon so'ratdi.
Yana topmay daragini,
Undan Andijonga o'tdi.

Andijondan darak topmay,
O'shga qarab jo'nab ketdi,
O'shga borib uch kun yotdi,
Ko'ringandan so'ratdi,
Topolmadi G'irotni,
Undan Olay qirg'iz yetdi,
So'ray, so'ray Go'ro'g'libek

Qashqarni oralab ketdi.
Tag'i oradan qirq kun o'tdi,
Ko'ringan odamdan so'rab,
Topolmayin ot daragin,
Huv, deb cho'llarga ketdi.

Dengiz dovoniga yetdi,
Go'ro'g'lining esi ketdi.
Bir soatda Go'ro'g'libek,
Xitoy Xo'tan shahriga yetdi.

So'rab-so'rab Xitoy yurtni
Topolmayin shu ko'k otni,
Undan Rayi elga ketdi,
Hech daragin topolmay,
Undan Chin-Mochinga ketdi.

Chin-Mochinda yurib-yurib
Yetim toyim deb so'ratdi.
Toyim deb xunoba yutdi.
Go'ro'g'lining aqli shoshdi.

Yurar yo'lidan adashdi,
Qaysi yerga borar bilmay,
Choqlamay yo'lga tushdi.

Bir faslda Go'ro'g'libek,
Necha qir, necha tog'lardan oshdi.
Afg'onning shahriga tushdi.

Yig'lay-yig'lay Go'ro'g'libek,
Yotim toyini so'ratdi.
Bu tilga hech kim tushmaydi¹.
Go'ro'g'liman² qotishmaydi³.

¹ Tushunmaydi.

² Go'ro'g'li bilan.

³ **Qotishmoq** – suhbatlashmoq, kelishmoq, aralashmoq.

Bir-biriga botishmaydi.
Go'ro'g'li yoshini tizib,
Afg'onning shahrini kezib,
Topolmayin G'irotni
Bir otim, deb qonlar yutdi.

Toyim deb faryod aylab, sarg'ayib Go'ro'g'lining yuzi ochilmaydi. Go'ro'g'libek zor-zor yig'lab ko'zi uyquga ketdi. Go'ro'g'libekning ko'zi uyquda edi tushida oldidan qizil yuzli, oq dastorli, yuzlaridan nur tomgan nuroniy bir guruh odam atrofiga yig'ilib keldi. Bularning ichidan kattasi o'zining xizmatkori bo'lgan bir kishiga qarab:

– E Bobo Qambar¹, shu bola toyining ixtiyorini tilab kelgan. Hamma muddaosini bergin! Har nima bo'lsa, Go'ro'g'libekni noumid qilma. Go'ro'g'libek mening farzandim bo'ldi, – dedi.

Shunda Bobo Qambar Go'ro'g'liga qarab bir so'z dedi:

Nolima, farzandim, Yovmit joyingdan,
Sen qutulding, bolam, qayg'u-voyimdan
Yig'lama, G'irko'king eson-omon-a,
Xafa bo'lma, yetim toyingdan!

Urush kuni botir qalqon yopinar,
Yuraklari misli o'tday qobinar.
Bir toy uchun xafa bo'lma, farzandim,
Yig'lama, farzandim, oting topilar!

Har shaharga seni nasibang tortdi,
Kosa davron er yigitga navbatdi(r),
Yig'lama farzandim, oting salomat,
Go'ro'g'li, sen minarsan G'irko'k otdi.

Sen obod qilarsan Yovmit yurtिंगni,

¹ Qambar – yulduz nomi. Bobo Qambar – Muhdmmad payg'ambarning kuyovi va safdoshi, afsonaviy jang qahramoni Alining xos quli va safar jilovdori; afsonaviy jilovdor.

Dushmanlardan sen olarsan lotingni.
Yig'lama farzandim, toying ot bo'lgan,
Oqadigan tiniq suvni loylarsan,
Xafa bo'lma G'irotingni shaylarsan!
Rayhonning eliga talab aylarsan.

Farzandginam, shirin jonni sotarsan.
Undan keyin muddaoga yetarsan.

Mullaning bitgana alif xat bo'ldi,
Yig'lay-yig'lay yuraklaring dard bo'ldi.
Qizil moy qilib qo'yar eding toyingni.
G'am yema, farzandim, toying ot bo'ldi!

Sen yetim emas, o'zing zo'ravor,
Sen Misrdan naryoq qarab o'tganda,
«Sanam Chorbog'» degan bitta chorbor bor
Shu Chorboqda ikki yotgan pari bor.
Shu yeringda maqsadingga yetarsan.

Ko'p gap chiqar esli odam o'yidan,
Yaxshi yigit hech ham qaytmas ra'yidan.
G'irko'kni minganday bo'lib Go'ro'g'li,
Yuragi yorilib turdi joyidan.

Yosh yog'ildi Go'ro'g'lining ko'ziga,
Ishonadi tushidagining so'ziga,
Har tarafga tiklab-tiklab¹ qaraydi,
Yetim toyi ko'rinmaydi ko'ziga.

Yo bilmayman, yuraklari cher bo'ldi,
Baland tog'da yotgan oppoq qor bo'ldi.
Yig'lamay naylayin, qismatlar qattiq,

Ko'hna dunyo Go'ro'g'lini bo'zlatti.
Bora-bora kuyib, kul bo'пти Go'ro'g'li,

¹ Tikilib-tikilib.

Yetim toyim dedi, bu soʻzni aytdi.
E, dodim dodga ulashib,
Necha ulkan togʻdan oshib,
Yozidayin yoʻlga tushib,
Toyim izlab, qalandarman.

Vomiqdayin choʻlni kezib,
Farhoddayin togʻni qazib.
Firoqida suxangarman,
Shaharma-shahar kezib
Shirindayin qoshim suzib,
Toyim izlab, qalandarman.

Qizil gulman, men soʻlguncha,
Chopdan paymonam toʻlgʻuncha,
Azroyil jonim olguncha,
Shu dunyong oxir boʻlgancha,
Toyim izlab, qalandarman!

Goʻroʻgʻli aytar holini,
Falak buzdi iqbolini,
Qaytay dunyoning molini.
Men koʻrsam Turkman elini,
Toyim izlab, qalandarman!

Goʻroʻgʻli aytib tilini
Unutib Yovmit elini,
Izlab togʻlarning belini
Koʻrib dashtlarning koʻlini,
Kuyib ketgan, qalandarman!

Boʻtaday boʻlib boʻzladi.
Yurak-bagʻrini tuzladi,
Goʻroʻgʻlibek bu choʻllarda,
Yetim toyini izladi.

Soʻylab tanglayida tili,

O'zi bog'larning bulbuli,
Bir toyim, deb elni kezib,
Ravshanbekning yolg'iz uli.

Yura-yura Go'ro'g'libek,
Ko'hanning shahriga kelib,
Arabga ham xabar solib,
Toyim, deb izlab yuripti.

Bog'dodning yurtiga borib,
Bek Go'ro'g'li o'tday toshib,
Ko'ringandan toyin so'rab,
Bordi endi Shomga oshib.

Kim qaytarar chin botirning ra'yini.
Shom elini bir-bir qilib izladi,
Topolmadi suygan yetim toyini.
Izlab bordi Hindistonga:
Xabar soldi Gurjistonga.
Go'ro'g'libek izlab yurar.
Ovoza sop Turkistonga:

«Toyimni izlab, suxanvarman!
Tinmay toyimni izlarman,
Har yerda so'zim so'zlarman.
Yetim toyimning ishqidan,
Bo'taday bo'lib bo'zlarman.
Toyimni izlab, qalandarman!»

Endi qoldi yetim toyning dardiga,
Savdo tushdi Yovmit elning mardiga.
Yo'lga tushib ko'ringandan so'raydi,
Yetib, bordi endi Misr shahriga.

Misrning izladi baland-pastini,
Topolmadi ko'ngilda havasini,
Ko'ringandan yetim toyni so'raydi,

Go'ro'g'libek, unutgandi esini.
Bir toy deb yosh bachcha qoldi baloga,
Yoqasi ho'l ko'zdan oqqan jalaga.
Yetim toyni tinmay izlab Go'ro'g'li,
Chiqib ketdi elsiz, suvsiz dalaga.

Ot chopilar baland tog'ning pastiga,
Toyin izlab yura-yura yosh bachcha,
Chiqib qoldi katta tog'ning ustiga.

Go'ro'g'libek shu tog'ning ustiga chiqdi. Tog'ning oti Afsar tog' edi. Har tarafga tikilib qarasa, uzoqdan goh ko'k, goh oppoq, goh qip-qizil, goh yashil, goh pistoqi bo'lib har (xil) rang tovlanib, bir narsa ko'rindi. Go'ro'g'libek shunga qarab, yashinday bo'lib qistab, yurib ketdi.

Borib qarasa, u bir rabot, bir paxsasi gavhardan, bir paxsasi javhardan, bir paxsasi zabarjaddan¹, ustungi paxsasi feruzadan bir qo'rg'onki, ajab bir jannatga o'xshaydi. Qo'rg'onning darvozasidan asta kirib bo'ynini uzatib, labini qiyshaytirib qaradi. Ko'rsa bulbullar, to'tilar, maynalar, qumrilar g'azalxonlik qilib sayrab, birov-biroviga chaq-chaq qilishib turipti. Har xil mevalar pishgan, ostiga tap etib tushgan, bir bol hovuz, ichi billurdan, teparagi gavhar toshdan quyilgan, oldida bir shosupasi bor. Shu supaning ustida qimmatbaho to'shaklar tashlangan. O'rtaliqqa dasturxon yoyilgan, har turli mevalar uyilgan, supada qirq qiz o'tirgan. Har qaysilari o'z shavq-zavqida o'ynab kulib, bir-biriga noz qilib o'tiripti. Bularning eng o'rtasida ikki barno qiz o'tiripti, qaddi-qomati misli o'n to'rt kunlik oyday, qoshlari qiyilgan yeyday, tishlari oppoq durday, hamma yeri tekisdan qelgan birday, badani to'qsonda yoqqan qorday, yuzining qizilligi qorning ustiga tomgan qizil qonday, suluvligiga oylar xira bo'lib qolgan. Bulutlar boshiga soya bo'lib turib, tomosha qilmadik, deb tirra bo'lib² qolgan. Haligi qirq qizlar ham qiliqlari qozondagi qaynab turgan oshday, o'zlari abjir uchadigan qushday, la'l munchoqli, jodu ko'zli, shirin so'zli, hur sifatli, g'ilmen

¹ Zabarjad (*arabcha*) – shaffof sarg'ish yoki yashil qimmatbaho tosh.

² Tirra bo'lmoq – 1) ko'ngli to'lmoq; 2) g'irromlik qilmoq.

nozli, qumursqa belli. La'liga to'kib qo'yilgan har xil mayizlardan yesa qop-qora bo'p kindigidan ko'rinadi. Go'ro'g'libek, endi shu yerdan otimni topib olaman, deb sevinib turib edi, haligi qizlar:

– Hoy, kanizlar, voy sohib tamizlar, menga qarangizlar, bu yerdan odamzodning isi chiqadi, u yoq-bu yoqqa qarangizlar, odamzod kelgan bo'lmasin, – dedilar. Go'ro'g'li tomosha qilib o'ltirib edi.

Qizlar: «Odam isi keldi, keldi», – deb har tarafga qarashdi. Shularning ichidagi haligi ikki barno qiz Go'ro'g'libek turgan tarafga yalt etib qaradi.

Go'ro'g'libekka ko'zi tushdi. Go'ro'g'libek ham shu ikki oyimga achchiq qahri bilan tikilib qaradi. Qizlar qo'rqdi.

Parilarning kattalari:

– Har gap bo'lsa, qochmanglar, – dedi. Go'ro'g'libek «Yaxshi bo'ldi, toyimni o'g'irlab ketgan o'g'rilarning xotinini ko'rdim, toyimni topdim, endi qaroqchilarning uyasini buzman», – deb supada turgan qizlarga qarab, bir so'z dedi:

Uch yil solding, bachechag'arlar voyimni,
Senga aytay yuragimda o'yimni.

Bunda turgan gazzoblarning¹ xotini,
Chiqarib ber kuchuk qopgan toyimni!

Turkman deydi unib-o'sgan yurtimni,
Qayerda qallobdan olay lotimni.
Panalatib qo'yg'an joying shulmidi?
Vaqtli op kel bergin yetim otimni.

Eshit deyman menday yetim dodini
Loy qilganlar tomga tirar shotini.

Chiqarib ber kuchuk qopgan toyimni,
Yig'ilishgan qaroqchining xotini.

¹ Gazzob – kazzob.

Kimning esi bo'lsa so'zni fahmlar,
Bir toy deb xo'rakka tushgan voyimlar.
Chiqarib ber mening G'irko'k otimni,
Sap gardonkash jodu ko'zli oyimlar!

Ana shunda, parilarning kattasi Misqol pari:

– Dam, dam, e parilar, kulmanglar, bunda ko'p fazilat bor. Bu kishi ko'p martabali odam, mazax qilmanglar! – dedi. Haligi oyimlar, podshosidan o'tolmay, so'zini ikki qilolmay nochor o'ltirdi. Bir xili o'zini to'xtata olmay kuldi.

Go'ro'g'libek:

«Toyimni topdim», – deb bildi.

Misqol pari Go'ro'g'libekni tanib bir so'z dedi:

Tortib kebsiz, Qulo cho'ldan oh-u voy,
Ko'lga borsa charqillaydi qarchig'ay.
Har bir qadamingiz diydam ustiga,
Xush kelibsiz, ana manzil, ana joy!

Urushli kun otiladi sariyoy¹ –
Askarboshi tortib turar mis karnay.
G'am yemang yetim toy bizdan topilar,
Xush kelibsiz, mana makon, mana joy!

Urushli kun sovut qalqon yopinar.
Mehmon kishi avval uyga keladi,
G'am yemang, sherbachcha, G'irko'k topilar!

Eshiting, mehmonjon, bizlardan dodni,
Mehmonlarga yaxshi qilsak xizmatni.
Odob bilan kirib keling vatanga,
G'am yemang, mindiraylik G'irko'k otni!

Bunda kelgan murodiga yetadi,
Sariyoy bilan dushmanini otadi.

¹ Sariyoy (sari yoy, sarg'ish yoy, saryoy) – pay bilan ishlangan yoy.

Xush kelibsiz, vatanima, mehmonjon,
Ot-anjomli bo‘lib mehmon ketadi.

Sayislar G‘irotni boqib keladi,
Xushvaqt qilib mehmon sizni kuldiray,
Dushmanlarning rangin gulday so‘ldiray,
G‘am yemang, otingiz kishnab keladi!

Beparvo bo‘p kela bering vatanga,
Xushvaqt qilib otingizni mindiray.
Ushbu damni, mehmonjonim, dam demang,
Bu vatanda hech narsani kam demang!

Otingizni mindirayin, bekbachcha.
Bir ot uchun, mehmon, aslo g‘am yemang!
Bunda keling odamdayin shaylayin.
Otingizga xiyla keyin taylayin.

O‘ynab-kulib kirib keling makonga,
Layli G‘irni yakka mixga boylayin!

Go‘ro‘g‘libek bu so‘zni eshitib:

– Bildim qaroqchining xotini ekansan. Hammang maslahat qilding, ushlab olib o‘ldirib, iroqi sovun qilamiz deding, – dedi.

Shunda Misqol parining oldida turgan qizlar, Misqol parining «dam-dam» deganiga qaramasdan qah-qah urib, kuli-shib yubordi.

Misqol pari:

– Sizlar shunday martabali odamni mazax qilib kulib yubordingizlar, – dedi.

Go‘ro‘g‘libek aytdi:

– Endi uylaringizni ko‘rdim, har qanday qilib, qozidan odam olib kelib, otimni olaman! – dedi.

Go‘ro‘g‘li achchig‘lanib, bu yerdan qaytib bir joyga chiqdi. Qirga chiqib shunday qarasa, G‘irko‘k ot falakni ko‘zlab turgan anjomli tilla zul ko‘rarli nuqta marvarid yakka mixga

bog'langan. Buni ko'rib Go'ro'g'libekning vaqti xush bo'lganidan hushidan ketib yiqildi. O'rnidan yana turib xezlab borib bo'ynidan ushlayotir, G'irko'k ot buni tanib iskalab kishnayotir, tizzasini bukib, Go'ro'g'lining ustiga o'zini tashlayotir. «Voy, xonazotginam, enazotim», – deb suyib, yuragi yorilguday bo'lib, u yer-bu yeridan o'pib yotir.

Go'ro'g'libekni sinab ko'rmoq uchun Xizr bobo:

– Ey, qanday odam bo'lasan? Mening xonazot otimni nimaga bo'ynidan ushlaysan? – dedi.

Go'ro'g'li aytdi:

– Ho, tag'in gapirding-a, mening yolg'iz yetim toyimni o'g'irlab olib kelasizmi? Soqolingiz oqarganda, oyog'ingiz go'r labiga borganda, tishingiz tushganda, yoshingiz oltmishdan oshganda, shuncha boylarning ichida mening yolg'iz yetim toyimni ko'rdingizmi? Sizdan shu ishlar epmi?

Shunda Xizr:

– Senga bir gap bo'lgan ekan. Bu mening o'z xonazotim, buning bo'ynidan ushlab, tanidim deb turganing ayb-da, – dedi.

Go'ro'g'li aytdi:

– Osmon kelib yerga tarmashmog'i darkor, sizday qartaygan odam birovning xonazotini meniki, deysiz. Shu toy meniki ekanligiga guvohim bor. Olti oylik bo'lganida mana bu yeridan kuchuk tishlagan edi. Mana dog'i turipti, – dedi.

Xizr:

– Noma'qul qipsan, ot otga, odam odamga o'xshaydi, – deb, Go'ro'g'lining qo'lidan otini tortdi.

Go'ro'g'li:

– Tavba-ey, zamon yomon bo'lgan, gap o'g'riniki bo'lganda, bo'lmasa mening xonazot otimni olib kep menikilab yurasizmi? E, bobo, xayr esa ikkovimiz bir olishamiz, qaysi birimiz yiqitsak, zo'r bo'lsak ot shunimizniki, – dedi.

Go'ro'g'li o'z ko'nglida: «Buning bilan kurashib, belidan siqib olib qovurg'asini sindirguday qilib, bundan nari birovning oti-ku oti, hatto tozisini olmaydigan qilayin», – dedi.

Xizr aytdi: «Olishsang, otangni yiq», – degan gap bor. Kel bolam, olishsak olishayik.

Shunda Go'ro'g'libek o'rnidan sachrab turdi, borib

bobosining belidan mahkam ushladi. Qo‘li beliga yetmay qoldi.

Go‘ro‘g‘li: «Uh, kundadek chol ekan», –dedi.

Bobosi aytdi:

– Mahkam ushla, qulog‘ingga ol, ehtiyot bo‘l, armonda qoldim dema! Biz sen bilan taraf¹. Lekin bizdan boshqa bilan kurashganda unday qilib ushla, bunday qilib ol, to‘g‘anoqni bunday sol! Orqasiga bunday qilib qayir! Buytib siltab ot! Goh ilgari, goh keyinga sur! – deb kurashdi.

Go‘ro‘g‘libek shuncha zo‘r urdi bo‘lmadi.

Bobosi yerga ko‘tarib urdi.

Go‘ro‘g‘li aytdi:

– E bobo, mening oyog‘im toyib ketdi.

Bobosi:

– Xayr, kel esa tag‘in kurashayik, armonda qolma, – dedi. Go‘ro‘g‘libek yana o‘rnidan turib bobosini o‘xshatib ushladi. Bobosi Go‘ro‘g‘lini u yoq-bu yoqqa yurgani qo‘ymay yerga bosdi-da, qo‘ydi.

Go‘ro‘g‘li

– Men ushlayolmay qoldim, men ushlamay yiqitasizmi, – dedi.

Bobosi esa:

– Tag‘in kurashayik, – dedi.

Go‘ro‘g‘libek yana turib kurashdi, bobosi yana birdan o‘rab bosdi-da, qo‘ydi.

Go‘ro‘g‘li:

– Bu kurash etib yiqilish bo‘ldi, – dedi.

Bobosi:

– Uch depti, uchdan keyin puch depti, yiqilgan kurashga to‘ymas kurash bo‘ldi. Endi kurashmayman, – dedi.

Shunda Go‘ro‘g‘li bobosiga kuchi yetmaganini bildi, nima qilarini bilmay: «Voy-voy», – deb chinqira berdi.

«Janjallashsam, bu toy Go‘ro‘g‘liniki edi, deyadigan qozi bo‘lmasa isbot bo‘lmasa. Olishsam, bu cholga kuchim yetmasa, kuydim, endi qandoq qilaman», – dedi.

Shunda bobosi Go‘ro‘g‘liga aytdi:

¹ Do‘stlaringmiz.

– Buncha dod deyabarding? Men bu otni sotaman, olmaysanmi? Agar olar bo‘lsang qirq tanga ber!

Go‘ro‘g‘li aytdi:

– Siz topganda berishga bersangiz, men bir yuz ellik tangaga olaman.

– Sen o‘larmonga o‘xshaysan, men qirq tanga desam, sen bir yuz ellik tanga deysan. Bir qirdan oshgandan keyin o‘larmonlik qilib bermay ketasan, – deb toyni Go‘ro‘g‘liga bergan joyida qo‘y-e, deb bir silkib qo‘lidan tortib oldi.

Go‘ro‘g‘libek aytdi:

– Xayr bobo, juda ham goj¹ ekansiz. Esa sizning aytgan pulingizni topganda berib olayin, bahosini ayting.

Bobosi:

– Qirq tanga dedim, qirq tanga, – dedi.

Go‘ro‘g‘libek:

– Topganda berarga o‘ttiz besh tanga berayin, – dedi.

Bobosi:

– Xayr, yana qaytib ketmagin, – deb Go‘ro‘g‘liga otni o‘ttiz besh tanga nasiya pulga sotdi.

Shunda Go‘ro‘g‘li:

«O‘zim Go‘ro‘g‘libek, urug‘im Turkman bo‘lib, o‘z otimni o‘zim sotib olguncha, shu cholning oyog‘i ostida o‘la qolganim yaxshi», – deb bobosiga qarab, bir so‘z dedi:

Bobojon, bu dunyo befoydadi(r),
Gapingizga yurak oshday qaynadi.
Yaqinlashmang, bobojon, mening qoshima,
Savdom bu dunyo puli qaytadi.

Gap chiqadi Go‘ro‘g‘lining tilidan,
Izma-iz keldim Turkman elidan.
Cho‘tta kelmang, bobo, mening qoshima,
Umid qilmang ko‘k toyimning pulidan!

Bizlarni aytadi shoir – baxshi,
Qarang, mening betim gullarning naqshi.

¹ Cho‘rtkesar.

O'z otimni men baholab olgandan,
Shuytib tirik yurgandan o'lgan yaxshi!

Go'ro'g'libek oqizibdi ko'p yoshni,
Bobosi bilan qilmoqchi bo'p savashni.
Shovqin qilib Afsar tog'ning belida,
Atrofiga yig'ib yotir ko'p toshni.

Bobosi: «Hay attang, Go'ro'g'libek hali yosh ekan, buning ko'nglini joy qilmasam bo'lmaydi, bu hali juda bola ekan, shuncha so'zdan anglamadi», – dedi.

Go'ro'g'libekka «Armonda qolmasin», – deb o'zini bildirib bir so'z aytayotipti:

So'zima quloq sol, Go'ro'g'li go'dak:
Zargar elda ko'r Ravshanman¹ Hiloldan,
Quloq solgin, Zargar eldan aytayin.

Tog'ang bilan otang jonini sotdi,
Bir bedovni ikkovi mindi-da ketdi.
Zargar elda Hiloloyni bo'zlatdi,
Tog'ang bilan otang Yovmitga yetdi.
O'yla o'zing, qari cholning farzandi,
Or bilan Hiloloy olamdan o'tdi.

Quloq sol, o'zimday chirog'im, zorga,
Sherik bo'lding mana dunyo bekorga.
Hiloloyni Rustambek singlim deb,
Voy singlim deb, qo'yib keldi mozorga.

Shu vaqtayam² birga yurgan bobongman.

Sarg'ayganda nechalarning siyoqi,
Uyilgandi necha odamning qovog'i.

¹ Ravshan bilan.

² Vaqtda ham.

Go'rdada tutdi Hiloloyning to'lg'og'i,
Men sabab bo'p yongan uning chirog'i.
Shu go'rdada tushgin degan bobongman!
Uya uchun qushlar izlar qiyani,
Endi kepsan Gajdumbekning jiyani.
Sening siring bu bobongga ayoni,
Quvib kep, yilqidan tulpor biyani.
Olib kelib ena qilgan bobongman.

Quloq solgin bu bobongning tiliga,
Uch yoshingda kelding Rustam qo'liga.
Yetti Badkir qulni o'ldirib,
Qochib kelding bolam Yovmit eliga.
Shu cho'llarda birga yurgan bobongman!

Rayhondan G'irko'kni olding to'latib,
Or bilan Xoljuvonni yig'latib.
Bugun kepsan G'irko'kingni yo'qotib,
Oh tortasan gapni gapga ulatib
Mana tog'da duchor bo'lgan bobongman!

Savdogar yuk qo'yar katta noriga,
Podsho osar o'g'rilarni doriga.
Endi qo'y bobongni ixtiyoriga!
Birga yurgin shu bobongning g'origa!
Sen yetimga maqsad bergan bobongman!

Go'ro'g'li qanday etarini bilmay, bobosining so'ziga
ishonolmay, toyning no'xtasidan ushlab kelayotibdi.

Shu vaqtda sakkiz otliq odam, ba'zisi moshbirinch,
ba'zisi qorasoqol, kelayotibdi. Buni ko'rib Go'ro'g'libek satta
qari mo'ysafid o'g'rining koni bu yoqda ekan. Men pastga tush-
gandan keyin bosarlar, yo'lg'inamni to'sarlar, otimni tortib olib,
ko'kayimni kesarlar¹, dedi. Haligi mo'ysafid qariyalarning bittasi
Go'ro'g'libekka qarab bir so'z dedi:

¹ Ko'kay – dil, kasb, ko'ngil. Ko'kay kesmoq – dil og'ritmoq, jonga tegmoq, ko'ngilni
cho'ktirmoq.

Uch yil yurding Qulo cho'lda, dalada.
Bobo Qambar aytmabmidi Balx yurtda,
Bolam kelib qolding davlatxonaga.
Yigitlar ichida sensan o'dag'a,
Go'ro'g'libek kelding davlatxonaga.

Qo'ymagin, chirog'im, bizni xafatga.
Qo'rqmagin minarga G'irko'kday otga!
Yaxshi gaplash, yaxshi so'yish¹, chirog'im,
Sen ega bo'lasan ko'p mamlakatga!

Egallarsan, bolam, Yovmitday yurtni,
Yoshligingdan senga hasratlar ortdi.

Go'ro'g'li bu so'zni eshitib aytdi: «Men kechadan beri o'zimning xonazot toyimni ololmay yuribman. Bular menga bir narsa berarmidi, men shu G'irotimni omon-eson, seg'-salomat olib ketsam ham bo'ladi. Bular anoyi cholmi, birovga bir narsani bekorga berib ketadigan, uytib-buytib, aldab-suldab qo'limdan toyimni olib qo'ymoqchi».

Go'ro'g'li qochmoqning taraddudini qildi. Xizr qarasa, Go'ro'g'lining ko'zi bejoy, qochmoqchi bo'lib, ko'zi olayib ketib borayotibdi.

Shunda u:

– Go'ro'g'libek, ot seniki bo'lsa, isbot qilib, pul bermay olib ket, – dedi.

Go'ro'g'libekning dimog'i chog' bo'ldi, dast alif-lom qilib, gardanini xam qilib: «Otni olaman», – deb, vaqti xushlikda haligi kishilar bilan borib, hamma o'ltirganlarga, assalomu alaykum deb, g'orga kirib bordi. G'or ichidagi odamlarning birovi Go'ro'g'libekka:

«O'tir», – deb, joy ko'rsatdi.

Go'ro'g'libek o'ltirdi.

Ana shunda Soqibulbul o'rnidan jindak turib, o'rtaga

¹ So'yishmoq – tarbiya qilmoq.

kirib, sharob antaxurni¹ choqlab, jomni qulga olib, sozini chertib soʻzini aytayotir. Soqibulbulning soqiy boʻlib, may berganda odamlarga qarab, «Allayor» deb bir soʻz degani:

Kosa beray qoʻlim tolib,
Har kosaga maylar solib,
Mening bellarim buralib,
Noʻsh qing², allayor, allayor³!

Bek Soqibek aytgan soʻzlar,
Uchar koʻldan turna gʻozlar,
Navbatti⁴ oling sizlar,
Iching, allayor, allayor!

Bu yerda shirin suhbatlari,
Mehmon Ravshanbek farzandi,
Oling kosaning navbatlari,
Iching, allayor, allayor.

Yuraklarda gʻamman gʻussa,
Qarining qoʻlida hassa,
Koʻzim choʻlda, qoʻlda kosa,
Iching, allayor, allayor!
Quying, allayor, allayor!

Miltiq kelar alab-yalab,
Dardli koʻngil istar talab,
Oltin kosa gulgun sharob,
Navbat, allayor, allayor!

Obod Turkmanning yurti,

¹ **Antahur** – musaffo. **Sharobantahoʻr (antahoʻr mayi)** – ilohiy may, majozan ishq-muhabbat uygʻotuvchi may. Aslida soʻfiylik talqini boʻlsa ham, folklorida haqiqiy hayotni sevish kayfini ifodalash uchun ishlatiladi.

² Iching.

³ **Allayor** – Olloh yor. Asosan, qoʻlga qadah olib davradagilarga murojaat qilinganda aytiladigan qoʻshiq.

⁴ Navbatni.

Sinmagay mardning qanoti,
Sohibqiron qiyofati,
Go‘ro‘g‘lining ziyofati,
Mehmon allayor, allayor!
Salomat borsin yurtiga,
Eson ketsin elatiga,
Minsin-da G‘irko‘k otiga,
Ichsin, allayor, allayor!

Har tarafga tikilib qarang,
Uzr etib, ko‘plar yig‘lang,
Yaxshi farzandlar tilang,
Yoshlik qilmay bu majlisdan,
Muddaoni katta tilang!

Qizil gulsiz yana so‘lmang‘,
So‘nggi bilan o‘pka qilmang!
Mehmonjon, armonda qolmang,
Tilang, allayor, allayor!

Ko‘zingiz tongning yulduzi,
Boldan shirin Soqi so‘zi,
O‘zing Yovmitning azizi,
Davlat tilang, farzand tilang.
Tilang, allayor, allayor!

Bu gaplar bo‘lgan bu tongdan,
Toy deb chiqdingmi vatandan,
Maqsad tilang, qirq chiltondan¹
Omin, allayor, allayor!

Majlisdan o‘tirgan hamma azizlar antaxur maydan navbatlari bilan ichib, Go‘ro‘g‘libekka ham navbat kosalarini berdi. Shunda Go‘ro‘g‘li sharob ichib sohibqiron bo‘ldi.

– Sohibqironlikni G‘irot ko‘tara olmaydi. Endi G‘irotga

¹ Chilton – afsonaviy kuch-qudratga ega, ko‘zga ko‘rinmas qirq ilohiy ruh. Afsonaviy tasavvurga ko‘ra qahramonning homiylari.

ham bir kosa maydan beringlar, – dedi.

Go‘ro‘g‘libekning G‘irotiga ham bir kosa sharobdan suvga qo‘shib berdilar. Go‘ro‘g‘libek pirlaridan bu yaxshi so‘zni eshitib, o‘ltirganlarga qarab, bir so‘z aytayotibti:

Kuyganimdan gapni gapga ulayman,
Qalandar bo‘p keldim davlatxonaga,
Men sizlardan G‘irko‘k otni tilayman.

Sizga aytayin yuragimning cherini,
Ketkazinglar mening toyimning sho‘rini.

Garimsel eritar tog‘ning qorini.
Sizlardan so‘rayman ikki parini.
Shul parini xotin qilsam bo‘ladi.

Kelib qoldim oyimlarning yurtiga,
Quloq soling menday mardning dodiga,
Toyimni izladim, kelib so‘z aytdim,
Oshiqi muftalo bo‘ldim betiga.
Shularni xizmatkor qilsam bo‘ladi.

Jonim banda bo‘ldi aytgan so‘ziga,
Tomosha qip yuz karashma noziga,
Oyimlarni xotin qilsam bo‘ladi.

Oshig‘i muftalo bo‘ldim ko‘ziga.
Shuni obbering¹ Go‘ro‘g‘lining o‘ziga!
Ular bilan birga yursam bo‘ladi.

Eshiting, podshohim, mening dodimni,
Belima boylasam po‘latimni,
Yung bosgan Rayhondan olsam lotimni,
Zaydinni xizmatkor qilsam bo‘ladi.
Shoh bo‘p ega bo‘lsam Turkman taxtiga,
Yovmit elda podsho bo‘lsam bo‘ladi.

¹ Olib bering.

To'qsonda oppoq bo'p tog'larning qori.
Tila deding, to'rttovini tiladim,
Hech boshqa davlatning yo'qdir darkori.

Mard yigit dushmanga savdo soladi,
Bu majlisdan to'rt muddao tiladim,
To'rttovini bersangizlar bo'ladi.

Kengash chiqar elning katta biyidan,
Chopilsa chin tulpor qaytmas ra'yidan.

«Armonli bo'lding, Go'ro'g'libek», – deb
Er Xizr bobosi turdi joyidan.

Bobosi Go'ro'g'libekdan bu so'zni eshitib, unga qarab,
bir so'z dedi:

Shuncha qildim qadrimni bilmading,
Bilganingdan, yosh Go'ro'g'li, qolmading.
Yoshlik qilding bu gaplarni bilmading,
Dunyoda armonli bo'lding, Go'ro'g'li.

Yuz yigirma beshga kirsin G'irko'king,
Ikkovginang birday qari, Go'ro'g'li!
Soqibulbul sayis bo'lsin, Go'ro'g'li!

So'ng-so'ng bo'lar yuragingda ko'p darding,
Qariganda ortar sening hasrating,
Soqibulbul bo'lsin sening ustoding,
Doimo avjda bo'lsin davlating!
Aytgan amrin hamisha qilgin, Go'ro'g'li!

Majlisda chalsin Soqibek sozini,
Darrov bosgin tarafingning¹ izini!
Olib qochgin oy Zaydinning o'zini,

¹ Dushmaningning.

O'ynatgin G'irko'kday asbitozini¹,
Dushmandan o'chingni olgin, Go'ro'g'li.

Egarlab berarmiz G'irko'k otingni,
Ketzarmiz yuragingdan dardingni.
Avval boshlab Shirvon eliga borib,
Shu Rayhon arabdan olgin lotingni²
Yuragingdan voyim ketsin, Go'ro'g'li!

Yor ketkazar yuraklarning cherini,
Eshitmading, bek Soqining zorini.
Senga berayik Yunus, Misqol parini,
Senga berayik shularning ixtiyorini.
Parilar xotining bo'lsin, Go'ro'g'li!

Hukumatli tiling bo'lsin, Go'ro'g'li!
Chambil, Chortoq eling bo'lsin, Go'ro'g'li!

Yov olmasin qiyomatda suv olsin.
Avaz, Hasan o'g'ling bo'lsin, Go'ro'g'li!

Chambilning podshosi bo'lding, Go'ro'g'li.
Oxiri armonli bo'lding, Go'ro'g'li.

Majlisdan quruq ketding, Go'ro'g'li,
Bir uyadan yolg'iz uchding, Go'ro'g'li.
Dushmanning qonin sochding, Go'ro'g'li,
G'animning iziga tushding, Go'ro'g'li.

Suv o'rniga sharbat ichding, Go'ro'g'li,
Siyohpo'sh kafanin bichding, Go'ro'g'li.

Vayangandan op kel Xoldor mahramni
Boshliq qilgin sarkardaga Xoldorni!
Xon Hasanjon o'g'ling bo'lsin, Go'ro'g'li!

¹ Eng zo'r ot.

² Qasdingni.

Eshit, bolam, bu bobongning tilini,
Chambilda o‘ynatgin sonsiz lo‘lini,
Bulduruq qassob Avazdayin ulini¹,
Xunxor² elining jon-u dilini
Olib kelib farzand qilgin, Go‘ro‘g‘li!

Tovus degan qush taralar qiyada,
Dushmanlaring hamisha bo‘lsin piyoda!
Hasan, Avaz farzand bo‘lsin o‘zingga,
Xizmat qilsin tuqqanlardan ziyoda!

Qirq yigitni olgin qirqta o‘zbekdan.
Bir-ikkita olib kelgin qozoqdan!
Chambilbelda po‘lat dobil tuydirgin,
Siylov to‘ndan beklaringga kiydirgin!

Har urug‘dan olib kel yaxshi odamni,
O‘zbeklardan olib kelgin biylarni!
Topib bergin ularga yaxshi uylarni!
Chambilbelday qo‘rg‘oningga yeldirgin,
Ko‘nglin ovlab sarpoyn bergin, Go‘ro‘g‘li!

Doim izzat qilgin taraflaringga³,
G‘anim chidamasin g‘ayratlaringga,
Dushman chiday olmasin jur‘atlaringga,
O‘zing tugul, balki yigitlaringga!

Tarafning⁴ dodini bergin, Go‘ro‘g‘li!
Hech qochmagin, hamisha quvgin, Go‘ro‘g‘li!

Siyohpo‘shni bosib so‘ygin, Go‘ro‘g‘li!
Maydonda ko‘zini o‘ygin, Go‘ro‘g‘li!
O‘zing tanho mingga yetgin, Go‘ro‘g‘li!

¹ O‘g‘lini.

² Xunxor – 1) afsonaviy mamlakat; 2) Gurjiston (Gruziya) poytaxti.

³ Tarafdorlaringni.

⁴ Dushmanning.

Bir yog‘i Asqardir Xovdakning ko‘li,
Ot chopsa, changiydi Chambilning yo‘li.

Majlisda so‘zlasin Soqining tili,
O‘zing bo‘lgini doim Chambilning guli!
Tong otguncha majlis bergin, Go‘ro‘g‘li!

Bek bo‘lib mingaysan, oting tolmasin,
G‘azoli kun belga boylab olmosing
Esa oting qolsin, zoting qolmasin
Dunyodan zuryodsiz o‘tgin, Go‘ro‘g‘li!

Soqibulbul barmog‘ini tishladi,
Berar bo‘ldi anjom-asboblarini,
Anjom-asbob o‘rtalikka tashladi.
Go‘ro‘g‘libek lola gulday jaynadi¹,

Shirin tilman² turfa-turfa³ so‘yladi.
Yaxshi gavhar tosh taqilgan kamarni,
O‘xshatib bekbachcha, belga boyladi.

Yig‘laganning yoqasi ho‘l yoshiga,
Tomosha aylang azizlarning ishiga.
Bir sidrama kiyim berib azizlar,
Oppoq qilib dastor qo‘ydi boshiga.

Go‘ro‘g‘li qulluq deb qaddini bukdi,
Bachchaning qilig‘i ularga yoqdi.
Bolg‘a olib er Xizrday bobosi,
To‘rt yuz nag‘alni G‘irotning oyog‘iga.

Xizr bobo gulmixlar bilan qoqdi.
Soqibulbul ko‘ring vaqtin xushladi,
Darig‘o, deb bandi bo‘g‘nin bo‘shladi.

¹ Jaynamoq – yashnamoq.

² Til bilan.

³ Turfa – qiziq, ajoyib.

G'irko'k otni bari olib o'rtaga,
O'rtada G'irko'kni yalang'ochladi.

Guldan jo'rab¹, tilla qashoq² qo'lida,
Qashov urib G'irotning badaniga.
Soqibulbul changin silab tashladi.

Osha yurtga oshgan ko'rar xo'rlikni,
Yugruk mingan qilar yo'lbars zo'rlikni,
Navbat bilan G'irko'k otning beliga,
Astagina qo'ydi ipak terlikni³.

Podsholar olisga tutar durbini⁴,
Olis borgan op kelmaymi belgini?
Kish-kishlab soldi G'irning beliga,
O'ymalab tashlagan⁵ qirmiz⁶ chirgini⁷,

Boz ustidan yana qo'ydi bellikni⁸,
Suyab qo'ydi qunduz jahaldirikni⁹.

Temirchi Olloh deb urar tabardi¹⁰,
Kuyi kelsa bo'lgan so'zga chevardi,
Bismillo, deb olib qo'ydi bedovga,
Tilla choptirgan sarpay egardi.

Chu, desa o'tadi qanotli qushdan,

¹ Jo'rab, jo'rob – supurgi. Jo'rob qilmoq – otning badanini supurgi bilan supurib tozalamoq.

² Qashoq (qashoq) – qashlag'ich, otning badanini qashlaydigan narsa.

³ Terlik – ot, eshak tanasidan chiqqan terni to'qimga o'tkazmaslik uchun to'qim ostidan solinadigan yupqa kigiz parchasi.

⁴ Durbi – uzoqni yaqin qilib ko'rsatadigan moslama, durbin.

⁵ O'ymalab tashlagan – o'ymakorlik san'ati bilan ishlangan.

⁶ Qirmiz – qizil.

⁷ Chirgi – ot anjomi, ot beliga terlikdan keyin egar ostidan tashlanadigan yopinchiq.

⁸ Bellik – otning belini egar urmaslik uchun bel cho'qqisining ikki yonboshidan qo'yiladigan kigiz yoki mato.

⁹ Jahaldirik – otning belini yuk bosmasligi uchun egar ostidan qo'yiladigan maxsus jihoz, yopinchiq.

¹⁰ Tabar – bolta.

Pir duosi ketdi, toylikdan, yoshdan,
Astagina suyab urdi dumiga,
O'n sakkiz qubbali karki quyushqon,¹
Har qubbasi piyoladay tarkashdan².

O'lmagan qul ko'rar ekan sayildi,
Mard qilgan ishiga el qoyildi.

Jangallatib o'rab tortdi G'irotda,
To'qasi kumushdan ipak ayildi³.

Yosh bachchaning aqlarin shoshirdi,
Aytmay sirni g'animlardan yashirdi.
Ikkovi ham tilladan uzangini⁴,
Yarqillatib ikki yoqqa tushirdi.

Bir necha suluvning tishlari durdi⁵
Shaldiratib G'irga sermab⁶ tashladi,
Qimmatbaho, zar chachoqli dovurdi⁷.

Kuysin o'lim, kim chidaydi dog'iga,
Parilar so'lqillar Iram bog'ida.
Shaldirab otga solgan dovuri,
Tushibdi bedovning baqalog'iga.

Afzalining bari g'ulo⁸ kumushdan
Jingillatib tortdi otning beliga,

¹ **Quyushqon** – ot anjomi, ot dumi ostidan o'tkazilib, egarga birlashtiriladigan qayishdan qilingan anjom. Quyushqon ot tez yugurganda egarning oldingga siljib ketishiga yo'l bermaydi.

² **Tarkash** – piyola va kosani safarda sinishdan saqlash uchun teridan yoki yog'ochdan qubba shaklida ishlangan g'ilof.

³ **Ayil** – ot anjomi. Ot egarlaganda jabduqning ustidan bog'lanadigan enli qayish.

⁴ **Uzangi** – egarning ikki tomoniga qayish bilan bog'lab, osib qo'yiladigan, otga minish va egarda oyoqlarni tirab o'tirish uchun xizmat qiladigan, metallardan yasalgan ot abzali.

⁵ Durdur.

⁶ **Sermamoq** – siltamoq, qilichni zarb bilan siltab solmoq.

⁷ **Davir, dovur, dovur** – egarning ustidan yopiladigan ot anjomi.

⁸ Sof.

Pay to‘shab tashlagan chag‘atoy pushtan¹.
Po‘lat dobil² ildi egar qoshiga,
Qatag‘on peshbantni³ urdi to‘shiga.

Qizday bezab G‘irko‘k otni shayladi,
Qizdayin qiliqsib jonvor o‘ynadi.

Qo‘tos⁴ taqdi gardan daroz bo‘yniga,
Qirq qubbali yugan⁵ urdi boshiga,
Olib keldi Go‘ro‘g‘lining qoshiga.

Yarqilatib kiyib edi egniga,
Oq kirovka⁶ yashil, ko‘kish sovutni.

Go‘ro‘g‘libek, shukur dedi so‘yladi,
Yosh o‘g‘lon-ku suqsurday⁷ bo‘p bo‘yladi.

Ilon tilli, zaharli u xanjarni,
Jangillatib xipcha belga boyladi.

Hech kami yo‘q otman⁸ mardni shayladi,
O‘q o‘tmaydigan karkin qalqonni,
Seldiratib⁹ yelkasiga boyladi.

Otga yo‘l bermagan soyning o‘rani
Shayladilar Go‘ro‘g‘liday to‘rani.

¹ **Pushtan** – egarning ot qornidan aylantirib o‘tqizib bog‘lab qo‘yiladigan tasmasi; qorinbog‘. **Chag‘atoy pushtan** – chig‘atoylarga xos, qalin teridan ishlangan pushtan.

² **Dobil, dovul** – katta nog‘ora.

³ **Peshbant** (peshband) – ot ko‘ksiga taqiladigan o‘mildiriq. **Qatag‘on peshband** – qatag‘aniy o‘mildiriq. Qatag‘on urug‘ining sarkardalari otlariga taqadigan o‘mildiriq; hashamatli o‘mildiriq.

⁴ **Qo‘tos** – serjun, seryol Tibet ho‘kizi (buqasi). **Qo‘tos** – otning bo‘yniga taqiladigan qildan ishlangan tug‘simon bezak. Buni qo‘tos dumining qilidan ham yasaganlar.

⁵ **Yugan** – ot, eshak kabi uy hayvonlarini boshqarish uchun ular boshiga solinadigan, suvliq, tizgin va qayish tasmalardan yasalgan abzal.

⁶ **Kiravka** – sovut ostidan kiyiladigan kiyim (nimcha).

⁷ **Suqsur** – 1) burgutsimon yirtqich qush; 2) o‘rdakning bir turi.

⁸ Ot bilan.

⁹ **Seldiramoq** – 1) siyraklanmoq; 2) gijinglamoq.

Izzat qip azizlar gavhar bodani
Go'ro'g'li bo'yniga taqdi zeroni.

Xushvaqt qilib, bilmaganin bildirdi,
Qo'ltig'idan suyab, polvon deyishib,
G'irko'k otga Go'ro'g'lini mindirdi.

Go'ro'g'li mindi G'irotning beliga,
O'n ikki popukli po'lat nayzani,
Tabarruk deb suyab berdi qo'liga.

Bobosi Go'ro'g'libekka pandi nasihat berib aytdi:

– E Go'ro'g'libek, bolam, sen yoshlik qilding. Bundan borib, Rayhonning qizini olib ketarsan, Yovmitning eliga yetarsan. Har nima ixtiyorni o'zingga berdik. Lekin Rayhon arab qizining orqasida janjal ko'p. Rayhon arab o'n bir marta shahringga tegadi. Har nima bo'lsa, Go'ro'g'libek, farzandam, ishingga ehtiyot bo'! Yovmit elingda, tog'ning pastidan bir shahar paydo bo'ladi. Bu shaharni ko'rib qo'rqma, o'zingni to'xtat! Shu shaharni qiyomatgacha yov ololmaydi, qiyomat bo'lganda suv olib ketadi.

Payshanba kuni kechqurun, juma oqshomi peshin vaqtida bir tala-to'p g'ala-g'ul shovqin bo'lib, yerlarni simobday eritadi, yerlar qimirlab ketadi.

Shunda o'z Yovmit shahringning odamlarini va barcha fuqarolaringni o'zing bosh bo'lib, nasihat qilib, o'z oldingdan u yoq-bu yoqqa yubormay: «Bu ishlardan qo'rqmanglar, indamanglar», – deb mahkam ushlab turgin! Ana shunda Soqibulbul boradi. Mana oldingda turibdi, xo'p qarab, tanib qo'ygin! Soqibulbul bir xil odamlar bilan odamlarning qo'rqib turganlari ustiga boradi. Odamlarni yangi bo'lgan shaharga olib kiradi. O'zingni tilla taxtga mindirib, podsho qiladi. Seni podsho qilgandan keyin, fuqarolaring senga tobe bo'ladi, undan keyin sening martabali ekaningni biladi.

Soqibulbul:

«Amri podsho vojib», – deb ko'chalarga jarchi qo'yadi. Soqibulbul senga ham ustod bo'ladi, ham G'irko'k otning sayis-

ligini qiladi. Zinhor Soqibulbulning aytganidan chiqmagin! Shu kuni, shaharning ichida bir majlisxona bino bo'ladi, hamma odamlar yig'iladi, majlis bo'ladi. Soqibulbul so'zni aytib, sozni chaladi, soqiy bo'lib mayni hammaga beradi; qo'rg'oningga ot qo'yiladi. Soqibulbul nima deb ot qo'ysa, shaharning oti shu bo'ladi. Soqibulbulning aytgani-aytgan, bilgani-bilgan, qilgani-qilgan bo'ladi, – deb, Go'ro'g'lining qo'liga bir qora par, bir oq par berdi.

Parlarning xosiyati shu, badaningga sursang gohi yosh bo'lasan, gohi qari toblanib, har xil odam bo'lib qolasan. Oq parni badaningga sursang, qora odam; qora parni suykasang, qora soqol bo'lib qolasan.

Tag'in ikki xat berdi. Go'ro'g'libek qarasa, muhr bosilgan ikki nikoh xat: ikki pari Ko'hi Qofdan Yunus pari, Iram bog'dan Misqol pari Go'ro'g'libekka, qiyomatli cho'ri deb xatga yozib qo'yilpti.

Go'ro'g'libek buni ko'rib, aytdi:

– Meni kalaka qilgan ikki qizni tilab edim, bular ular emas-ku.

Shunda bobosi:

– Sening aytgan qizlaring shu, – dedi.

Go'ro'g'libek ular bo'lsa qulluq, deb dimog'i chog' bo'ldi. Ana shunda turgan hamma endi bo'ldi, hech kaming qolmadi, ol oldirma, quvgin qochma, deb betga fotiha tortdilar. Go'ro'g'libek o'zining qaddi-qomatiga, polvonligiga, shon-u shavkatiga qarab, shukur qilib, bularning oldidan jo'nay berdi. G'irotim ham bo'lganicha bo'lib qolipti nazarkarda ekan deb otidan juda vaqti xush bo'lib yo'lda ketayotibdi:

Ochilar bog'larda guli g'uncha,
Jo'nay berdi cho'llarda,
Go'ro'g'liday bekbachcha.

Kiyimlari toza-da,
Har gaplari bomaza
Jo'nay berdi cho'llarda
Go'ro'g'liday bekszoda.

Ko'ngli jo'sh urib ketdi.
Chuv-ho, deb jo'nab ketdi.

Sovut qalqonga tegsa,
Yashinday yarqillatdi.

Yonidagi xanjarni,
Uzangiga tegizib,
Cho'llarda shirqillatdi.

Oyog'idan chiqqan chang,
Tumanday yo'lni tutdi.

Yo'lbarsday g'arillab
Kelayotir Go'ro'g'li.

Mis karvanday yirillab,
Go'ro'g'libekning G'iri,
Otgan o'qday g'irillab.

Nayzasining popugi,
Yelkasida pirillab,
Sovut qalqonga tegsa,
Oyday bo'lib yarqillab.

Go'ro'g'li jonni sotdi,
Bedovga qamchi chotdi.
Har yungidan ter ketdi.

Tuyg'unday bo'p chirqillab
Go'ro'g'li cho'lda ketdi.

Chidamay g'ayratiga,
Qamchi urib otiga,
Qulo cho'l tengsaladi,
Mardning siyosatiga.

Kuygan qullar,
Sarp uradi soniga,
Yovda o'lgan bo'yaladi qoniga.

Qulo cho'l so'qillab larza beradi,
Pishqirib bedovning irg'iganiga.

Goh so'zini so'zlaydi,
Siynalarin tuzlaydi.

Shirvon el deb Go'ro'g'li,
Xoljuvon deb izlaydi.
Goh sozini sozlaydi,
Bo'taday bo'p bo'zlaydi.
Qamchi bossa layli G'ir,
Tog'ning boshin ko'zlaydi.

Rahm aylagan holiga,
Bulbul qo'nar guliga.
Borayotir Go'ro'g'li
Zanglab yotgan cho'liga.

Tavakkal qip Go'ro'g'li,
Chuv-ho, dedi yo'llarda
Rayhon arab eliga.

Ol-ol yurdi, ol yurdi,
Ozginamas mo'l yurdi.
Choqlamayin Go'ro'g'li.
Tag'i bir kun yo'l yurdi.

Go'ro'g'libek Rayhon arabning shahrini izlab, yo'lda
jo'nab keta berdi. Lekin qaysi tarafga borishini ham bilmaydi:

Choqmog'iga quv¹ oldi,
Mehtaraga² suv oldi,

¹ Quv – chaqmoq uchqunidan o't olib yonadigan maxsus pilik.

² Mehtara – teridan qilingan suv idish.

Choqlamayin, Go‘ro‘g‘li,
Qistadi yo‘lga tushdi.

Necha qirlardan oshdi,
G‘irot tobga kelibdi.
Jonivor og‘zin ochdi,
Qo‘ltiqdan parqin¹ sochdi.

Chayqalur Oydinning ko‘li,
Changiydi yurgan yo‘li.

G‘animlarga jazo, deb,
Erta bilan bo‘za deb,
G‘ayrat qilib bekbachcha,
Uzoq yo‘lga jo‘nadi.

Yurgan joyi yonadi.
Ostida G‘irko‘k oti,
Qushday uchib boradi.

Gohi tog‘, gohi ko‘lda,
Ol-ho, ketib boradi.
Haylo, ketib boradi.

Minib otning beliga,
Kun yoyilib choshgohda,
Kirib bordi bir podshoning eliga

Go‘ro‘g‘libek ko‘zini ochib qarasa, katta bir shahar ko‘zga ko‘rindi. Daryolar oqqan, ko‘rgan odamlarning aqli shoshgan, ichida sol, kema, qayiqalar qurtday qimirlab har tarafga kelib, ketib borayotibdi. Shunday tikilib qarasa, shaharning ichida necha bir yerlarda katta machitlar, madrasalar, minoralar ko‘rindi. Go‘ro‘g‘libekning zavqi kelib yurib ketdi. Bir katta saltanatli darvozaga yetdi. Qarasa, darvozaning har chekkasida o‘n yetti joyda qorovulxonasi bor. Shu xonalaridan katta-katta to‘plarni

¹ Parqin – otning qo‘ltig‘i, afsonaviy tulpor qanoti.

dalaga qaratib chiqarib qo'yibdi. Juda saltanatli, juda katta joy ko'rindi. Go'ro'g'li bu joy katta joy ekan, deb darvozada kirmay, bir Ko'kbuloq degan buloqqa yetdi. Qarasa, bi xotin o'ltiripti, o'zi oriq, ranglari sariq, uzun bo'yli sher o'mganli, qo'lida ko'zasi bor. Qo'lidagi ko'zasini to'ldirib, qo'ltig'iga tirab, Go'ro'g'libekka qarab:

«Bu kelgan qanday ajali yetgan odam ekan», – deb qarab turibdi. Go'ro'g'libek haligi xotinga qarab, oyog'ini uzangiga tirab: «Bu qanday shahar, darvoza kimning uyi», – deb, bir so'z dedi:

Aqli borning bo'ladikan¹ ko'p o'yi.
Ko'zasini to'ldirib turgan mushtipar,
Naqqoshli joy, qanday odam saroyi?

Ado bo'lmas tor siynamning hasrati,
Saltanatman² to'p qo'yibdi har yoqqa,
Saltanatli rabot kimning raboti?

Ko'zangni to'ldirib turmay, qaraysan,
Naqqoshli joy qanday xonning makoni?

Xudoyo ketgay-da yurakning dardi
Osha yurtdan oshib keldim, so'rayman,
Mana turgan, qanday shohning bog'oti?

Bechora mushtipar ayol bu so'zni eshitib, yurak-bag'ri ezilib, ko'zidan yoshi tizilib, Go'ro'g'libekka qarab bir so'z dedi:

Yaxshilik ko'r, yomonlikni ko'rmagin,
Ko'p yilgacha uzoq yasha, o'lmagin!

Meni desang, ketgin kelgan yo'lingga,
Rayhon podsho ko'rib, o'zing o'lmagin!
Bu makkor Rayhon arabning joyi,

¹ Bo'ladi ekan.

² Saltanat bilan.

Chiroqqinam, ko'rsa, seni o'ldirar,
Qizil gulsan, ochilmayin so'ldirar.

Ko'rsatmaydi senga o'z elatingni,
Kundan-kunga ziyod qip hasratingni.
Rahmi kelmas, Rayhon arab o'ldirar.
O'lja qilar ostingdagi otingni.

Oqizar chirog'im, ko'zdan yoshingni
Quzg'unga torttirar sening go'shtingni,
O'lja qilib, kiyim bilan otingni,
Kesib olar shu tanangdan boshingni.

Yosh o'g'lonsan rahm ayladim holingga,
Keskir xanjarni bog'labsan belishta,
Rayhon arab ko'rsa, seni o'ldirar,
Chirog'im keta ber, kelgan yo'lingga!

Go'ro'g'libek mushtipardan bu so'zni eshitib, chiroyi
ochilib, og'zidan durlari sochilib, G'iroti jo'sh qilib, fildan bo'lib
pishqirib:

«Murod-maqsadimga yetdim», – deb yuragi toshib, haligi
bechora ayolga qarab, bir so'z dedi:

Bedov mingan tog'dan pastga chopindi,
Yovning kuni botir qalqon yopindi.
Ming martaba shukur qilay, mushtipar.
Izlaganim o'z oldimdan topildi.

Quloq solgin gapning yolg'on-rostiga,
Poylab yurdim yung soqolning qasdiga.
O'ladi deb xafa bo'lma mushtipar,
Shukur kepman tarafimning¹ ustiga!

Sen gapirding yuragimda cherim bor,
Mard yigitman: nomus bilan orim bor.

¹ Dushmanimning.

Endi shukur, yetibman murodima,
Shirvon elda so'qillagan yorim bor.

Yig'latgan elimda bir nechamni,
Yuraklarda g'am ko'p, dardman¹ anchamdi².
«Baytalingga otimni qo'yaman», deb,
Op keluvdi Xoljuvonday chechamdi.

Kengash chiqar elning katta biyidan,
Go'ro'g'li toy deb chiqqan Yovmit uyidan.
Voy bolam, deb o'pkasini bosolmay,
Shu ayol chinqirib turdi joyidan.

Sarg'aygan ekan-da bebaxtning yuzi,
Qoshi qaro edi, daryo qunduzi
Buning o'zi Turkman elning azizi.
Shundayin Go'ro'g'li tiklab qarasa,
Kelayotgan Xoljuvonoyning o'zi.

Yig'lab qolgan elida bir nechasi,
Qatorga tirkalgan norcha, lo'kchasi.
Go'ro'g'li shundayin tiklab qarasa,
Bachchajon, deb o'pkasini bosolmay
Kelayotgan Xoljuvonday chechasi.

Ena, deb Go'ro'g'li ko'zin yoshladi,
Qamchisini og'ziga olib tishladi.
Otining tizginin solib bilakka
– Voy enam! – deb G'irdan o'zin tashladi.

Tomosha aylang, Xoljuvonning ishiga,
Davlat turmas takobirning boshvda.
Bachchajon, deb qulochini yozib op,
Bolam deb ayqalab oldi to'shiga.

¹ Dard bilan.

² Ancha.

To'xtatolmay Go'ro'g'libek o'zini,
Merganlar ovlaydi ko'lining g'ozini,
Bu enam deb, u bolam deb yig'laydi,
Iskalab yuziga qo'yib yuzini.

Bek bo'lmay qo'llariga dobil tuymaydi,
Xafa bo'lmay ko'zdan yoshni qo'ymaydi.
Bolam, deb quchoqlab olib qaynisin,
Iskalaydi mehriga hech to'ymaydi.
G'o'ro'g'lini yozdirgani qo'ymaydi,
Go'ro'g'lining kokillarin silaydi.

Chechan ekan gapni gapga ulaydi,
Iskalab yuziga yuzini qo'yib,
Taqdir qursin, deb mehriga to'ymaydi.

Go'ro'g'libekman¹ Xoljuvonoyim ikkovi bir-biri bilan
ko'rishib, hol-ahvol so'rab Xoljuvonoyim Go'ro'g'libekka qara-
rab, oh tortib bir so'z dedi:

Tog'larning boshini cholgan tumanmi,
Yovmit eli qadimgiday zamonmi?
O'lmay ko'rdim, chiroqqinam o'zingni,
Saltanatli Ahmad tog'ang omonmi?

Yuraklarim bo'lgan to'la qonmi?
Ko'chalarda necha beklar sarsonmi?
O'lmay ko'rdim, sening oyday betingni,
Yovmit podshosi Urayxon omonmi?

Sarg'ayib menday chechang ro'ylari,
Oh desa sop bo'lmay qolar o'ylari.
Qaytibgina² kelding, Shirvon eliga,
Eson-omonmikan Yovmit biylari?

Sarg'aygandi Xoljuvonning yuzlari,

¹ Go'ro'g'libek bilan.

² Qanday qilib.

Yovmitga qaragan ikki ko'zlari.
Endi o'lsam, xudodan yo'q armonim,
Salomat yuribmi ko'rkam qizlari?

Menday chechang ko'zdan yoshin to'kibdi,
Chechang o'lsin, qaddin yoydan bukibdi.
Yoppa-yovlik qarindoshlar omonmi?

O'lmay ko'rdim, darding o'rsin o'zimni.
Men eshitdim, ena degan so'zingni.
Xoljuvonman, izlaringdan, aylanay,
Chiroqqinam, ko'rdim ikki ko'zingni.

Go'ro'g'libek:

– Ey checha, bu damni g'animat bilmoq kerak. Bu, Shirvonning yurti, katta taraf – dushmanimning mamlakati. Birov yung bosgan Rayhon podshoga borib aytar, burqillab tevaragimni ko'p lashkar olar, vaqtli turing, orqamga mingashing, ketamiz Yovmit eliga, – dedi.

Xoljuvonoyim aytdi:

– Chirog'im, mening Shirvon eliga kelganimga uch yil bo'libdi, lekin Rayhon arabga bir kosa suv qo'limdan berganim yo'q. Agar sen meni olib ketsang, Yovmitga yetsang ma'rakamajlislarda, odamlar: «Go'ro'g'libek xo'p ish qilibdi, uch yildan beri Rayhon arab xotin qilib yurgan chechasini olib kelibdi», – deydi. Mening kasofatim senga tegadi. Davlatingiz, martabangiz, ellarning ichida past bo'ladi, «Chechangizni Rayhon arab unday qilgan, bunday qilgan», – deb dushmanlaring aytadi.

Go'ro'g'libek, endi sizga aytadigan bir gap bor:

Rayhon arabning bir qizi bor, yarim belidan pasti uch botmon, yarim belidan yuqorisi ikki botmon. O'zi to'shli, to'ladan kelgan go'shtli, shirin so'zli, qizil yuzli, jodu ko'zli, saraton yulduzli, la'l munchoqli, oydan suluv, oftobdan ortiq, oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor. Har bir narsa deguday, har bir barno ko'rguday, ana shu qizning chin oti Xumoroy, laqabi Zaydinoy. Shuni olib qochib keting. Ertan Zaydinoyini: «Kir yuvarman», – deb kirga olib chiqaman, shuni olib qochib ketsangiz,

hamma or-nomusga barobar bo‘ladi. Mana, Gulshan chorbog‘da yotib damingizni olib turing, – dedi.

Go‘ro‘g‘libek Xoljuvondan bu so‘zni eshitib:

– Xayr esa, – deb, Gulshan bog‘da yotib qoldi. Shuytib, Go‘ro‘g‘libek yotib tursin, Xoljuvondan eshiting!

Xoljuvon oyim ketdi, o‘rdaga yetdi. Xoljuvon uch yildan beri Turkmanning urug‘i qurimasa, bir kuni bir turkman o‘g‘loni kelib olib ketadi, deb Rayhon arab bilan gaplashgan emas, bir kosa suv ham bergan emas edi.

Rayhon arabning oti G‘irotning isini olib, bolasi emasmi, egasi Rayhon podshoga savdo tusharini bilib, qoziqda turib tinmasdan kishnab, aylanib yotibdi. Kechqurun bo‘lib, tong ham otdi.

Rayhon arabning to‘qson turli chitdan bo‘lgan bir ko‘rpasi bor edi. Shuni yopinib yotib edi. Shunda Xoljuvon Rayhon arabga qarab:

– Men Ko‘kbuloqqa kir yuvishga chiqib kelay, – dedi. Unda Rayhon arab Xoljuvonga aytdi:

– Sen kirga chiqsang, men nima kiyaman?

Xoljuvon aytdi:

– Seni kim ko‘rayotibdi. Ko‘ylak-ishtonlaringni yechib berib yalang‘och bo‘lib, ko‘rpaga o‘ranib yota ber. Men kirni darrov yuvib kelaman. Qurib qoladi, kiyib olasan, – dedi. Rayhon arab ko‘ylak-ishtonlarini yechib, Xoljuvonning oldiga qarab otdi.

Xoljuvon aytdi:

– Zaydinoy qizingni kir yuvishga menga qo‘shib yubor. Shunda Rayhon arab:

– Kirni yuvmasang, yuviqsiz qolsin, peshonamda bir qiz bor, buning ham qo‘lini qabartirib kir yuvdirayinmi? – dedi. Xoljuvonoyim aytdi:

– Ko‘kbuloqda bir o‘zim kir yuvib yurganda bir suv yoqlagan keladi, meni ushlab oladi, dod deganimni kim eshitadi, uyati o‘zingga qoladi, – dedi. Rayhon arab buni eshitib: «rost aytadi», – deb qizini oldiga chaqirib olib:

– Zaydinoy, bor, enang bilan kir yuvishib kel, – dedi.

Zaydinoy: – Xo‘sh, – dedi.

Xoljuvonoyim bilan Zaydinoy ikkovi bir bo‘lib, kirlarni ko‘tarib, Ko‘kbuloqning oldiga yetdi.

Zaydinoy yetib, enasiga qarab, boshini chayqab, bir so‘z dedi:

Otamning ochilgan guli so‘libdi,
Kun qiyomat qari otamga bo‘libdi.
Kiri qursin, yuring, ena, ketamiz,
Osha yurtdan elga dushman kelibdi!

Arosat maydonda otin yelibdi,
Dushmaniga yo‘q savdoni solibdi.
Xayol qilmang, ena, yuring o‘rdaga,
G‘ayri yurtdan elga dushman kelibdi!

Eshit ena, Zaydinoyning so‘zini,
O‘ldiradi qari otamning o‘zini!
Bir elatdan katta taraf¹ kelibdi,
Ko‘rmaysizmi, do‘non² toyning izini?

Mavj urib, misli daryoday toshibdi,
Buni ko‘rib aqlginam shoshibdi,
Hayallamay tezroq uyga yetayik,
Oyog‘i qubbaday yerga tushibdi!

Xoljuvon Zaydinoyga qarab:

«Oxir zamonning bolasida, uyat bormi», – deb, bir so‘z aytayotibdi:

Otangizga chuchuk so‘yladim,
Sahar kelib, Ko‘kbuloqni loyladim.
Otang oti yetti marta bo‘shaldi,
Har marta «moh-mohlab» ushlab boyladim.
Xushvaqt bilan o‘tkar³ bahor yozini,
Angla bolam, Xoljuvonning so‘zini!

¹ Dushman.

² Do‘non, do‘nan – ikki yashar ot.

³ O‘tkaz.

Otangning oti shu yerda o'ynagan,
Tanimadim, otang otin izini.

Aylanay, bizlardan xabar olmading,
Sen boyvuchcha tun uyquni bo'lmading,
Mast bedov shu yerdan o'ynab o'tgandi.
Gapingga ichim g'amga to'ladi,
Yosh bachchasan, hech nimani bilmaysan.

O'ynaganda katta tulpor izi ham
Shundaychoq¹ bo'p kichik bo'lib qoladi.

Zaydinoy Xoljuvonoyimga qarab, bir so'z dedi:

Enajon, bugun sahar tush ko'rdim,
Men tushimda bir qabohat ish ko'rdim.
Shu yerga kep, men kir yuvib yotganda,
O'n besh yashar bachchani yo'ldosh ko'rdim.

Firib bilan ushlab oldi qo'limdan,
Zo'rlik bilan olib ketdi qo'limdan,
Bir shaharga olib bordi o'zimni,
Bir qari odam quchib yotdi belimdan.
Sollanib so'rgandi shirin tilimdan,
Xotin qip, xizmatkor qilgan bo'lib.

Shu bachchanning o'zi tarafsiz² polvon,
Yonida yarqillar keskir isfihon,
Olib qochib ketdi, mening o'zimni.
Tushi qursin ta'birlarm ko'p yomon.
Bir mo'ysafid xotin qildi begumon.
Tezroq yuring, enajon, ish yomon.

Xoljuvonoyim, tush ham dunyoda gapmi, deb kir qozonini qura berdi. Zaydinoy laganni yerga otib yubordi, lagan

¹ Shunaqa.

² Tengi yo'q.

toshga tegib jangirlab ketdi, enasiga qaramay araz urib, uyiga qarab chopib ketdi.

Buni ko'rib: «Ish yomon bo'ldi», – deb Xoljuvonoyim ham ildam-ildam kiyimlarning barini qora balchiq loyga tiqib ho'l holicha bir loy ko'ylakning ichiga solib, bir ro'mol bilan o'rab ko'tarib buloqqa boradigan boshqa bir yo'l bilan Zaydinoynoydan ilgari uyiga yetdi, uh, deb kiyimlarni yerga olib urdi. Xoljuvon xafa bo'lib keldi, buni Rayhon arab ko'rdi:

– Nimaga tag'in qaytib kelding, – dedi. Xoljuvonoyim Rayhon arabga qarab, bir so'z dedi:

Bildirayin bilmaganing bilmasang,
Shoh to'ra maqsadga yetgin o'lmasang.
Ko'rgan sirni sizga aytay, polvonim,
Tag'in-a ko'nglingga og'ir olmasang.

Analman¹ Mansurga² qurgan dor ekan,
Endi o'ylasam, bu manglayim sho'r ekan.
Kelganimning ma'nisini aytayin,
Qizing qursin bir o'ynashi bor ekan.

Sikillab juvonmarg vaqtin xushlaydi,
Boshin chaykab, labginasin tishlaydi.
Kim ekan deb; o'zim turib qarasam,
Shu juvonmarg o'zin bastgoh tashlaydi.

Quloq sol, shoh to'ram, mening dotima,
Rozi bo'ldim qaytayin qismatima.
Qochib ketsa, o'ynashiman³ yer yutgur,
Bir kun tonglar ta'na qilma aftima!

Rayhon arab aytdi:

– Bo'ldi, bo'ldi gap keldi. Lekin shu shaharga kechadan

¹ Analhaq bilan.

² Husayn ibn Mansur Halloj (858-922) – tasavvufdagi o'ta so'l oqimning yirik vakili. Shariat peshvolari Hallojni bid'atchilikda va shakkoklikda ayblab, qatl etishga hukm chiqarganlar va dorga tortganlar.

³ O'ynashi bilan.

beri Go‘ro‘g‘li paydo bo‘ldi. Har kun juvonmargni tergap yurar edim. Kecha senga men andarmon bo‘lib qolibman. Bu juvonmarg Go‘ro‘g‘lini ko‘rgan. Har nima bo‘lsa, qizni bo‘y yetkizmay vatandan chiqaradigan. Qanday qilay, bu ishlar o‘zimizdan bo‘lgan. E, xotin, durbini ol!

Xoljuvon kiyimlarni darrov panaga tortdi. Xoljuvon:

– Rayhon podsho, ko‘rpangni bo‘yningga ilib, yalang‘och minorning boshiga chiqib durbini ko‘rmoqqa odamlardan uyalmaysanmi? Men o‘zim durbini ko‘rib, kim bor, kim yo‘qligini aytyoam ishonmaysanmi? – dedi.

Rayhon arab:

– Men sening gapingga ming marta ishonaman, lekin o‘zim durbini ko‘rib, dushman kelgan bo‘lsa ushlab olib, o‘ldirib, qonini to‘kaman deb edim-da. Esa sen o‘zing bor, minorga chiqib durbini ko‘rib kel! Har nima bo‘lsa menga kelib ayt! Men o‘zim dushmanning ishini qilaman, – dedi. Xoljuvonoyim qo‘liga durbinni olib, minoraning ustiga chiqib ketdi. Lekin Xoljuvon minorga chiqib ketgan bo‘lsa ham, Rayhon arab o‘rnidan turib, qo‘liga no‘xatdan olib, fol ko‘rib: «Kelgan dushman Go‘ro‘g‘li ekan», – deb yotdi. Lekin: «Har nima bo‘lsa ham, kelgani rost bo‘lsa Xoljuvon minorning ustidan ko‘rib, menga aytadi», – deb yotdi.

Xoljuvonning aytgan so‘zi budir:

Xurjun ko‘lga mingcha baytal kelibdi,
O‘zing o‘lmay kim keladi Shirvonga.

Ko‘rdim davron sursang manzil makonda,
Sizdayin polvon yo‘q mana jahonda.

Ko‘lga kelgan qisir baytal ko‘p ekan,
O‘zing o‘lmay, kim keladi Shirvonga?

Mast baytallar Qulo cho‘lda yelibdi
Chulqordan yurib Qurjun ko‘lga kelibdi.

Ayg‘ir oting shuning isin olibdi,
Kishnagani, to‘ram, shundan bo‘libdi.

Sizday polvon eson-omon turganda,
O‘zing o‘lmay, kim keladi Shirvonga?

Bundan buyon yaxshi salla o‘ragin,
Soqolingni sildiratib taragin!
Gapinama¹ ishonmasang, polvonim,
Mendan keyin o‘zing chiqib qaragin!

Xoljuvon o‘zingga ixlos qilibdi,
Oting baytallarning isin olibdi.
Kishnagani, to‘ram, shundan bo‘libdi,
Gapim yolg‘on bo‘lsa kelib qaragin!

Rayhon podsho:

– Ishondim, bu el ikki kun ilgari kelibdi. Har yilda ikki kun keyin kelar edi. Mening otim shularning isini olib, shuytib kishnagan ekan, – dedi. Xoljuvon minordan tushib, Rayhon arabning oldiga yetdi.

– Qizing kirdan arazlab keldi, endi kirga bormayda, chaqirib:

«Kirga bor», – deb do‘q urib qo‘y, – dedi.

Rayhon arab qizini kirga buyurdi.

Zaydinoy otasiga dardini aytolmay:

«Voy, o‘gaychiligi qursin, o‘z enam bo‘lsa, bunday qilarmidi», – deb nochor enasi bilan kirga jo‘nay berdi.

Enasi kirlarni ko‘tarib olib, yana haligi Ko‘kbuloqning boshiga yetdi. Xoljuvonoyim endi chekalab keldim, deb, dimog‘ini chog‘ qilib, yantoqqa suvni sepib: «Tez yonmasin, burqirab tutun bo‘lsin», – deb cho‘g‘ solib yantoqni puflab tutatib yubordi. Buni Go‘ro‘g‘libek ko‘rib, G‘irotining ayil-po‘shantlarini zertang-zabartang qilib tortdi. G‘irotini minib o‘ynatib, Gulshan bog‘dagi rabotdan chiqdi. Otning yerni bosganiga yerlar larzaga kelib, tebranib, tuproqlar osmonga burqillab, to‘zon kunning betini olib kela berdi.

Shunda Zaydinoy aytdi:

– E ena, qarang, kechagi dushman ana.

¹ Gapginamga.

Xoljuvon:

– Falonchi sarkardaning o‘g‘li-ku, ko‘zing ko‘r bo‘ldi-mi? – dedi. Zaydanoy aytdi:

– E ena, hech yerida yungi yo‘q.

Shu orada Go‘ro‘g‘libek kelib qoldi. Go‘ro‘g‘libek Zaydinoyga qarab, oyog‘ini uzangiga tirab, bir so‘z dedi:

Enib keldim tog‘laringdan,
Bir gul uzsam bog‘laringdan,
Suvsab keldim cho‘llaringdan,
Suv ber, oyim, qo‘llaringdan!

Tutma ro‘mol yuzginangga,
Dona-dona xollaringdan!
Nasib qilgan beklar quchar,
Sening xipcha bellaringdan.
Suv ber, nozim, qo‘llaringdan!

Ko‘zlaring tongning yulduzi,
Qoshlaring daryo quduzi,
O‘zing Shirvonning azizi,
Suv bergin arabning qizi.

Rayhon arabning yolg‘izi,
Ichay sening qo‘llaringdan!
Beklar otini yeladi,
Ko‘rganlar hayron qoladi.

Og‘zing oltin piyoladay,
Quyib bergin bollaringdan!
Tutma ro‘mol betginangga,
Dona-dona xollaringdan!

Buni eshitib Zaydinoy bir so‘z dedi:

Uzun-uzun uvomig‘ bor,
Elda katta bobomiz bor,

Suv bermakka tovbamiz bor,
Iching kuysa, tushib ichgin,

Ostingda ko‘k tulpormidi?
Belingda zulfiqormidi¹?
Buncha hukm so‘zlay berding,
Olib qo‘ygan cho‘ringmidi?

G‘o‘non² toyni o‘ynatasan,
Sen ko‘nglimni qabartasan.
Yuraging kuysa yo‘lovchi,
Chashmaning boshiga tushib,
O‘zing suv ichib ketarsan.

Bu so‘zni eshitib Xoljuvon Zaydinoyga qarab aytdi:

– Yosh boshing bor, senga savob darkor emasmi? Suv bergan savobga botar emish, dilozor tip-tikka imonsiz qotar emish. Sen olma eding-da, uzib ob ketami? Mana, laganga suvni solib uzatib qo‘ya qol-da. Bu zamonning bolasining uyati yo‘q-da, uyalmay erkaklar bilan so‘zlashib, gapiga savol-javob qilib turadi.

Zaydinoy enasining so‘zidan o‘tolmay, enasiga qattiq javob berolmay, nochor o‘rnidan turib mis kosani olib, Ko‘k-buloqning suvidan yarim qilib, Go‘ro‘g‘libekka uzatdi. Go‘ro‘g‘libek qo‘lidagi mis kosani urib yuborib, ikki qo‘li bilan ikki qo‘lidan ushlab, silkib ilgariga tortdi. Zaydinoy tizza bo‘yi baland ko‘tarildi. Zaydinoy buni ko‘rib, labini tishlab, achchig‘i kelib, soldarini³ solib, yerga qarab bir tortdi. G‘irotning tizza-sidan pasti yerga kirib ketdi. Go‘ro‘g‘libekning burnidan chak-chak qon ketdi.

Go‘ro‘g‘libek Xoljuvon chechasiga qarab, bir so‘z aytdi:

G‘anqillab uchadi ko‘llarning g‘ozi,
Sarg‘aydi menday yo‘lbarsning yuzi.

¹ **Zulfiqor** – ikki uchli yoki ikki tomonlama tig‘li qilich.

² **G‘o‘non**– ikki yashar toychoq.

³ Og‘irligini.

Chechajon, o‘zima bergin himoyat
Qaytayin¹ zo‘r ekan arabning qizi!

Arab qizi bilmaganim bildirar,
Ko‘plab lashkar Shirvon eldan keltirar.
Vaqtli ilojin qilgin, Xoljuvon,
Avval meni, so‘ngra seni o‘ldirar!

Cho‘llarda mindim G‘irko‘kday otni,
Burnimdan diyarak-diyarak qon ketdi.
Vaqtli oldima kelgin, Xoljuvon,
Bir andak, suyagim shovshab ketdi!

Buni eshitib, Xoljuvon o‘rnidan turib:

«Zaydinoyning ko‘ngli mendan qolmasin», – deb, bir
so‘z aytib ketib borayotibdi:

Yangi olamday qilganman o‘zimni
Yo‘lingga to‘rt qildim shahlo ko‘zimni.
Sen qanday bemazasan yo‘lovchi
Qo‘yib yubor, mahkam ushla qizimni!

Haq kuydirdi mening kulbaxonamni
Rayhon arab kuydirgandi tanamni,
Sen qanday o‘larmonsan yo‘lovchi,
Qo‘yib yubor, mahkam ushla bolamni!

Borib obod qilgin xonadonimni!
Tag‘in-a qo‘lingdan chiqib ketmasin,
Mahkam ushla, qo‘ygin Zaydinjonimni!

Qulo cho‘lda yana vaqting xushlama,
Sen yigitsan, lablaridan tishlama!
Qo‘yib yubor mening yolg‘iz qizimni,
Mahkam qilgin, bilagidan ushlama!

¹ Nima qilay.

Bu soʻzlarni aytdi, chopqillab Zaydinoyning oldiga yetdi. Yomon kirlarning kirini ketkizmak uchun rasm boʻlgan bir gazcha qoʻlida yoʻgʻon tayogʻi bor edi. Shuni qoʻliga olib, Zaydinoyning putiga oralatdi. Oy Zaydinning yomon qitigʻi kelib ketdi, sachrab Goʻroʻgʻlidan bir gaz yuqori boʻlib ketdi. Shunda Goʻroʻgʻlibek qoʻlini qoʻyib yuborib, goʻsam serkaday¹ qilib, ikki qoʻli bilan belidan, qoʻltigʻidan mahkam ushlab egarning qoshiga koʻpkari chopgan odamday tortib olib, bir bosdi. Zaydinoyning qoburgʻasiga egarning qoshi botdi. Ana shunda Xoljuvon Goʻroʻgʻlibekning boshidan sallasini olib, Zaydinoyni Gʻirotning yoliga teng tarozi qilib, egnidan, oyogʻidan oʻrab egarning qoshiga mahkam qilib boylab berib, bir soʻz dedi:

Xudo qilgan ikkovingga marhamat,
Uch yil boʻlmay Xoljuvonga qiyomat.
Zaydinoyjon Ahmadbekka omonat,
Omonatga, qaynim, qilma xiyonat!

Yovmit elga boring sogʻ-u salomat!
Arab qizi Ahmadbekka omonat.
Koʻngling qochib tagʻin qilma xiyonat,
Seni haqqa, Zaydinoyni senga topshirdim!
Togʻang rozi boʻlsin mendan davomat²!

Doʻngga-doʻngga doblingni tuydirgin,
Yovmit elda xaloyiqni yigʻdirgin.
Ahmad togʻang, dod deb boʻzlab yotgandi(r),
Zaydinoyni Ahmadbekka suydiringin!

Togʻangning duosini olgin vallamat³,
Yovmitda qil Zaydinoyning toʻyini!
Kelganlarga chiroyli toʻn kiydirgin,
Togʻangga tomosha qildir boʻyini!

¹ Echki.

² Davomat – doimo.

³ Vallamat (valiyi neʼmat, valeneʼmat) – inʼom va ehson egasi.

Senga aytolmagan tog'ang o'yini,
Zinhor bergin Ahmadbekka Zaydinni.
Tayin bir xotin qip olsin xon Ahmad!
Borgaysan elingga sog'-u salomat.

Go'ro'g'libek, xo'p, deb jo'nab ketdi, G'irotning to'rt oyog'i yerni to'rt qozonday qilib o'yib ketdi. Oyog'idan chiqqan chang tumanday kunning yuzini tutdi. Go'ro'g'li qirq toshcha yo'l yurib ketgandan keyin Xoljuvon: «Dod», – deb kiyimlarni shu yerga qo'yib, Rayhon arabning oldiga yetdi, hadeb zor-zor yig'lay berdi.

Rayhon arab: – Nimaga yig'laysan? – dedi.

Xoljuvon aytdi: – Aytmabmidim, qizing Zaydinoy o'ynashi bilan qochib ketdi!

Shunda Rayhon arab aytdi: – Yuvgan kiyimlardan olib keldingmi?

Xoljuvon: – Hali kiyimlarni yuvganim yo'q edi. Ozmi-ko'pmi mojaro bo'ldi. Talashib-tortishib, yiqilib-surilib, sening oldingga keldim.

Shunda Rayhon arab aytdi: – Esa biz nima kiyamiz?

Xoljuvon aytdi: – Endi sen ko'rpaning o'rtasidan teshib, kiyib olmasang, boshqa kiyim yo'q.

Rayhon arab:

– Sen tulpor otni egarla! – dedi. Xoljuvon terlikni olib borib, otning beliga tashlab keldi. Undan kelib bellikni olib ketdi, qaytib kelib, chirgini olib borib otga qo'yib, jahaldirikni ikki marta olib bordi. Egarni olib borib teskari soldi, undan kelib yol-po'shni ko'ndalang tashlab, derkin yoyni ham teskari tashladi, Pushtanni otning chotidan tortib qo'ydi. Afzallar oldin-keyin bo'lib qoldi.

Kelib Rayhonga aytdi:

– Tur, otingni egarladim, tezroq qamchilasang-chi.

Rayhon joyidan turib ko'rpaning o'rtasidan tishlab bir tortdi. Yirtig'idan bo'ynini chiqarib, beliga bir chilvir boylab otning oldiga kelib:

– Nega bunday egarlading, – dedi. Xoljuvon aytdi:

– E, joningdan urgur, men sening sayisligingni qilib

yuribmidim?! Menga non bilan ilikdan gapir.

– Rost aytasan, – deb Rayhonning o‘zi otini o‘xshatib egarlab, yuganlab, dalaga chiqardi. Tulpor emasmi, uchar qushday bo‘lib chiqdi. To‘qson botmon cho‘yandan quydirgan kaltakchasini, qamchisini bilagiga sodib, otga minib: «Chuv», – dedi.

Rayhon arab shoshqich otning oyog‘idan tushovini yechmay minibdi, Xoljuvonga qarab:

– O‘, xotin otning tushovini yechib yubor, – dedi. Xoljuvon baxmal qiyg‘ichni olib, otning tushovini yechgan kishi bo‘lib, chachasiga¹ suqib-suqib oldi.

Ot bezovta bo‘lib havolay berdi, Rayhonning oti havolab, uchar qushday bo‘lib, parvoz qilib, o‘zini juftaklab borayotir, oyog‘i do‘ng yerlarga tegadi, ship yerlarga yetmay yotir. Otning shamoli bilan Rayhon arab-ning belidagi chilviri uzilib ketdi. Ana endi ko‘rpasi havo kemaday havoga olayotibdi, tovushi vor-vor etib kelayotibdi. Rayhon arab yalang‘och terga tushib kelayotibdi.

Endi Go‘ro‘g‘libekdan eshiting:

G‘irko‘k otning jilovini saqlab, bilagiga solib, tortib, pirlarning bergan sariyoyini qo‘liga olib: «Otaman», – deb kelayotibdi.

Oy Zaydin:

«Mabodo otmasin», – deb kamoning bir chekkasidan ushlab kelayotibdi. «Yolg‘iz mendan boshqa bolasi yo‘q, otam viloyatining tuxumi qurib ketadi», – deb ko‘nglidan o‘tkazdi.

Go‘ro‘g‘libek Rayhonning kelayotganini bilib, Zaydinoyga aytdi: – Kelayotgan kim?

Zaydinoy:

– Parillagan tovushidan angladim, otam chopib kelayotganga o‘xshaydi, – dedi. Zaydinoy, Go‘ro‘g‘lining otasidan qo‘rqmaydiganini bildi. Shunday bo‘lsa ham go‘yo Go‘ro‘g‘liga ichi achiganday bo‘lib: «Otam zo‘r polvon, o‘ldiradi», – deb Go‘ro‘g‘liga qarab, bir so‘z dedi:

Otam sening bilmaganing bildirar,

¹ Chacha – hayvonlar pochasinging orqa tomoni.

Chekib xanjar¹ qora bag‘ring tildirar².
Jonningning hiylasin qilgin, yosh bachcha,
Rahmi kelmas sizday mardni o‘ldirar!

Oqizar ko‘zingdan qonli yoshingni,
Quzg‘unga torttirar sening go‘shingni!
Otam polvon sizday bekni o‘ldirar,
Kesib tashlar tanangizdan boshingni!

Zor yig‘latib bandi qilar o‘zingni,
G‘am sarg‘aytar Go‘ro‘g‘libek yuzingni.
G‘azab bilan qistab yetdi ortingdan,
Agar yetsa, o‘yib tashlar ko‘zingni.

Oshiq bo‘lgan misli o‘tday qobinar,
Otam qursin, bedov otin tepinar!
Zinhor tashlab keta bergin o‘zimni,
Menday xotin Turkman eldan topilar!

Iloyo, dunyosi tushsin bebaqo,
Sayil qiling elingizda chorboqqa.
Bir xotin deb o‘lib ketsang cho‘llarda,
Qaytay³, bo‘ldim cho‘lda sizga ro‘dapo.

Go‘ro‘g‘libek buni eshitib, Zaydinoyga qarab, bir so‘z
dedi:

Ne savdo ko‘tarmas mardlarning boshi,
O‘ljasini tashlab ketarmi mard kishi?
O‘ljasini tashlamoq xotinning ishi.

Ot chopilsa, shaqirlar tog‘larning toshi,
O‘ladi deb xafa bo‘lma, qaddingdan,
Yetsa bo‘lsin, er Alining savashi.

¹ Chekmoq – urmoq, solmoq.

² Qora bag‘ir – qora jigar. Qora bag‘irni tildirmoq – jonini olmoq, o‘ldirmoq.

³ Nima qilay.

To'rg'ay chuvlab, tong sarg'ayib ortarmi?
Qo'l sinmay muddaoga yetarmi?

O'ladi, deb ko'ngling bo'lma oy Zaydin,
Shunqor qush yemtikni¹ tashlab ketarmi?

Maylisda men o'zim maylarni ichdim,
Hangamada men og'zimdanda dur sochdim.

Seni deb otlangan kuni oy Zaydin,
Molimni sarf qilib, boshimdan kechdim.

Go'ro'g'libek aytdi:

– Sening otang meni o'ldirolmaydi, uning uchun xafa bo'lma! Mening senga ichim achib kelayotibdi. Mabodo, otasini o'ldirib qo'ysam, Zaydinoy xafa bo'lib qolmasin deb. Xayr, nima bo'lsa sening otang-da... O'zi indamasa, men indamayman, – deb G'irko'k otning jilovini shunday bo'shatib, jonivor G'irko'k ot, karomatingni mana shu yerda ko'rsat, deb bir debsinib yuborib edi, G'irko'k yashinday bo'lib jo'nay berdi:

«Rayhon arabning oti katta, mening otim toy, hali kichik, yotib olib qo'ymasa», – deb Go'ro'g'lining xavotiri bor edi. Uzangiga oyog'ini tirab, G'ivotga qarab, bir so'z dedi:

Dushman bilan bo'ldim taraf,
Arzimni aytay senga qarab,
Otim G'ivot, jonim G'ivot,
Yeming kishmish, to'rvang banot²,
Tezgir³ bo'lg'in, keldi arab!

Yovmit yurti mamlakatim,
Sinmagay endi qanotim,
Nazarkarda G'irko'k otim.
Otim G'ivot, jonim G'ivot,

¹ Yemtik – 1) ovqat; 2) parcha go'sht.

² Banot – qimmatbaho ipak baxmal.

³ Uchqur.

Yeming kishmish, to'rvang banot.
Tezgir bo'lg'in, keldi arab!

To'rt oyog'ing qoqqan qoziq,
Badanlaring qizdan nozik,
O'mganlaring fildan yoziq¹,
Otim G'irot, joni-m G'irot,
Yeming kishmish, to'rvang banot.
Tezgir bo'lg'in, keldi arab!

Timkil-timkil xollaringdan,
Shol ipakday yollaringdan,
Arab keldi yo'llaringdan,
Irg'igin, bobongning irg'igan yeri.

Rayhon podsho xunobalar yutgandi,
Tarafim² orqangdan quvib yetgandi.
Shu daryo xatarli joy G'irko'k ot,
Ota-bobong yashinday bo'p o'tgandi.

Otim G'irot, jonim G'irot,
Seni mingan topar murod,
Dushman yetsa bo'lar uyat.
Irg'igin, otangning irg'igan yeri,
Irg'igin, bobongning irg'igan yeri!

Otim G'irot, jonim G'irot,
Yeming kishmish, to'rvang banot.
Tezgir bo'lg'in, keldi arab!

Go'ro'g'lining bu tilini eshitib,
G'irko'k ot jonini sotdi.

Yaxshi otdir mard yigitning qanoti,
Qizdayin qiliqsib nazari G'irko'k,

¹ Keng.

² Dushmanim.

O'kcha tirab boshin baland qaratdi,
Qo'ltiqda sirillab yashin qanoti.

Jonivor G'irko'q ot og'zini ochdi,
Qarchig'ayday bo'p osmonga uchdi.

Go'ro'g'libek ko'zin ochib qarasa,
Yuz quloch daryodan nariga tushdi.

Go'ro'g'libek ko'zin ochib qarasa, Tajan daryosidan o'tibdi. Shunda orqasiga qarab turdi. Rayhon arab ham tulporini: «Chuv-ho», «chuv-ho», – deb qistab Go'ro'g'libek bilan izma-iz kelayotib edi. Bu ham otini Tajan daryosiga soldi. Boyagi poyidan qirqqani asar qildi. Daryodan o'tolmay otining oldingi ikki oyog'i daryoning berigi labiga tushdi, orqasidagi oyog'i daryoga botib, Rayhon arab daryoga «cho'lp» etib tushib ketdi. Oti o'zining tarafiga suzib o'tdi. Lekin Rayhon arabning bo'ynidagi ko'rpasi daryolardagi namatchilarning namatiday bo'lib suvda aylanib Rayhop arabni botgani qo'ymay oqib borayotibdi. Suv Rayhon arabni qo'ymay oqizib ketayotibdi.

Baliqlar: «Bizga yaxshi ovqat kelib qoldi», – deb har yer har yeridan tishlab kelayotibdi. Buni shunday holda ko'rib, Go'ro'g'libekning esiga Rayhonning aytgan so'zi tushib: «Besh kun davron sizniki, besh kun davron bizniki, Rayhon podsho menga qara, mana», – deb, Zaydinoyning bo'ksasiga shapatilab-shapatilab, Rayhonning qosh-manglayiga borib, mening so'zima quloq soling, deb bir so'z dedi:

Yung bosgan, eshitgin, mening dodimni,
Yovmit deydi unib-o'sgan yurtimni,
Uch yilda o'zingdan oldim lotimni.
E hok, e hok yet-da, ol-da, bachchag'ar!

Yurgan yo'lim bo'tako'zli jo'nag'ar.
So'lqillatib olib keldim Zaydinni,
E hok, e hok terda qolding, siynig'ar!

Tomosha qil, G'irko'k asp tozimni,
Uch yilda bosdimi sening izingni?
Seldiratib olib qochdim qizingni,
Tuman qildim arab sening yuzingni.

Tirik yurganingdan o'lim lozimdi(r),
Bundan bu yoq o'ylab so'zla so'zingni!
So'lqillatib Zaydinoy qizingni,
E hok, e hok mazax qildim o'zingni.

Quloq soldi Go'ro'g'lining tiliga,
Talato'p soladi Shirvon eliga.
Dushmanimning biri kam deb Go'ro'g'li,
Sariyoyini sadoqdan¹ oldi qo'liga.

Tarafiga² xo'p bemaza so'zladi,
Rayhon arab yurak-bag'rin tuzladi,
O'ldirayin dedi achchig'i kelib,
Ikki qoshning o'rtasidan ko'zladi.

Go'ro'g'libekning yoy bilan ko'zlab o'ldiraman degani-
ni bilib, Zaydinoy Go'ro'g'libekka yalinib, bir so'z dedi:

Xoljuvon chechangiz sochini yoyib,
Men qolarman davlatingda mung'ayib,
Otamni otma, otni otgin bekbachcha,
Otam o'lsa, eli bo'lar besoyib!

Men bo'larman bunda dardli devona,
Otamni otma, otin oting, taqsirjon,
Otam o'lsa, joyi bo'lar sag'ana!

Bedovlar chopildi Qulo dalaga³,
Men otamning o'lim o'tin tilayman,
Menday xizmatkoring tushdi o'rtaga.

¹ Sadoq – yoy o'qlari solinadigan asbob, o'qdon.

² Dushmaniga.

³ Qula dala (qula dasht, quladasht, qulodasht) – majozan keng dasht, qip-qizil dasht.

Kuyanimdan gapni gapga ulayman,
Qora zulfim zarafshonni silayman.
Yolg'iz o'lsa, tuxmi¹ qurib ketmaymi?
Men otamning o'lim o'tin tilayman.

Qavmi yo'q otamning qarindoshi yo'q,
Sirin aytar bir emchakdoshi yo'q.
Mening otam bir podshoning avlodi,
Otam o'lsa shu daryoning ichida,
«Voy akalar»im, buning emchakdoshi yo'q.

Mardlar oyimlarni saqlar, o'dag'a.
To'ram, sening mard, nomarding sinayman
Kuyanimdan gapni gapga ulayman,
Haq hurmati o'lim o'tin tilayman.

Otam o'lsa, xafa bo'lib yig'layman,
Sizday marddan menday qiz sadag'a.

(Go'ro'g'libek Zaydinoyning so'zini olib, Rayhon arab-
ni yana kalaka qila berdi:)

Iching kuyib o'lgin, arab,
Endi qoyil bo'lgin, arab.

Yetim toyim yelmadimmi?
Seni sarson qilmadimmi?
Endi lotim olmadimmi?
Seni g'amga solmadimmi?

Suvsiz cho'lda yetkizmayin,
Kuchuk bobo qilmadimmi?
Iching kuyib o'lgin, arab!
Endi qoyil bo'lgin, arab!

Sening so'zlar so'zingni oldim,
Kecha-yu kunduzingni oldim,

¹ Urug'i, sulolasi.

Bilsang jodu ko‘zingni oldim,
Jondek sening qizingni oldim.

Shunday sarvinozingni oldim,
Shirin-shakar so‘zingni oldim,
Iching kuyib o‘lgin, arab,
Endi qoyil bo‘lgin, arab!

Suvsiz cho‘lda qolding endi,
Bilsang, ado bo‘lding endi.
Tulpor oting nima bo‘ldi?
Esing bo‘lsa o‘lding endi.

Meni ahmoq demabmiding,
Mendan battar bo‘lding endi.
Iching kuyib o‘lgin, arab,
Endi qoyil bo‘lgin, arab!

Zo‘rligimni bildirdimmi?
Iching g‘amga to‘ldirdimmi?
Qizil guling so‘ldirdimmi?

Olmadimmi quvvatingni,
Qiz oyim suyukligingni,
Iching kuyib o‘lgin, arab,
Endi qoyil bo‘lgin, arab!

Bu so‘zlarni Rayhon arab eshitib, suvning ichidan
Go‘ro‘g‘libekka bir so‘z dedi:

Eshitgin yetimak, aytgan so‘zimni,
O‘lmasam bir kun bosarman izingni!
Men senga bir nasihat aytayin:
O‘zing olgin Zaydinoyday qizimni!

Borib obod qilgin Yovmit yurtिंगni,
Olib ketding menday marddan lotingni!

Bu so‘zimni quloqqa ol, enag‘ar,
Birov baytaliga qo‘yma otingni!
Bedov mingan Qulo cho‘ldan o‘tadi,
Mard degan maqsadiga yetadi.
Bir odam G‘irotdan olsa xonazot,
Seni ham menday qilib ketadi,

Borganingdan ko‘p odamni yig‘dirma,
Dobilingni qo‘lma-qo‘lga chuydirma.
Zinhor o‘zing olgin Zaydinoyimni,
Sen boshqaga berib, umrin kuydirma!

Rayhon arab aytdi:

– Har nima bo‘lsa o‘ljangni birovga berma, mard ekan-
san, sen ham o‘g‘il ekansan, mendan lotingni olding, haloling
bo‘lsin! O‘z yo‘lingni bilib, endi yurar yeringdan qolma!

Rayhon arab suvning beti bilan suzib daryoning qay-
rangroq yeriga borib qoldi. Shunda uytib-buytib daryoning qay-
rag‘idan chiqib oldi. Daryodan chiqib ko‘rpani yirti-yirtib,
paxtani olib, avrasini tashlab, astarini boshiga o‘rab, qo‘lini
chiqarib yopinib oldi. Paxta bilan avrasini olib ketar edi, paxta
suvda ho‘l bo‘lib qolgan emasmi, og‘ir bo‘lib otiga bir o‘zi
ortolmay qoldi. Ilojsiz: «Ko‘p uvadaga ega bo‘lib yuramanmi?
Tag‘in shunday uvadani toparman-da», – deb, hotamtoyligi tutib
tashlab ketdi. Rayhon arab astarga o‘ranib otining oldiga borib,
ushlab oldi. Minay desa oti cho‘loq bo‘lib, oqsoqlanardi. «Mayib
bo‘lganga o‘xshaydi», – deb xafa bo‘lib yetaklab, Shirvonga
qarab yayov ketdi.

Buni ketmoqda qo‘yib, Go‘ro‘g‘lidan eshiting:

Go‘ro‘g‘libek daryodan omon-eson o‘tib, dushman-
lardan qutulib Zaydinoyini orqasiga mingashtirib oldi. Goh
jebalab¹, goh yo‘rg‘alab, goh yo‘rtib mast bo‘lib, yuragidan cheri
ketib, o‘n besh kunlik oyday bo‘lib, Yovmit shahriga yetdi.
Yovmit eli, shahar xalqi Go‘ro‘g‘lini ko‘rib, talato‘p-g‘ulg‘ula
tushib qoldi. Go‘ro‘g‘libek shahar ichiga kirib Ahmadbek yotgan

¹ Jebalamoq – 1) tezlamoq, jadallamoq; 2) pildiramoq.

eshikning oldiga borib bir soʻz demoqchi boʻlib turdi.

Ahmadbek Goʻroʻgʻlining Yovmit elidan araz urib, kelmay ketgan kunidan beri shu uyda ilonday toʻlgʻanib, ayiqday agʻanab ham oʻgʻlidan, ham xotinidan ayrilib yotib edi.

Goʻroʻgʻli:

«Uyda hech kim bormi», – deb bir soʻz deb turibdi:

Assalomu alaykum, Ahmadbek togʻa,
Poʻlat doʻbiling tuygin-chi,
Koʻlga shunqoring chuygin-chi,
Op keldim arab qizini,
Togʻajon, bergin suyunchi!

Eshit Goʻroʻgʻli soʻzini,
Gʻamlar sargʻaytdi yuzini,
Ahmadbek, bering suyunchi
Op keldim arab qizini!

Sargʻaytibman yuzini,
Oʻydim dushmanning koʻzini,
Soʻlqillatib olib qochdim.
Zaydinoyday qizini.
Togʻajon, bering suyunchi.

Sening nomus, oring keldi,
Savdo xaridoring keldi,
Togʻajon, bering suyunchi!

Xoljuvonning oʻrniga,
Zaydinoyday yoring keldi,
Togʻajon, bering suyunchi!

Vatanningni obod qilar,
Oy Zaydinday yoring keldi,
Koʻzlari xumoring keldi,
Togʻajon, bering suyunchi!

Zaydin oʻn sakkiz yoshida,

Balxi¹ ro‘moli boshida,
Tog‘ajon, bering suyunchi!
Sadaf shovdirab to‘shiga,
Chiqqin yoringning qoshiga,
Ahmadbek, bering suyunchi.

Boshing chayqa, barmoq tshpla,
Chechamning vaqtini xushla,
Ostiga to‘shakdan tashla,
Tog‘ajon, bering suyunchi!

Chiqasop² yoringni ushla,
Xotin qip vaqtingni xushla,
Eniga qo‘lingni tashla.

Kechkisinga iskab yuzdan,
Tog‘ajon, bering suyunchi!

Aqlarini shoshirgin,
Ko‘ngillarini jo‘shirgin,
Tog‘ajon, bering suyunchi!

Rayhon bo‘p qoldi piyoda,
Shunqor tolpinar uyada,
Yomon deb o‘pka qilmagin,
Tog‘ajon, bering suyunchi!

Xoljuvondan bu ziyoda,
To‘shakda yot birday bo‘p,
Yangi ochilgan gulday bo‘p,
Tog‘ajon, bering suyunchi!

Ovlab kelgan pirday bo‘lib,
Tishing oppoq durday bo‘lib,
Badanlari qorday bo‘lib,
Badaniga anbar solib.

¹ Balxi – harir.

² Chiqa solib.

Ko'rganning ko'kayin kesib,
Chimildiqda hazillashsang,
Tog'ajon, bering suyunchi!
Zaydinoy sizga munosib,
Qoshi ko'zi yoyday bo'lib,
Cho'pon tortgan nayday bo'lib,
O'n besh kunlik oyday bo'lib,
Tog'ajon, bering suyunchi!

Ust-boshi shoyiday bo'lib;
Asovligi toyday bo'lib,
Yuvoshligi qo'yday bo'lib,
Yoringni suratini ko'rgin,
Lochin qarchig'ayday bo'lib,
Sollanib turishin qara.

Yomon kunlar o'tdi, tog'a,
Yoringni olgin qulochlab!
Yoring bilan surgin davron.
Kel oldima, tur, tog'ajon!
Endi davring sur, tog'ajon!

Uyingdan chiqib dalaga!
Suyar yoring ko'r, tog'ajon!
Bundan boshqa yoring bormi,
Kel oldima, bek Ahmadxon?!

Sening yoring Shirvon qizi,
Arablarning sarvinozi,
Shu shaharning jodu ko'zi,
Rayhon shoh arabning qizi,
Bir podshoning azizi.

Shu yurtning sohib tamizi,
Xizmatida necha kanizi,
Boldan shirin har bir so'zi,
Rayhonning bu yolg'izi.

Shirvon elda bitta o‘zi,
Tishi dur, labi qirmizi.
Ko‘zlari tongning yulduzi.
Uchar ko‘lining turna, g‘ozi,
Yigit qilar tog‘a sizni.
Ko‘zga dori bosgan izi,
Qora sochlari qunduzi,
Tog‘ajon, bergin suyunchi.

Keldi oy Zaydinning o‘zi,
Juda ham koyibdi bizi,
Tomosha qil ko‘ra bersin,
Yovmit elning barcha qizi!

Qanday qiziq bo‘lmas ekan,
Suyganingning aytgan so‘zi!
Orqasidan ergashmasmikan,
Odam bo‘lib, qo‘yday qo‘zi.

Qo‘liga olsa sozini,
Bulbulday yaxshi ovozi.
Eshitganlar ketolmaydi,
Shuytib, sudrab yurar bizi.

Go‘ro‘g‘lining tovushini eshitib, Ahmadbek uch yildan beri yotgan yeridan:

«Voy bolam, Go‘ro‘g‘lijon bormisan», – deb sachrab turib ketdi.

Yangi eshitdi Go‘ro‘g‘lining so‘zini,
G‘am sarg‘aytgan¹ ekan oyday yuzini.
Odamlarning shovqiniman² Ahmadbek,
– Voy bolam, – deb endi ochdi ko‘zini.

Mavj urib misli daryoday toshdi,

¹ Sarg‘aytirgan.

² Shovqini bilan.

Sipohilar ham vazirlar guvlashdi¹.
Go‘ro‘g‘lini yangi tanib Ahmadbek,
Voy bolam, deb Go‘ro‘g‘liga tarmashdi.

Xo‘rsinibdi so‘ylatolmay tilini,
Talato‘p qip beklar Yovmit elini.
Voy bolam, deb o‘pkasini bosolmay,
Voy bolam, deb bo‘yniga sop qo‘lini.

Har kim ko‘ngli, mard bilmaymi o‘zini?
Har yig‘laydi Ahmadbekday tog‘asi,
Iskalab yuziga qo‘ydi yuzini.
Go‘ro‘g‘libek imo qildi Ahmadga,
Quchoqlab ko‘tardi Rayhon qizini.

Zaydinoy qarasa, soqolining yarmi oq, yarmi qora, moshguruch o‘zi qarinaldo chol bo‘lib qolgan bir kishi. Zaydinoy Ahmadbekka qarab, shunga tekkuncha o‘lganim yaxshi deb bir chiranib edi. Ahmadbekning oyog‘i toyib, orqasiga chalqayib, Zaydinoy ustiga yiqildi, boshi yerga tegib, miyasi aylanib qoldi. Shunda shahar bekdodalarining ayollari ichidan chechan kayvonilari chopishib kelib, Zaydinoyni qo‘ltig‘idan suyab o‘rtaga olib, o‘t yoqib, yetalatib o‘tdi. Ahmadbekning o‘toviga olib kirdi. Ahmadbek ham bularning orqasidan bordi. Hamma shu yerda turgan katta-kichik podshozodalar, bek o‘g‘illar, barcha sipohilar, Go‘ro‘g‘libekni: «Hormang, bor bo‘ling», – qilishib, ko‘rishib, Ahmadbekning Zaydinoy yorini qutlug‘ bo‘lsin qildilar. Bularni shu yerda qo‘yib, endi Yovmit elining fuqarolaridan eshiting!

Yovmitning podsholik dabdabasidan Go‘ro‘g‘libekka odam kelib, podsholikka olib ketdi.

Hamma: «Yurtimizning podshosi keldi», – deyishib, nog‘ora, karnay, surnay chalishib, o‘ynashib, kulishib hangama qilishib, ko‘rganlarning aqli shoshib, bir xillari yo‘lidan adashib, do‘stlar shod bo‘lishib, dushmanlar xafa bo‘lishib, dushmanligini bildirmay o‘lganidan ular ham kulishib, sozanda, jirovlar

¹ Guvlamoq – harakatga kelmoq.

soz chertishib, Go‘ro‘g‘libekka jon-dillari bilan xizmat qilishib, tong otdi. Go‘ro‘g‘libek: «Qutlug‘ bo‘lsin deb kelayin», – deb, Ahmadbek tog‘asining oldiga ketdi.

Zaydinni kayvonilar Ahmadbekning uyiga kirgizib qo‘yib ketgan edilar. Ahmadbek bilan Zaydinoy ikkovi qolgan edi.

Zaydinoy: «Men Ahmadbekni o‘ldirmasam, meni oladi. Ahmadbekni o‘ldirsam, meni Go‘ro‘g‘libekning o‘zi oladi», – deb o‘ylab Ahmadbekni bosib, ustiga chiqib, ikki qo‘lini ushlab turibdi. Ahmadbek Zaydinoyini ko‘tarolmay, tipir-tipir etib yotipti.

Ahadbekning holini Go‘ro‘g‘libek ko‘rib, achchig‘i kelib:

«E qizig‘arning qizi, bu nima degan ishing, nima qilgan qilmishing», – deb Zaydinoyning qo‘lidan ushlab otib yubordi. «Agar xotin bo‘lsang, tog‘amga xotin bo‘lasan; bo‘lmasang, choyjo‘sh qaynatadigan bir qalam o‘tin bo‘lasan. Agar tog‘amga yana shunday qilsang, o‘ldiraman», – deb urishdi.

Shunday bo‘lsa ham, Zaydinoy ko‘p vaqtgacha Ahmadbekka bo‘ysunmay, tan bermay, chaqirsa bormay yurdi, so‘ng-so‘ng ko‘ngil qo‘yib ketdi.

Ahadbek Go‘ro‘g‘libekni duo qilib aytdi:

– Umring uzoq, davlating behisob bo‘lsin, tuproq ush-lasang oltin bo‘lsin! O‘lgunimcha sening xizmatkoringman, chirog‘im. Seni ko‘rib hamma dardim, hasratim esimdan chiqib ketdi. Buning ustiga Zaydinoyini olib kelib berding. Davlating o‘lguningcha ado bo‘lmasin. Sendan kamsiz dimog‘im chog‘ bo‘ldi. Endi davlatga sen egasan, bolam, o‘ligimning egasini toptim, hamma podsholik, beklilik ishlarini, barcha mol-hol, tanga-zarlarni senga topshirdim, – deb Go‘ro‘g‘libekni duo qilib, etagiga kallasini soldi. O‘zida bor bo‘lgan har nima amallarni Go‘ro‘g‘libekka topshirdi.

Aytdi:

– Men o‘lganimda to‘rt qada¹ bo‘z bilan go‘rkafan qilib, ko‘msang bo‘ladi.

Go‘ro‘g‘libek ham o‘rnidan turib:

¹ Gaz (o‘lchov birligi).

– Qulluq, tog‘ajon, har nima deganingizni qabul qildim,
– dedi.

Ahmadbek bilan Go‘ro‘g‘libek ikkovlari o‘rinlaridan turib, maslahat uyiga bordilar.

Ahmadbek Go‘ro‘g‘libekka:

– Sen yo‘q bo‘lib ketgan eding. Endi o‘zingning kelganningga, Zaydinoyini olib kelib berganingga bir to‘y qilib, Yovmit elining katta-kichiklarini yig‘ib sarpolar berib, vaqtlarini xushlagin, dimog‘larini choqlagin, – deb Yovmit elning shahridan katta-kichiklarni yig‘ib maslahatlashib: «Qirq kunlik to‘y qilamiz», – deb mirza, munshi¹, muharrirlariga har bir shaharlarga xat yozdirib, bir nechasiga bodpoy yo‘rg‘a otlardan mindirdi, bir xil uzoqroq shaharlarga ayyorlardan² yubordi.

Jarchilar chaqirib, to‘yga aytuvchilar keta bersin, endi to‘ydan eshiting!

Go‘ro‘g‘libek Yovmitning fuqarolarini yig‘ib, to‘y uchun yuzta o‘choqni o‘yib, kunda to‘yga yarasha semiz mollardan so‘yib, xizmatkorlar xizmatlarni qila berdi. Ana endi to‘y boshlandi. Katta-katta qo‘ylar so‘yilib yotir. Yovmit shahrida hamma katta-kichik, qiz-juvon parilar, hur sifatli oyimlar, katta kayvonilar barchasi yig‘ilishib, bog‘ maydoniga yetdi. Shunda ayollarning bir xili po‘ta soldi o‘ynashib, bir xili taqiya tiqmoch³ o‘ynab, bir xili bilgan ishlarini o‘ynab, bir xillari bir-birlari bilan o‘lan aytishib, lolagul yovg‘oshinlarday⁴ ochilib, har qaysilari o‘z nozlari bilan taranib, har xil o‘yinlarni qilib, dimog‘lari choqlashib yura berdilar,

Endi kelamiz to‘yxonaga...

Hamma – shohlar, beklar, xonlar, shoh o‘g‘li, bek o‘g‘li, xon o‘g‘li to‘yini qiziq qilmoqchi bo‘lib, har qaysilari bir ishga – birov ko‘pkariga, birovi kurashga, birovi poygaga, bir xili osh bermoq, bir xili ot ushlamoq, bir xili hamma o‘yinchilarni yig‘dirmoq, shunga o‘xshash ishlarga mutasaddi⁵ bo‘ldilar. To‘y

¹ Kotib.

² Xabarchi josuslardan.

³ Yovshan – yem-xashak bo‘ladigan ko‘p yillik o‘simlik.

⁴ Yovvoyi o‘t.

⁵ Mutasaddi – javobgar, mas‘ul.

juda talato‘p bo‘lib, to‘yga kelgan odamlarga kunda osh berib, bir xillariga bosh berib, oqshom palov, ertan choy berib ziyofat ustiga ziyofat, qand ustiga novvot, asal ustiga sharbat tortdi. Shoirlar so‘z aytgan, fuqarolar eshitgan, sozandalar sozini chertgan, qiz-juvonlar o‘ynagan, do‘st-dushmanlarning dimog‘lari chog‘ bo‘lib kulishgan, bir-birlari bilan sevishgan, yangidan kelganlari bir-birlari bilan ko‘rishgan, bilganlari: «Zaydinoyni Go‘ro‘g‘libek olib kelib, Ahmadga berdi», – deb bilishgan, bilmaganlar yon-atrofdagi jo‘ralaridan so‘rashgan, ko‘rganlarning aqli shoshgan, bir xillari bir-biriga to‘qishgan¹. Shuytib, to‘y qirq kun o‘tdi, to‘qson ikki bovli o‘zbek hammasidan yig‘ilishib to‘yga keldi. Gunohkorlarni ozod qildi. Amaldorlarga yaxshi sarpolaridan berib, qaysilarining oldilariga bir pud² keladigan kalla qandlardan berib, jo‘natib yubordi.

Ana endi navbat Zaydinoyga keldi. Zaydinoy ham hamma ayollarga mursak sarpo, bosh-oyoq kiyimlar berib, bir xillariga katta-katta kayvonilik amal berdi. Oqshom taqdirga tan berib, Ahmadbekka ko‘ngil qo‘yib, tan bag‘ishlamoqchi bo‘ldi. Shunda Go‘ro‘g‘libek bosh bo‘lib, hamma ulug‘ beklar, xonlar, bekozda, xonzodalar, kichik fuqarolardan shu yerda hozir turib, Zaydinoyni podsholik rasm-qoidasi bilan Ahmadbekka nikoh qilib berdilar. Qirq kunlik to‘y-tomosha bo‘lib, el-eliga, shaharlik shahariga jo‘nab ketdi. Shuytib murod-maqsadga yetdilar.

Izohlarni kiritishda To‘ra Mirzayev, Jabbor Eshonqulov va Selami Fidokor tahriri ostida 2007-yil nashr etilgan “Alpomish” dostonining izohli lug‘atidan va To‘ra Mirzayevning “Hodi Zarif suhbatlari” kitobidan ham ijodiy foydalanildi.

¹ To‘qishmoq – to‘qnashmoq.

² Pud – 16,38 kilogrammga teng og‘irlik o‘lchov birligi. Metrik o‘lchovlar tizimi qabul qilinganiga qadar qo‘llangan.

XALQ OG‘ZAKI IJODI
O‘ZBEK XALQ DOSTONLARI
GO‘RO‘G‘LINING
TUG‘ILISHI
(“Go‘ro‘g‘li dostonlari turkumi”)

Aytuvchi:
MUHAMMAD JOMUROT O‘G‘LI PO‘LKAN SHOIR

Yozib oluvchi:
Hodi ZARIF

Nashrga tayyorlovchi:
Malik MURODOV

Qayta nashrga tayyorlovchi, iqtibos va izohlarni kirituvchi:
Ergashboy MATYOQUBOV

Mas‘ul muharrir:
Lolaxon QO‘ZIBOYEVA

Kompyuterda sahifalovchi:
Ergashboy MATYOQUBOV

Litsenziya raqami AI № 185, 10.05.2011 yilda berilgan.

Bosishga 10.09.2019 yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108¹/₃₂.
Bosma tabog‘i 6,5. Shartli bosma tabog‘i 10,92. Garnitura –
«Times New Roman». Qog‘oz – ofset bosma. Adadi – 5000 nusxa.
Buyurtma raqami – 119-19. Bahosi kelishilgan narxda.

„Yangiyul Poligraph Service“ MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Toshkent viloyati, Yangiyo‘l shahri, Samarqand ko‘chasi, 44.